

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
M.ULUG‘BEK NOMIDAGI SAMARQAND
DAVLAT ARXITEKTURA-QURILISH INSTITUTI

“Kasb ta’limi” kafedrası

Institutning ilmiy uslubiy
kengashida ko‘rib chiqildi va
chop etishga ruxsat berildi.
Ro‘yxatga olindi: _____
Bayonnoma №____
«___» «_____» 2014 y.

«Tasdiqlayman»
Institutning ilmiy uslubiy
kengashi raisi
tex.fan.nom.dos. A.T.Qo‘ldashev

«___» «_____» 2014 y.

“Yo‘nalishga kirish “fanidan

MA’RUZALAR MATNI

Kasb ta’limi (5340200 - Bino va inshootlar qurilishi, 5340400- Muxandislik kommunikatsiyalar
qurilishi va montaji) bakalavr yo‘nalishi talabalari uchun

SAMARQAND- 2014

UDK ...

Mazkur ma’ruzalar matni uzluksiz ta’lim tizimi, undagi qo’llanilayotgan metadalogik asoslar, kadrlar tayorlash milliy dasturi izchil etilishidagi tajribalarning tahlili , shuningdek oily ta’lim sohasidagi huquqiy , meyoriy va uslubiy xujjatlar asosida tuzilgan institutning ichki nizomi va shu ichki nizomiga ko’ra talabalarning huquq va majburiyatlari bayon etilgan .Shuningdek Samarqand davlat arxitektura qurilish institutini tarixi, bugungi va istiqbollari bilan tanishtirilgan

Ushbu ma’ruzalar matni 5111000-Kasb ta’limi (5340200 - Bino va inshootlar qurilishi, 5340400 - Muhandis kommunikasiyalar qurilishi va montaji) bakalavr yo’nalishi talabalari uchun mo’ljallangan.

Tuzuvchilar: **“Kasb ta’lim”** kafedrası dosenti,

texnika fanlar nomzodi **Akram Qahorovich Rahimov.**

“Kasb ta’lim” kafedrası assistenti

Nargiza Nasrullayevna To’rayeva

Taqrizchilar: **“Kasb ta’lim”** kafedrası dosenti,

texnika fanlar nomzodi **Sirojiddin Asliyev.**

TATU Samarqand filiali dosenti,

texnika fanlar nomzodi **Turdimurod Maxmatqulovich Maxmatmurodov**

“Kasb ta’lim” kafedrası majlisida (2014 yil “___” _____ №___ bayonnomasida), **“Qurilishni boshqarish”** fakultetining ilmiy-uslubiy kengash yig’ilishida (2014 yil “___” _____ №___ bayonnomasida) ko’rib chiqilgan va ma’qullangan.

Chiqish belgilari: SamDAQI.Shakli A4. Buyurtva № _____ Adadi_____ Hajmi_

Soʻz boshi

Oliy taʼlim muassasining birinchi kursiga qabul qilingan talabalar koʻp qirrali yangi hayotga, talabalar jamoasiga kirib boradilar, mustaqil ish koʻnikmasini shakllantiradilar, ular uchun yangi boʻlgan oʻquv jarayonining shakl va maqomini egallab boradilar. Birinchi kurs talabalari institut tarixi uning rivojlanishi, institutda taʼlim oladigan yoʻnalishlar, mutaxassisliklar va tanlagan kasblari boʻyicha tasavvurga ega boʻlishlari kerak. Shuning uchun yoʻnalishga kirish fanidan tuzilgan maʼruza matnning asosiy qismida mustaqillik davrida uzluksiz taʼlim tizimida boʻlayotgan oʻzgarishlar, Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsad va vazifalari, uni amalga oshirishda Prezident va Hukumatning koʻrsatayotgan jonbozliklari, Oliy va oʻrta maxsus taʼlimining rivojlanishi, talabalarga koʻrsatilayotgan gʻamxoʻrliklar haqida toʻla va mazmunli maʼlumot beriladi. Institutda taʼlim yoʻnalishlari va uning xalq xoʻjaligidagi ahamiyati, institut tuzilmasi, rahbariyat, ularning asosiy vazifalari, ularga murojaat qilish tartibi tushuntiriladi. Institutdagi oʻquv jarayoni haqida alohida tushuncha beriladi. Uning umumiy oʻrta va oʻrta maxsus taʼlim tizimidagi oʻquv jarayonidan farq qiladigan tomonlari tahlil qilinadi. Institut kutubxonasining faoliyati haqida, ARMga aʼzo boʻlish qoidalari, undagi kitoblar haqida, oʻquv zallari, ayniqsa elektron kutubxonadan foydalanish tartib-qoidalari toʻgʻrisida toʻliq maʼlumot beriladi.

Talabalarni mustaqil ishlashlariga koʻnikma hosil qildirish muhim masala hisoblanadi. Shuning uchun ushbu mavzuga alohida ahamiyat berish zarur. Fanlardan berilgan vazifalarni bajarishda vaqtni toʻgʻri taqsimlash, kitob bilan ishlash, kompyuter maʼlumotlaridan, institutdan tashqaridagi kutubxonalardan foydalanish haqida yoʻl-yoʻriqlar koʻrsatiladi.

Talabalar bilimni nazorat qilishning reyting tizimini tushuntirishga alohida ahamiyat beriladi.

Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida birinchi kursdan ishtirok etishi mumkinligi, buning uchun fan olimpiadalarida, tanlovlarda ishtirok etish imkoniyatlari borligi haqida keng maʼlumot beriladi.

Ushbu maʼruzalar matnida talabalarning huquq va majburiyatlari toʻgʻrisidagi maʼlumotlar ham keltirilgan.

Bundan tashqari yoʻnalish boʻyicha mutaxassis chiqaruvchi kafedralar, ular tayyorlaydigan yoʻnalishlardagi oʻqitilagan fanlardan kurs ishlari (loyixalari), diplom ishlarini bajarish haqida atroflicha maʼlumotlar keltirilgan.

1. Mavzu: Uzluksiz ta'lim tizmi. Institut tarixi va tuzilmasi

Reja.

1. Uzluksiz ta'lim tizimining fan taraqqiyotidagi o'rni.
2. Institut taraqqiyotining qisqacha tarixi..
3. Fakultetlar, dekanatlar, kengashlar, va kafedralar.
4. Rektor. Institut ilmiy kengashi.

Tayanch iboralar. uzluksiz ta'lim tizimi, Ta'lim, Fakultetlar, dekanatlar, kengashlar, kafedralar, ilmiy kengashi, kadrlar, professor-o'qituvchilar.

1. Uzluksiz ta'limning faoliyat ko'rsatish printsiplari quyidagilardan iborat:

- ta'limning ustuvorligi uning rivojlanishining birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligi, bilim, ta'lim va yuksak intellektning nufuzi;
- ta'limning demokratlashuvi, ta'lim va tarbiya uslublarini tanlashda o'quv yurtlari mustaqilligining kengayishi, ta'limni boshqarishning davlat-jamiyat tizimiga o'tilishi;
- ta'limning insonparvarlashuvi, inson qobiliyatlarining ochilishi va uning ta'limga nisbatan bo'lgan turli-tuman ehtiyojlarining qondirilishi, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligining ta'minlanishi, inson, jamiyat va atrof-muhit o'zaro munosabatlarining uyg'unlashuvi;
- ta'limning ijtimoiylashuvi ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish;
- ta'limning milliy yo'naltirilganligi ta'limning milliy tarix, xalq an'analari va urf-odatlar bilan uzviy uyg'unligi, O'zbekiston xalqlarining madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta'limni milliy taraqqiyotning o'ta muhim omili sifatida e'tirof etish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatini hurmatlash;
- ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi, bu jarayonning har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga yo'naltirilganligi;
- iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta'limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish.

Uzluksiz ta'lim sohasidagi islohotlar quyidagilarni nazarda tutadi:

ta'lim tizimining kadrlar salohiyatini tubdan yaxshilash, tarbiyachi, o'qituvchi, muallim va ilmiy xodimning kasbiy nufuzini oshirish;

davlat va nodavlat ta'lim muassasalarining har xil turlarini rivojlantirish;

ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan qayta qurish, ta'lim, fan, texnika va texnologiyaning, iqtisodiyot va madaniyatning jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda ta'lim va kasb-hunar ta'limi dasturlarini tubdan o'zgartirish;

majburiy umumiy o'rta ta'limdan, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limiga o'tilishini ta'minlash;

maxsus kasb-hunar ta'limining markazlari sifatida fan va ishlab chiqarish integratsiyalashgan yangi tipdagi o'quv muassasalarini vujudga keltirish;

ilg'or texnologiyalarni keng o'zlashtirish, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar, chet el investitsiyalari ko'lamlarining kengayishi, tadbirkorlik, kichik va xususiy biznesni rivojlantirish bilan bog'liq yangi kasb-hunar va mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar, shu jumladan boshqaruv tizimi kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

milliy mustaqillik printsiplari va xalqning boy intellektual merosi hamda umumbashariy qadriyatlarning ustuvorligi asosida ta'limning barcha darajalari va bo'g'inlarida ta'lim oluvchilarning ma'naviy va ahloqiy fazilatlarini rivojlantirish;

ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, ta'lim muassasalarini mintaqalashtirish;

ta'lim olishda, shuningdek bolalar va yoshlarni ma'naviy-ahloqiy, intellektual va jismoniy jihatdan tarbiyalashda oila, ota-

onalar, jamoat tashkilotlari, mahallalar, xayriya va xalqaro fondlarning rolini kuchaytirish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirish;

ta'lim jarayoni va kadrlar tayyorlash sifatiga xolis baho berish tizimini yaratish va joriy etish;

ta'lim tizimini moliyaviy, moddiy-texnika va boshqa tarzdagi resurslar bilan ta'minlash mexanizmlarini shakllantirish;

uzluksiz ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalashtirishning puxta mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish

;

ta'lim va ilm-fan bilan bog'liq chet el hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish va rivojlantirish;

tub erli millatga mansub bo'lmagan shaxslar zich yashaydigan joylarda ular o'z ona tillarida ta'lim olishlari uchun tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlar yaratish;

ta'limning barcha darajalarida ta'lim oluvchilarning huquqiy, iqtisodiy, ekologik va sanitariya-gigiena ta'limi hamda tarbiyasini takomillashtirish.

Uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta'lim standartlari asosida, turli darajalardagi ta'lim dasturlarining izchilligi asosida ta'minlanadi va quyidagi ta'lim turlarini o'z ichiga oladi:

maktabgacha ta'lim;

umumiy o'rta ta'lim;

o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi;

oliy ta'lim;

oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;

kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;

maktabdan tashqari ta'lim.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining o'ziga xos xususiyati mustaqil ravishdagi to'qqiz yillik umumiy o'rta hamda uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini joriy etishdan iboratdir. Bu esa, umumiy ta'lim dasturlaridan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi dasturlariga izchil o'tilishini ta'minlaydi.

Umumiy ta'lim dasturlari: maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim (I-IV sinflar), umumiy o'rta ta'lim (I-IX sinflar), o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini qamrab oladi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilingandan keyin uni amalga oshirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining birinchilar qatorida qabul qilgan qarori 1998-yil 5-yanvardagi «Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida» gi 5 sonli qaroridir.

2. Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti (SamDAQI) 1966 yilda tashkil etilgan bo'lib, qurilish sohasida respublikamizda etakchi oliy o'quv yurtlaridan biri hisoblanadi. Samarqand davlat arxitektura – qurilish instituti nafaqat O'zbekistonda, balki O'rta Osiyo respublikalari Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Qozog'iston qurilish industriyalariga qarashli tashkilot va korxonalarga arxitektorlar, dizaynerlar, quruvchilar, qurilish sohasi bo'yicha iqtisodchi va menedjerlar, mashinasozlar, geodeziya va kadastr sohasi uchun mutaxasislarni tayyorlashda salmoqli o'rinni egallab kelmoqda. Samarqand davlat arxitektura-qurilish institutida hozirgi kunda uzluksiz ta'lim jarayonining barcha bosqichlari bakalavriatura, magistratura va doktorantura mavjud. Jumladan, institutda 23 yo'nalishda bakalavriatura, 11 mutaxassislik bo'yicha magistratura, 11 ta ixtisoslik bo'yicha tadqiqotchi-izlanuvchilar va 8 ta yo'nalish bo'yicha katta ilmiy xodim (doktorant)lar institutda faoliyat ko'rsatmokda.

Institutda hozirgi kunda 3300 nafar talaba va 123 nafar magistrlar ta'lim olmoqda. Talabalarga 26 ta kafedradagi 422 nafar professor-o'qituvchi, 18 nafar fan doktori va professorlar, 134 nafar fan nomzodlari va dotsentlar faoliyat olib bormoqdalar. Ulardan bir nechtasi «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi», «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan me'mor», «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi» faxriy unvonlariga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar arxitektura va qurilish sohasining sirlarini o'rgatmoqdalar.

Institutda ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha ham salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, fakul'tet va kafedralarni ma'naviy-ma'rifiy sohaga oid adabiyotlar bilan ta'minlash, institut hududi, fakul'tet binolari va talabalar turar joyining milliy g'oya talablari asosida jihozlash, professor-o'qituvchi va talabalarning taklif va mulohazalarini o'rganish, ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning dolzarb muammolariga oid anjumanlar, seminarlar va tadbirlar uzliksiz ravishda o'tkazilib kelinmoqda.

So'nggi yillarda institutning ilmiy uslubiy salohiyati yanada yuksaldi. Institutning mazkur o'quv yilida o'quv-uslubiy kengashi tomonidan 6 o'quv qo'llanma, 2 ta darslik muhokamadan o'tkazilib, nashrdan chiqarildi. 65 ta o'quv uslubiy ko'rsatmalar va 42 ta uslubiy qo'llanmalar muhokamadan o'tkazildi va chop ettirildi. YUzdan ortiq o'quv-uslubiy majmualar muhokama qilindi va o'quv jarayonida foydalanish uchun tavsiya etildi. 2013 yil "Yilning eng yaxshi darsligi va o'quv adabiyoti muallifi" respublika ko'rik tanlovining yakuniy ekspertiza hay'ati qaroriga asosan institut professor-o'qituvchilari yaratilgan adabiyotlar sovrindor o'rinlarga loyiq deb topildi va I, II, III darajali diplom bilan taqdirlandi.

2013 yilda institut axborot resurs markazi fondiga ja'mi 1505 dona adabiyotlar xarid qilindi. Institutning 23 ta o'quv xonalariga zamonaviy multimediya uskunalari o'rnatildi. O'quv jarayoni professor-o'qituvchilar tomonidan zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o'tkazilishi yo'lga qo'yildi.

Institutda ilmiy-tadqiqot ishlarni amalga oshirish uchun 6 ta ilmiy tadqiqot laboratoriyalar, bitta markaz va bitta majmua (kompleks) tashkil etilgan. Ilmiy laboratoriyada imoratsozlikning O'zbekiston sharoitidagi armaturabop metallar, temir beton qobiqlar va fazoviy qurilmalarni, bino va inshootlar qurilmalari, hamda qismlarini sinovdan o'tkazish, ekologiya, suv resurslaridan oqilona foydalanish, oqova suvlarni tozalash usullarini ixtiro qilish, zamin va poydevorlar muammolarini hal qilish, chiqindilardan yangi zamonaviy qurilish materiallarini yaratish, bino va inshootlarni texnik holatini aniqlash maqsadida yangi geodezik usullarni yaratish, metrologik va standartlash ishlari, imoratlarni siljitish, ko'tarib to'g'rilash singari yuqori aniqlikda ilmiy-muhandislik ishlari amalga oshiriladi. Samarqand viloyati va unga yondosh viloyatlar qurilishi industriyasi ehtiyojidan kelib chiqib bino va inshootlar qurilmalari, hamda qismlarini sinovdan o'tkazish mintaqaviy markazi, ilmiy-muhandislik kompleksi tashkil etilgan. Bu ilmiy markazlar davlat sertifikatlariga ega, hamda tegishli akkreditatsiya va attestatsiyalardan o'tkazilgan.

Institutda 2013 yildan boshlab mablag' miqdori 894 580.12 evro bo'lgan xalqaro grant "UZWATER: O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimida magistrlar uchun atrof muhit muhofazasi va barqaror rivojlanishining suv resurslarini boshqarish va ulardan samarali foydalanish dasto'rini ishlab chiqish va amalga oshirish" loyihasi bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda.


Shuningdek, 2012-2014 yillarga mo'ljallangan TEMPUS dasturi asosida "Suv resurslarini boshqarish muhandisligi bo'yicha magistr tayyorlash" mavzusida Kaunass texnologiya instituti (Latviya), Varshava instituti (Polsha) va O'zbekiston Milliy instituti, Toshkent davlat texnika instituti bilan hamkorlikda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Institutda "Oliy ta'lim fan va ishlab chiqarish o'rtasida innovatsion korporativ hamkorlikni yo'lga qo'yish" bo'yicha 18 ta kafedralarda jami 30 ta innovatsion guruhlar faoliyat olib bormoqda. Bugungi kunda 14 ta tashkilot bilan shartnomalar tuzilib, 103 ta ilmiy texnologik muammolar ustida innovatsion hamkorlik olib borilmoqda, ushbu muammoli mazular 35 ta kurs ishi, 105 ta bitiruv malakaviy ishi, 31 ta magistrlik ishlarida tadqiq etilmoqda.

Oxirgi 2-3 yil ichida institut hududini obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish, ta'mirlash sohasi bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi.

Hozirgi kunda institutni S.I.Axmedov boshqarib kelmoqda.

Institutning ma'muriy- boshqaruv tuzilmasi



Institut fakultetlari

Qurilish fakulteti	Arxitektura fakulteti	Qurilishni boshqarish fakulteti	Muxandislik kommunikasi-yalari fakulteti	Kadrlar malakasini oshirish va qayta tayorlash fakulteti	Magistatura bo`limi
--------------------	-----------------------	---------------------------------	--	--	---------------------

Institut kafedralari

Arxitekturaviy loyخالash kafedrasi	Dizayn	Shahar qurilishi va kadastr	Chizma geometriya va muxandislik grafikasi	Geodeziya, kortografiya, kadastr	Arxitektura nazariyasi va tarixi
Qishloq arxitekturasi	Qurilish ishlab chiqarish texnologiyasi va mashinalar	Issiqlik, gaz ta`minoti va xayot faoliyati xafsizligi	Materiallar qarshiligi va qurilish mexanikasi	Qurilish materiallari buyumlari va konstruksiyalar ishlab chiqarish	Bino inshooatlarni loyihalash va servis
Qurilishda menejment	Kasb-ta`lim	Fizika va matematika	Qurilish materiallari ishlan chiqarish texnologiyalari	Informatika va axborot texnologiyalari	Suv ta`minoti va kanalizasiyasi
Geotexnika va avtomobil yo`llari	Jismoniy tarbiya	Iqtisod va ko`chmas mulk ekspertizasi yasi	Tillarni o`rganish	Sosiologiya va iqtisodiy nazariya	Ta`sviriy san`at
Falsafa			O`zbekiston tarixi		

3. «Muhandislik kommunikasiylari qurilishi» fakulteti 1976 yilda «Iqtisodiyot va santexnika» fakulteti nomi bilan ochilib, 2002 yildan 2011 yilgacha «Muhandislik kommunikasiylari qurilishi va menejment» fakulteti hozirda «Muhandislik kommunikasiylari qurilishi» fakulteti deb ataldi.

«Muhandislik kommunikasiylari qurilishi» fakultetida fundamental va umum kasbiy hamda maxsus tayyorgarlikga ega bo'lgan muhandis, muhandis quruvchi, geodeziya, kartografiya va kadastr mutaxassisliklari hamda muhandis-pedagog bakalavrlar tayyorlanadi.

«Muhandislik kommunikasiylari qurilishi» fakultetida oliy ta'lim muassasasi SamDAQIning o'quv-ilmiy va ma'muriy bo'linmasi hisoblanib, kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq tegishli ta'lim yo'nalishlari va mutaxasislari bo'yicha talabalarni o'qitish, ta'lim-tarbiya jarayonlarini uzviy va uyg'unlashgan holda olib borishni ta'minlash, shuningdek fakultet tarkibiga kiruvchi kafedralarning ilmiy-tadqiqot ishlarini muvofiqlashtirish ishlari bilan shug'ullanadi.

Fakultet kafedralari:

- Suv ta'minoti va kanalizatsiya
- Issiqlik, gaz ta'minoti va hayotiy faoliyat havfsizligi
- Geodeziya, kartografiya va kadastr
- Fizika va matematika

lim yo'nalishla Fakultet quyidagi ta'ri bo'yicha bakalavrlarni tayyorlaydi:

- Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi va mantaji
- Kasb ta'limi: Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi va mantaji
- Geodeziya, kartografiya va kadastr

Quyidagi mutaxassislik bo'yicha magistrnlarni tayyorlaydi:

- Suv ta'minoti, kanalizatsiya, suv havzalarini muhofaza qilish va ulardan samarali foydalanish
- Oqova suvlarni tozalash va suv resurslarini muhofaza qilish
- Muhandislik tizimlari va mahsus uskunalar mantaji texnologiyasi

“Arxitektura fakulteti” Samarqand Davlat arxitektura qurilish instituti Qurilish fakulteti tarkibidan 1969 yilda ajralib chiqdi. Bugungi kunda fakultetda 90 nafardan ortiq professor-o'qituvchilar faoliyat ko'rsatmoqda. Arxitektura sohasining etuk olimlari, A. S. Uralov, K.D. Raximovlar Toshkent arxitektura-qurilish institutining doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalarini yoqlash bo'yicha ilmiy ixtisoslashgan kengashi a'zolaridir.

Fakultet kafedralari:

- Arxitekturaviy loyihalash
- Arxitektura nazariyasi va tarixi
- Landshaft dizayni va interer
- Tasviriy san'at
- Qishloq arxitekturasi
- CHizma geometriya va muhandislik grafikasi

Fakultet quyidagi ta'lim yo'nalishlari bo'yicha bakalavrlarni tayyorlaydi:

- Arxitektura
- Landshaft dizayni va interer
- Kasbiy ta'lim: tasviriy san'at va muhandislik grafikasi
- Qishloq aholi punktlarini arxitekturaviy loyihalashni tashkil etish
- Qishloq qurilishini loyihalash
- Landshaft arxitekturasi

Quyidagi mutaxassislik bo'yicha magistrnlarni tayyorlaydi:

- Arxitektura nazariyasi va tarixi, arxitektura yodgorliklarini tiklash

- Bino va inshootlar arxitekturasini
- Shaharsozlik va qishloq aholi yashash joylarini hududiy rejalashtirish
- Landshaft arxitekturasini

“Qurilish fakulteti” 1966 yilda institutda tashkil etilgan birinchi fakultet bo‘lgan. Qurilish fakulteti mutaxassislar tayyorlashni (talim yo‘nalishi va mutaxassisliklar bo‘yicha) ishlab chiqarishdan ajralgan holda amalga oshiradi. Fakultet ta‘lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kengaytirish va mustahkamlash maqsadida yirik soha korxonalari (SamFQL, SamMCHJL, SamML) bilan hamkorlikda ishlaydi. Qurilish fakulteti oliy ta‘lim muassasasining o‘quv-ilmiy va ma‘muriy bo‘linmasi hisoblanib, kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq tegishli ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxasislari bo‘yicha talabalarni o‘qitish, ta‘lim-tarbiya jarayonlarini uzviy va uyg‘unlashgan holda olib borishni ta‘minlash, shuningdek fakultet tarkibiga kiruvchi kafedralarning ilmiy-tadqiqot ishlarini muvofiqlashtirish ishlari bilan shug‘ullanadi.

Fakultet kafedralari:

- Bino inshootlarni loyihalash va servis
- Qurilish konstruksiyalari
- Geotexnika va avtomobil yullari
- Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish
- Qurilish ishlab chiqarish texnologiyasi va mashinalar
- Qurilish mexanikasi va materiallar qarshiligi
- Fakultet quyidagi ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha bakalavrlarni tayyorlaydi:
- Bino va inshootlar qurilishi
- Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish
- Kommunal maishiy xizmat va servis
- Avtomobil yullari va aerodromlar
- Kasbiy ta‘lim (bino va inshootlar qurilishi)

Quyidagi mutaxassislik bo‘yicha magistr larni tayyorlaydi:

- Bino va inshootlar qurilishi
- Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish

Fakultet O‘zbekiston respublikasi oliy ta‘lim muassasalari bilan doimiy ravish hamkorlik ishlarini olib bormoqda.

“Qurilishni boshqarish” fakulteti 2012 yil tashkil etilgan. Fakultet bitiruvchilar viloyat Arxitektura va qurilish boshqarmalari, Avtoyo‘l loyihalash instituti, obodonlashtirish departamenti, viloyat Er resurslari va davlat kadastr boshqarmasi, Er tuzish va ko‘chmas mulk kadastr xizmati davlat unitar korxonasi, Uzdaveroiyha instituti Samarqand filiali, viloyat O‘rta maxsus va kasb hunar kollejlari boshqarmasi, viloyat davlat soliq boshqarmasi er va ko‘chmas mulkni soliqqa tortish bo‘limlarida, ko‘chmas mulkni baholash xususiy korxonalarida, qurilish ishlab chiqarish tashkilotlari, loyihalash institutlari rejalashtirish-iqtisodiy bo‘limlarida texnik, katta mutaxassis, bo‘lim boshliqlari, korxona rahbarlari sifatida faoliyat yuritishlari mumkin.

Fakultet kafedralari:

- Qurilishda menejment;
- Informatika va axborot texnologiyalari;
- Iqtisodiyot va ko‘chmas mulk ekspertizasi;
- Shahar qurilishi va kadastr;
- Kasbiy ta‘lim.

Fakultet quyidagi ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha bakalavrlarni tayyorlaydi:

- Menejment (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha);
- Ko‘chmas mulk ekspertizasi va uni boshqarish;

- Shahar qurilishi va xo'jaligi.
- Kasbiy ta'lim.

Fakultet quyidagi ta'lim yo'nalishlari bo'yicha magistrnlarni tayyorlaydi:

- Bino va inshootlar kadastri.

4 . Rektor - lotincha "rektor" so'zidan olingan bo'lib, oliy ta'lim muassasasining rahbari degan ma'noni anglatadi. Rektor O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tayinlanadi va u o'zi rahbarlik qilayotgan oliy ta'lim muassasasida "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" (dastur to'g'risida o'qish davomida to'liq ma'lumotlarga ega bo'lasiz) asosida ta'lim sohasidagi yagona davlat siyosatini ro'yobga chiqarishga mas'ul. Shu bilan birga rektor oliy ta'lim muassasasi faoliyatiga taalluqli kelajakka mo'ljallangan ishlarni rejalashtiradi va ularni amalga oshirishni ta'minlaydi, oliy ta'lim muassasasi vakolati doirasida xodimlar va talabalar bajarishlari majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi, talabalarning o'qish sharoitlarini yaxshilashga va ularni o'z vaqtida stipendiya bilan ta'minlab turishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Rektor oliy ta'lim muassasasiga rahbarlik qilishda o'z huzurida tuzilgan ilmiy kengash, o'rinbosarlari- prorektorlar, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari faoliyatlariga tayanadi.

Ilmiy kengash- oliy ta'lim muassasasining rektor rahbarligida prorektorlar, fakultet dekanlari, etakchi kafedra mudirlari, professor-o'qituvchilar, a'lo darajada o'qiydigan faol talabalar tarkibidan iborat jamoatchilik tashkiloti bo'lib, u ta'lim muassasasidagi o'quv, ilmiy-uslubiy, ilmiy-tadqiqot, ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni uyg'unlashtirishga qaratilgan asosiy masalalarni muhokama etadi va ular bo'yicha qarorlar qabul qiladi. Talabalar ilmiy kengash majlisga kiritilgan masalalarning muhokamasida undagi o'z vakillari orqali ishtirok etishlari mumkin. Ilmiy kengash institutning oliy organi hisoblanadi.

Prorektor so'zi "rgo"-birga va "rektor" so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, birga boshqarish ma'nosini bildiradi. Oliy ta'lim muassasalarida prorektorlar, asosan, quyidagi masalalar bo'yicha: faoliyat ko'rsatadilar: ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor; o'quv ishlari bo'yicha prorektor; ilmiy ishlar va axborot texnologiyalari bo'yicha prorektor; iqtisod va tadbirkorlik ishlari bo'yicha prorektor.

Ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar bo'yicha oliy talim muassasasi tarkibida fakultetlar tashkil etiladi. Fakultetda, odatda, bakalavriyatning bir nechta ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-tarbiya jarayoni tashkil etilishi mumkin.

Fakultet - lotincha "fakultas" so'zidan olingan bo'lib, oliy ta'lim muassasasining o'quv- ilmiy va ma'muriy bo'linmasi ma'nosini bildiradi. Fakultetni dekan boshqaradi. Fakultetda uning yo'nalishiga qarab bir nechta kafedralar faoliyat ko'rsatishlari mumkin.

Dekan - (lot. Dekanus- o'nboshi; Qadimgi Rim ko'shinida 10 ta askarning boshlig'i) oliy ta'lim muassasasida fakultetning o'quv, ilmiy va tarbiyaviy ishlari rahbari. Fakultet dekanining ma'naviyat va ma'rifat masalalari hamda o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosarlari bo'ladi. Dekanning idorasi dekanat deb ataladi. Dekanat oliy ta'lim muassasasining talabalar bilan ishlaydigan asosiy bo'linmasidir.

Nazorat savollari

1. U zluksiz ta'lim tizimidagi, fan taraqqiyotining qanday o`rni bor ?
2. Institut tarkibidagi nechta fakultetlar faoliyat ko`rsatmoqda ?
3. Institutning qisqacha tarixi haqida ma`lumot?
4. Hozirgi kunda arxitektura-qurilish institutida nechta professor- o`qituvchilar faoliyat ko`rsatayapdi?
5. Fakul'tet kafedralarini bir-biridan farqi ayting?
6. U zluksiz ta'lim tizimiga nimalar kiradi?
7. Kafedralar qandae nashkil etiladi?
8. Fakultetni kim boshqaradi?
9. Kafedrani kim boshqaradi?
10. Institut Ilmiy kengashi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi/ – Toshkent/ “ O'zbekiston”,1992 y. 37 b.
2. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi/ – Toshkent/ “O'zbekiston”,1997y.30 b.
3. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun meyoriy-huquqiy hujjatlar to'plami. O'MKHTM. Toshkent;" O'qituvchi" , 2005y.125 b.
4. Olimov Q.T. va boshqalar. / Ixtisoslik fanlarini o'qitish metodikasi. – Toshken/ “Fan”, 2004y.111b.
5. OTB O'zB-1737 loyihasi. Ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. Trenerlar uchun qo'llanma. – Toshkent, “O'qituvchi”, 2002y.215b.
6. SamDAQI pasporti.
7. SamDAQIning 40 yilligiga bag'ishlanga materiallar tuplami. 1-2-3 qism. «Samarqand»,2007 y.
8. Oliy ta'lim: me'yoriy-huquqiy xujjatlari to'plami / B.YU.Xadiyev tahriri ostida;Tuzuvchilar:I.Maksidov,B.Raximov,R.Musurmonov va boshqalar . Toshkent : “Tafakkur bo'stoni “ ,2013y. 1 tom -576 b;2tom-512 b.
9. Введение в специальность: Учебное пособие для студентов строит. Спец. вузов / [К.Б.Ганиев, Г.Н.Ланг, А.С.Буслов и.др.] под редакцией Т.Ш.Ширинкулова. – Т.:Укитувчи, 1987 г. 184 с.

2-Mavzu: Ta'lim yunalishlari va mutaxassisliklar. O'quv rejasi.

Nazariy va amaliy ta'lim. Talaba tanlovi fanlari

Reja:

1. Ta'lim yunalishlari va mutaxassisliklar.
2. O'quv rejasi. Nazariy va amaliy (seminar) ta'lim.
3. Talaba tanlov fanlari.

Tayanch iboralar: ta'lim, mutaxassislik, o'quv reja, nazariy va amaliy ta'lim, seminar, seminar turlari, boshqarish, samaradorlikni baholash, savol - javob texnikasi.

1. Bakalavr tayanch oliy ma'lumot bo'lib, uning yo'nalishi qo'yidagi jadvalda keltirilgan.

Sam DAQI da mavjud Ta'lim yunalishlari va mutaxassisliklar ro'yxati

№	Kodi	Nomi	Tayanch OTM
1 kurslar (bakalavr)			
1	5340100	Arxitektura (turlari bo'yicha)	TAQI
2	5150900	Dizayn Interer	TMRDI
3	5150900	Dizayn (landshaft)	TMRDI
4	5340200	Bino va inshootlar qurilishi	TAQI
5	5340500	Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish	TAQI
6	5311500	Geodeziya, kartografiya va kadastr (qurilish)	TAQI
7	5610100	Xizmatlar sohasi (Uy-joy va kommunal, maishiy xizmatlar)	TAQI
8	5340400	Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji	TAQI
9	5230200	Menejment (qurilish)	TAQI
10	5111000	Kasb ta'limi (Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi)	TAQI
11	5111000	Kasb ta'limi (5340200 - Bino va inshootlar qurilishi)	TDIU
12	5111000	Kasb ta'limi (5340400-Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji)	TAQI
13	5340300	Shahar qurilishi va xo'jaligi	TAQI
14	5340800	Avtomobil yo'llari va aerodromlar	TAQI
15	5340900	Ko'chmas mulk ekspertizasi va uni boshqarish	TAYI
16	5341000	Qishloq hududlarini arxitektura-loyihaviy tashkil etish	TAQI
2-3-4 kurslar			
1	5340100	Arxitektura (turlari bo'yicha)	TAQI
2	5150900	Dizayn Intererni loyihalash	TMRDI
3	5340200	Bino va inshootlar qurilishi	TAQI
4	5340500	Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish	TAQI
5	5311500	Geodeziya, kartografiya va kadastr (geodeziya)	TAQI
6	5311500	Geodeziya, kartografiya va kadastr (bino va inshootlar kadastri)	TAQI
7	5610100	Xizmatlar sohasi (Uy-joy va kommunal, maishiy xizmatlar)	TAQI

8	5340400	Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji (suv ta'minoti va kanalizatsiya)	TAQI
9	5340400	Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji (Issiqlik, gaz ta'minoti va ventilyasiya)	TAQI
10	5230200	Menejment (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)	TDIU
11	5111000	Kasb ta'limi (tasviriy san'at va muhandislik grafikasi)	TAQI
12	5111000	Kasb ta'limi (5340200 - Bino va inshootlar qurilishi)	TAQI
13	5111000	Kasb ta'limi (5340400-Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji)	TAQI
14	5340300	Shahar qurilishi va xo'jaligi	TAQI
15	5340800	Avtomobil yo'llari va aerodromlar	TAYI
16	5340900	Ko'chmas mulk ekspertizasi va uni boshqarish	TAQI
17	5341000	Qishloq hududlarini arxitektura-loyihaviy tashkil etish	TAQI
5 kurs			
1	5580100	Arxitektura	TAQI
2	5581200	Qishloq qurilishini loyihalash	TAQI
3	5581000	Landshaftlar arxitekturasi	TAQI
4	5581100	Qishloq aholi punktlarini arxitekturaviy rejalashtirishni tashkillashtirish	TAQI
№	Kodi	Nomi	Tayanch OTM
Magistratura mutaxassisliklari			
1	5A340101	Bino va inshootlar arxitekturasi	
2	5A340102	Arxitektura nazariyasi va tarixi, arxitektura yodgorliklarini tiklash	
3	5A340103	Shaharsozlik va qishloq aholi yashash joylarini kompleks qurish	
4	5A340104	Landshaftlar arxitekturasi	
5	5A340201	Bino va inshootlar qurilishi	
6	5A340401	Suv ta'minoti, kanalizatsiya, suv resurslarini muhofoza qilish va ulardan samarali foydalanish	
7	5A340501	Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish	
8	5A311502	Geodeziya va kartografiya	
9	5A340302	SHahar transport xo'jaligi va aloqa yo'llari	
10	5A340403	Issiqlik – gaz ta'minoti, ventilyasiya, havoni mo'tadillash va havo xavzasini muhofoza qilish	
2 kurslar			
1	5A340101	Bino va inshootlar arxitekturasi	
2	5A340102	Arxitektura nazariyasi va tarixi, arxitektura yodgorliklarini tiklash	
3	5A340103	Shaharsozlik va qishloq aholi yashash joylarini kompleks qurish	
4	5A340104	Landshaftlar arxitekturasi	
5	5A340201	Bino va inshootlar qurilishi	
6	5A340401	Suv ta'minoti, kanalizatsiya, suv resurslarini muhofoza qilish va ulardan samarali foydalanish	
7	5A340402	Muhandislik tizimlari va maxsus uskunarlar montaji texnologiyasi	
8	5A340501	Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish	

											Semestrdaqi auditoriya mashg'ulotlari haftalarining soni						
		soat	%								18	18	18	18	18	14	14

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19
1.00.	Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar	1704	23.2	1016	268	468		280		688	10	10	10	8	6	7	5	2
1.01	O'zbekiston tarixi	116		54	26			28		62	3							
1.02	Huquqshunoslik. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi	116		54	26			28		62	3							
1.03	Falsafa (etika,estetika, mantiq)	148		90	44			46		58			3	2				
1.04	Manaviyat asoslari.Dinshunoslik.	92		54	26			28		38			3					
1.05	Madaniyatshunoslik	56		36	18			18		20				2				
1.06	Iqtisodiyot nazariyasi	116		72	36			36		44					2	2		
1.07	Sotsiologiya	56		36	18			18		20					2			
1.08	Pedagogika. Psixologiya	120		54	26			28		66						3		
1.09	Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar	60		42	20			22		18							3	
1.10	Siyosatshunoslik.O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti.	112		56	28			28		56							2	2
1.11	O'zbek (rus) tili	116		72		72				44	2	2						
1.12	CHet tili	360		252		252				108	3	3	2	2	2	2		
1.13	Jismoniy madaniyat va sport*	236		144		144				92	2	2	2	2				
2.00	Matematik va tabiiy-ilmiy fanlar	1432	19.5	774						658	14	17	6	6				
	<i>Matematik kommunikativ kurs</i>	800		432	180	252				368	8	8	4	4				
2.01	Oliy matematika	532		288	144	144				244	4	4	4	4				
2.02	Informatika va axborot texnologiyalari	268		144	36	108				124	4	4						

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19
	<i>Tabiiy-ilmiy kurs</i>	632		342						290	6	9	2	2				
2.03	Fizika	268		144	72	18	54			124	4	4						
2.04	Kimyo	66		36	18		18			30		2						
2.05	Nazariy mexanika	166		90	36	54				76	2	3						
2.06	Ekologiya	66		36	18	8	10			30			2					
2.07	Tanlov fanlar	66		36						30	2							
2.07.1	Soliqlar va soliqqa tortish	66		30		30				36				2				
3.00	Umumkasbiy fanlar	3034	41.3	1644					5ki,3kl	1390	6	3	14	16	16	12	15,5	15
	<i>Loyihalash-konstruktorlik kursi</i>	1698		920	460	362	98		3ki,2kl	778	4	2	12	14	12	4	4	
3.01	CHizma geometriya va injenerlik grafikasi	198		108	54	54				90	4	2						
3.02	Materiallar qarshiligi	198		108	54	36	18			90			4	2				
3.03	Qurilish mexanikasi	198		108	54	54				90					2	4		
3.04	Bino va inshootlar zilzilabardoshligi	106		56	28	28			ki	50							4	
3.05	Injenerlik geodeziyasi	132		72	36	36				60			4					
3.06	Injenerlik geologiyasi	66		36	18	10	8			30				2				
3.07	Qurilish materiallari va buyumlari	268		144	72		72			124			4	4				
3.08	Arxitektura	268		144	72	72			ki,kl	124				4	4			
3.09	Bino va inshootlarni barpo etish texnologiyasi	132		72	36	36			kl	60					4			
3.10	Injenerlik tarmoqlari va uskunalari	132		72	36	36			ki	60				2	2			
	Iqtisodiyot va servis kursi	1336		724					1kl, 2ki	612	2	1		2	6	6,7	11,5	15
3.11	Qurilish iqtisodiyoti	132		72	36	36			ki	60					4			
3.12	Menejment	106		56	28	28				50								4
3.13	Moliyaviy boshqaruv hisobi	182		100	50	50			ki	82						3	3,5	
3.14	Bino va inshootlarni texnik baholash	132		72	36	36				60					2	2		
3.15	Bino va inshootlarni texnik ekspluatatsiyasi	106		56	28	28			kl	50							4	

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19
3.16	Kommunal maishiy xizmat ko'rsatish va servis asoslari	132		72	36	36				60			2	2				
3.17	Metrologiya, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va sifat nazorati	106		56	28	28				50								4
3.18	Hayot faoliyat xavfsizligi va mehnat muhofazasi	106		56	28	14	14			50								4
3.19	Qurilish-remont ishlarini tashkil etish	76		42	28	14				34								3
3.20	Qurilishda bahoni shakllantirish va smeta ishi	106		56	28	28				50							4	
3.21	Tanlov fanlar	152		86						66	2	1						
3.21.1	A) Ish hujjatlarini yuritish V) Lotin alifbosi	32		18		18				14	1							
3.21.2	A) Elementar fizika V) Elementar matematika	32		18		18				14	1							
3.21.3	A) Bino va inshoot-ni loyiha-sh asos-i V) Yo'nalishga kirish	32		18 18	18	18				14		1						
3.21.4	A) Sanoat binolari B) Qurilish konstruksiyalari	56		32	24	8				24						1,7		
4.00	Ixtisoslik fanlari	724	9.9	394					2ki,1kl	330						6,3	7	13
4.01	Issiqlik, gaz ta'minoti, shamollatish va suv ta'minoti, kanalizatsiya tizimlariga servis xizmat ko'rsatish	156		84	42	42			kl	72						2,3	3	
4.02	Servis tizimlari va ob'ektlarni tashxisi va ekspertizasi	132		72	36	36				60						4		

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19
4.03	Uy-joy kommunal xo'jaligi iqtisodiyoti va boshqaruvi	106		56	28	28			ki	50								4
4.04	Ko'chmas mulkdan foydalanishni tashkil etish va boshqarish	156		84	42	42				72							4	2
4.05	XUJMSH ni tashkillashtirish va moliyaviy boshqarish	126		70	28	42			ki	56								5
4.06	Tanlov fanlar	48		28	16	12				20								2
		48		28	16	12				20								2
5.00	Qo'shimcha fanlar	450	6.10	252						198					6	6	2,5	
5.01	Xorijiy investitsiyalar	64		36	18	18				28						2		
5.02	Amaliy ingliz tili	64		36		36				28							2,5	
5.03	Kompyuterda loyihalash	97		54	24	30				43					3			
5.04	Binolarda servis sharoitini yaratishda arxitekturaning maxsus masalalari	97		54	28	26				43					3			
5.05	Servis faoliyati	128		72	30	24				56						4		
	Jami	7344	100	4080						3264	30	30	30	30	30	30	30	30
	Malakaviy amaliyot	864																
	Bitiruv malakaviy ishi	324																
	Joriy va davlat attestatsiyalari	972																
	Jami	2160																
	HAMMASI:	9504									30	30	30	30	30	30	30	30

Izohlar:

- Oliy ta'lim muassasasi ixtisoslik fanlari ro'yxatini tuzishda kadrlar buyurtmachilarining talablarini e'tiborga oladi.
- Harbiy tayyorgarlik mashg'ulotlari qo'shimcha fanlar blokining soatlari hisobiga, harbiy yig'in esa ta'til vaqti hisobiga o'tkaziladi. Harbiy tayyorgarlik mashg'ulotlari o'tkazilmaydigan hollarda mehnat bozori va kadrlar buyurtmachilarining talablariga moslanuvchanligi va harakatchanligini ta'minlash uchun Ilmiy kengashning qarori bilan foydalaniladi.
- O'quv reja asosida oliy ta'lim muassasi har yili ishchi o'quv rejasini tuzadi. Bunda oliy ta'lim muassasasiga talabalar yuklamasining haftalik hajmini saqlagan holda o'quv fanlari bloki hajmini 5 foizgacha, bloklar tarkibidagi fanlar hajmini 10 foizgacha o'zgartirish huquqi beriladi.

4. O'quv fanlari hajmining kamida 20 foizi mustaqil ta'lim tarzida o'zlashtirilishi shart.
5. Talaba bilimni baholash reyting tizimiga muvofiq o'quv jarayoni davomida va attestatsiya haftasida amalga oshiriladi (JB – joriy baholash, OB – oraliq baholash, YAB – yakuniy baholash).
6. Bitiruv malakaviy ishini bajarish muddatlari tarkibiga uni himoya qilish ham kiritiladi.
7. * Jismoniy madaniyat va sport fani tarkibida 28 soat hajmida «Valiologiya asoslari» nazariy kursi o'qitilishi ko'zda tutiladi.

O'quv jarayonining tarkibiy qismlari	Haftalar soni	Semestr	Davlat attestatsiyasi
Nazariy va amaliy ta'lim	136	1-8	1. Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlardan
Malakaviy amaliyot	16	2-4,6-8	2. CHet tili
Joriy va davlat attestatsiyalari	18	1-8	3. Bitiruv malakaviy ishini himoya qilish
Bitiruv malakaviy ishi	6	8	
Ta'tillar	28	1-8	

O'quv ishlari prorektori:

A.T. Qo'ldashev

O'quv bo'limi boshlig'i:

SH.A.Buriboev

Oliy ta'lim muassasasida nao'riy, amaliy, seminar, laboratoriya mashg'ulotlari auditoriyalarda o'tkaziladi. Mashg'ulotlar bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

I bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish - o'quv mashg'ulotining mavzusini ifodalash, mustaqil o'qish uchun mavzu, maqsad, vazifa va ma'ruza rejas, adabiyotlarni, ushbu mavzu bo'yicha kalitli toifalar va tushunchalarni, o'z-o'zini tekshirish uchun savol va topshiriqlarni ma'lum qilish.

II bosqich. Asosiy, axborotli - ma'ruza mashg'uloti rejasiga qat'iy rioya qilish, o'quv mashg'ulotining texnologik xaritasiga binoan ta'lim maqsadlarini amalga oshirish bo'yicha ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning tartibiy harakatlari.

III bosqich. Yakuniy – natijaviy - yakuniy xulosalar qilish, ushbu mavzu bo'yicha asosiy o'quv axborotiga ta'lim oluvchilar e'tiborini qaratish. O'zaro baholash va o'zining faoliyati haqida fikr yuritishni tashkillashtirish; bajarilgan ishni kelgusi kasbiy faoliyati uchun ahamiyatligi to'g'risida ma'lum qilish.

An'anaviy ta'lim berish tizimida o'quv materialini to'zib chiqishning birligi "mavzu" hisoblanadi. Talaba uchun o'quv materialining haqiqiy birligi bo'lib, o'quv mashg'uloti xizmat qiladi, mavzu esa uni o'rganishning o'qituvchi tomonidan e'lon qilinadigan faqat nomlanishidir.

Shu bois, talabalar alohida o'quv birliklari o'rtasidagi aloqa va o'zaro aloqani aniq anglamasdan mavzuni o'rganadilar: bu erda o'quv materialini "bo'laklab-mazuviy" o'rganish xususiyati ko'rinib turibdi.

Hozirgi vaqtda o'quv materialini tuzilmaga solish modul asosida amalga oshirilmoqda. Bu ham talabada birdaniga harakatning to'liq yo'nalishini, ya'ni barcha qismlar (o'quv yoki modul birliklar) o'rtasidagi aloqalarni aniqlash ular tomonidan berilgan o'quv materiali chegarasida BMK izchillikda egallash degani emas.

Aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirishning psixologik nazariyasiga muvofiq, bu muammo o'qitish tuzilmasiga qiziqtiruvchi bosqichni kiritish orqali hal etish mumkin. Uning vazifasi - ta'lim oluvchilarda kutilayotgan o'quv materialini egallash uchun qiziqish (bizning holatda-o'quv fani/kurs) ta'minlash, modomiki harakatning to'liq yo'nalishi o'quv materialini barcha tashkil etuvchilari o'rtasidagi aloqani aniqlashi mumkin.

Oliy maktabda ta'lim fan/kursning qiziqtiruvchi bosqichi kirish ma'ruzasi hisoblanadi. Uning maqsadi-o'quv fani/kursi to'g'risida birinchi umumiy tasavvorni berish va talabalrni ish jarayonida, oldindagi o'quv faoliyati natijalariga va ularni nazorat tizimi va baholashiga yo'naltirish hisoblanadi.

- talabalarni fan/kursning ahamiyati, vazifasi va uning o‘rni, o‘quv fanlar tizimida hamda kasbiy tayyorgarligidagi o‘rni bilan tanishtirish;

- tuzilmaga qisqacha sharh berish, fanni va amaliyot rivojlanishini, bunda mashhur olimlarning nomini aytib, bu sohadagi erishilgan yutuqlarni yoritib berish;

- ushbu bilimlar sohasidagi tadqiqot istiqbollari yo‘nalishlarini bayon etish;

- fan/kurs doirasida uslubiy va tashkiliy ishlar xususiyatlarini yoritish;

- tavsiya etilayotgan o‘quv - uslubiy adabiyotlar tahlilini amalga oshirish;

- hisobot/baholash shakllari va vaqtni aniqlash.

Seminar - ta‘lim beruvchini ta‘lim oluvchilar bilan faol suhbatga kirishishiga yo‘naltirilgan, nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda amalga oshirish uchun sharoitni ta‘minlovchi, mashg‘ulotni o‘qitish shakli.

Seminar quyidagi maqsadlarga erishish uchun qo‘llaniladi:

- nazariy materialni tartibga solish;
- ko‘nikmalarni hosil qilish;
- bilimlarni nazorat qilish.

Ta‘lim beruvchi seminarni samarali o‘tkazish uchun quyidagilarni hisobga olish zarur:

- o‘zining tayyorgarligi, bunda savol va javob texnikasiga ega bo‘lishi;
- o‘quv guruhining holati: uning motivatsiyasi, uning tashkil etish xususiyati;
- o‘quv jarayonining texnik jihozlanishi.

Seminar shaklidagi mashg‘ulotga o‘tish o‘zaro harakatni eshittirish (translyasiya) sxemasidan muloqotga o‘tishni, monologdan dialogga o‘tishni anglatadi.

Tayyorgarlik va seminarni olib borish bir qator savollarga javob berishni talab etadi:

1. *Nima uchun?* - Vazifa va seminarni olib borish umumiy qilib olganda ta‘lim berish maqsadlariga mos bo‘lishi kerak.

2. Seminar shaklida olib borish texnologiyasini *Qanday qilib?* - ishlab chiqish kerak

3. Seminar vaqtida muhokama qilish kerak bo‘lgan, material mazmunida - *Nimani?* ishlab chiqish zarur.

4. Seminarni olib borish vaqtida, ya‘ni hisobga olish muhim bo‘lgan omillar- *Nimani hisobga olgan holda?* elgilanishi zarur.

5. Seminarni boshqarish uchun uning samaradorligini ta‘minlash maqsadida undan foydalanish mumkin bo‘lgan, ta‘sir etish vositasini- *Qanday yo‘l bilan?* aniqlash mumkin.

O‘quv dasto‘rining maqsad va qo‘llanish sohalariga muvofiq asosiy uch turdagi seminarlarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

1) *ta‘limiy* - asosan quyidagilarga yo‘naltirilgan bo‘ladi:

- nazariy bilimlarni tartibga solish, faollashtirish yoki ularni mustaqil rivojlantirishga;

- o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliy qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishga.

2) *rivojlantiruvchi* - ta‘lim oluvchilarda muammoli ko‘rish, tahliliy qobiliyatlar hamda bashorat qila olish ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan.

3. Talaba tanlov fanlari.

Talaba tanlov fanlari o‘quv rejasining umumkasbiy fanlar va ixtisoslik fanlar blokiga kiritilgan bo‘ladi.

Bu fanlar tarkibiga yo‘nalishning xususiyatdan ishlab chiqarish zaruriyatidan va bulajak mutaxassislar uchun zarur bo‘lgan, kamida, ikkita fan kiritiladi. Birinchi kurs talabalari uchun, ular oliy ta‘lim sharoitlariga moslashuvlari uchun albatta yo‘nalishga kirish fangi talaba tanlov fani deb kiritiladi.

Kasb ta'limi yo'nalishida ta'lim oladigan talabalar uchun viloyat, tuman va shahar kasb-hunar kollejlarda kichik mutaxassislarni tayyorlashda o'qitiladigan fanlar kiritiladi.

Talaba tanlov fanlari esa rejada kiritilgan ikkita fandan bittasi tanlab olinadi. Soatlar esa namunaviy o'quv rejada ko'rsatilgan soatlarga teng qilib olinadi.

Nazorat savol

1. Bakalavr deganda nimani tushunasiz?.
2. Institutda qanday ta'lim yo'nalishlari bor?
3. Institutda qanday magistratura mutaxassislari bor?
4. O'quv reja nima?
5. O'quv rejadagi fan bloklari nechta va qanaqa
6. Asosiy seminar turlarini ayting.
7. Har bir seminar qanday xususiyatlarga ega?
8. Seminar, o'quv mashg'ulotini tashkillashtirish shakliga asoslangan tavsif bering.
9. Talaba tanlov fanlari.
10. Mashg'ulot turlari.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. / Toshkent/ "O'zbekiston", 1992y. 37 b.
2. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. / Toshkent/" O'zbekiston",1997y. 30b.
3. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar i pedagogik mahorat / Toshkent/ TDPU, 2003y.
4. Oliy ta'lim me'yoriy xujjatlari / T/2013 y 1-2 qismi
5. O'.Q. Tolipov, M. Usmonboeva./ Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. /Toshkent; "Fan", 2005y.125b.
6. Olimov I va boshqalar. Kasb ta'lim uslubiyati / Toshkent; "O'qituvchi", 2002 y.89b.
8. DTS kasb ta'limi (Bino va inshootlar qurilishi) Toshkent /"O'qituvchi",2009 y.162b.

**3-Mavzu: O`quv dasturlari. O`quv mashg`ulotlarning turlari.
O`qitish metodlari. O`qituvchi va o`qituvchining dasturi faoliyati.**

Reja

1. O`quv dasturlari va ularning turlari
2. Ma`ruza, seminar, amaliy mashg`ulot, laboratoriya, konsul`tatsiya (maslahat)
3. O`qitish metodlari
4. O`qituvchi va o`qituvchining dasturiy faoliyati.

Tayanch iboralar: o`quv dasturi, darslik, davlat ta`lim standarti, dasturli faoliyat, ishchi o`quv dastur, blok, gumanitar, umumkasbiy, ixtisoslik.

1. Fan o`quv dasturlari mazmuni va tuzilishiga ko`ra, mazkur fanning yangilanishi, ilm fan, texnologiya, ishlab chiqarish va talim tarbiya tizimidagi innovatsion axborot, kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarining amaliyotga joriy etilishini ifodalaydi. Albatta o`quv dasturlari amalga joriy etilishida zamonaviy jihozlar, asbob – uskunalar, materiallar va adabiyotlar bilan to`liq taminlanishini ham nazarda tutadi. Zamonaviy jihozlanish va materialar bilan taminlanishda mahalliy va hududiy imkoniyatlardan foydalanish nazarda tutilsa, adabiyot va manbalardan foydalanishda xorij, internet zaxiralaridan, hamda keyingi 15-20 yilgi zamonaviy adabiyotlardan ko`proq foydalanish nazarda tutildi.

Albatta, fan sohasining yoki talim yo`nalishining nazariy metodologik, tarixiy qadriyatlarni, fundamental asoslarini asoslaydigan dastlabki manbalar, arxiv materiallari qo`lyozma, toshbosma nusxalardan foydalanilganda yoki ularning nashr sanalari ko`rsatilganda, o`sha dastlabki davrdagi holatlar nazarda tutilmog`i lozim bo`ladi. Adabiyotlar ruyxati tuzilishida, fan dasturi so`ngida umumiy ro`yxat keltirilib har bir mavzuni oxirida esa asosiy adabiyotlar sifatida, qo`shimcha adabiyotlar nomlari va tartib rakami esa Q1, Q2... sifatida ko`rsatilsa maqsadga muvofiq bo`ladi. Fan dasturlarida tegishli mavzuni o`tishda foydalaniladigan talim, tarbiya, pedagogik, axborot, kommunikatsiya (tarmok) ishlab chiqarish texnologiyalari nomli ko`rsatilishi lozim, chunki, an`anaviy (ilgari qo`llanilgan va o`rganilgan) va noan`anaviy (yangidan qo`llanilayotgan va o`rganilayotgan) texnologiyalarni mashg`ulotlar davrida qiyosiy tahlili keltirilsa, ta`lim oluvchilar tasavvuri yanada kengayadi.

OO`MTVning 2013 yil 2 avgustda chiqarilgan «Oliy talim muassasalarini zamonaviy adabiyotlar bilan taminlashni yanada takomillashtirish tug`risida» gi 278-sonli buyrug`ining 4-ilovasida fan dasturlarning vazifalari shunday ifodalanadi: talaba – yoshlar (qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida – qatnashchilar, tinglovchilar talim oluvchilar) talim – tarbiyasining shakllantirishini o`quv mashg`ulotlari mavzularining mantiqiy ketma – ketligini taminlash, milliy g`oyani singdirish tarixiy qadriyatlarga tayanish, ilm-fan, texnika, texnologiyaning eng so`ngi yutuqlarini muntazam yoritib borish, oliy talim (jumladan, qayta tayyorlash va malaka oshirish) tizimi rivojlanishini bashorat etishda jahon andazalari (rivojlangan davlatlar yutuqlari) va tajribalarini inobatga olish hamda uzluksiz talim tizimining talim turlari o`rtasidagi uzviylik va uzluksizligini taminlash. Bulardan tashqari talim oluvchilarning mustaqil bilim olishi, izlanishi hamda kasbiy ko`nikma hosil qilishi uchun imkoniyat yaratish va talim xizmatlari turlarini, kengaytirishga xizmat qiladi.

Ushbu vazifalardan ko`rinadiki, pedagog kadrlarni malaka oshirish o`quv fani dasturlari ko`proq keyingi yangi texnologiyalarni yoritishga, o`rgatishga moslashtirilib tuzilishi lozim. Uzluksiz talim tizimining bosqichlari, xususan, oliy talim tizimi (bakalavriat va magistratura) qo`shimcha mutaxisisliklarga maqsadli qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarini oralig`idagi uzluksizlik va uzviylikni hamda tamomillashtirishni amalga oshirishda ham tabaqalashtirilgan fan o`quv dasturlarini tuzish maqsadga muvofiq bo`ladi.

Fan dasturlarini tuzishni takomillashtirish uchun quyidagi taklif va tavsiyalarni keltirish mumkin:

1. O`quv dasturlarini tuzishda, ba`zi, hollarda, masalan, tabiiy va aniq fanlarni, xorijiy va boshqa tillarni o`qitishda oliy talim muassasalarida, qayta tayyorlash yoki malaka oshirishning dastlabki bosqichlaridan o`quv kurslarida o`tilgan mavzularning takrorlanishi kuzatiladi. Qayta tayyorlash va malaka oshirishning keyingi bosqichlaridagi o`quv kurslaridagi

fan dasturlari tuzilganda mavzularning oldingilarini soʻzma-soʻz takrorlamasligi, murakkablashtirish darajasi tabaqalashganligi va mujassamlashganligi (integrallashuvi) farqlari va oʻxshashliklari ajratib koʻrsatilsa, maqsadga muvofiq boʻladi.

2. Fan dasturlarini tuzishda adabiyotlar va manbalarning eng yangilarini kiritilishi lozim boʻladi. Faqat tarixiy metodologik manbalarning birlamchi, ananaviy manbalaridan foydalanishi mumkin.

3. Fan dasturlarida tegishli mavzularini oʻtishda koʻp va keng qoʻllaniladigan texnika, asbob – uskunalar, qurilmalar, materiallar turlari ham keltirilsa maqsadga muvofiq boʻladi.

4. Fan dasturlarida oʻrganiladigan talim, tarbiya pedagogik, innovatsion, ishlab chiqarish, metodik va boshqa texnologiyalarning namunalari qiyosiy qilinishiga doir mavzular keltirilishi lozim.

5. Fan dasturlarida turli xil internet manbalari saytlari, arxiv materiallari, oʻqitishning texnikaviy vositalari, tarqatmali, koʻrgazmali didaktik qurollar va boshqalar ham keltirilsa maqsadga muvofiq boʻladi.

6. Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida tinglovchilar (talim oluvchilar)ning mustaqil holda bajariladigan muammoli topshiriqlari, vazifalari, amaliy ishlari nomlari, amalga oshirish texnologiyalari ham batafsil tariflanishi lozim boʻladi.

Fan dasturlariga asosan fanning ishchi dasturlari tuziladi. Ishchi dasturlarda maʼruza, amaliy, seminar v.x.k boʻyicha mavzular, mustaqil ish mavzulari va baxolash mezonlari keltiriladi..

2. Samarqand davlat arxetektura qurilish institutda yakuniy nazoratlar oʻtkaziladi. Institutda oʻquv mashgʻulotlari Davlat taʼlim standarti (DTS) va oʻquv rejasiga muvofiq maʼruza, amaliy mashgʻulot, laboratoriya mashgʻuloti, seminar va konsultatsiyalar shaklida tashkil qilinadi.

Davlat taʼlim standarti (DTS) - taʼlim sifati va maznuniga qoʻyiladigan talablarni belgilovchi meʼyoriy hujjat.

Oʻquv rejası - muayyan taʼlim yoʻnalishi boʻyicha kurslar va oʻquv fanlari oʻrganilishining ketma-ketligini va oʻquv mashgʻulotlari soatlarini belgilovchi rasmiy hujjat.

Maʼruza - oʻqituvchi tomonidan oʻquv materialining monologik bayon qilinishi.

Seminar - talaba bilimini kengaytirish va mustahkamlashga qaratilgan, maʼlum mavzu boʻyicha guruhda muhokama qilishga moʻljallangan oʻquv mashgʻuloti.

Amaliy mashgʻulot - olingan nazariy bilimlarni mustahkamlovchi amaliy ish turi.

Laboratoriya ishi - nazariy bilimni chuqurlashtirishga va mustahkamlashga qaratilgan amaliy tajriba shaklida oʻtkaziladigan ish turi.

Konsultatsiya - maʼlum mavzu boʻyicha oʻqituvchi tomonidan beriladigan qoʻshimcha tushuntirishlar, yoʻllanma va maslahatlar.

3.Oʻquv mashgʻulotlarini oʻtkazishda qoʻllaniladigan interfaol metoddar:

Soʻngi 10-15 yil davomida oliy taʼlim muassasalarida taʼlim jarayonini tashkil etishda interfaol metodlardan foydalanish keng koʻlamda amalga oshirilmoqda. "Qanday usullar interfaol metodlar deb sanaladi? Boshqa usullardan ularning farqi nimada? degan savollarga javob berishda bu soʻzning maʼnosini anglash zarur. "Inter" soʻzi lotincha boʻlib, "orada", "oʻrtada" degan maʼnolarni anglatadi. "Oʻzbek tilining izohli lugʻati" (Toshkent, 2006, 2-jild. 217-218-betlar) da unga quyidagicha taʼrif berilgan:" 1) oraliq holat. Oraliqda joylashgan. Oʻrtada; 2) umumiylik, umummaqbullik, oʻzaro bogʻliqlik." Ushbu taʼriflardan xulosa chiqaradigan boʻlsak, muloqot jarayonida har ikki tomonga maqbullik, oʻzaro faollik, bogʻliqlik, bir-birni qoʻllab-quvvatlash, toʻldirish tuzatish kabi holatlar nnterfaol metodlar asosini tashkil etadi.

Interfaol metodlardan foydalanishda o'quv materialining mazmuni o'qituvchi tomonidan qayta ishlab chiqilishi, o'quvchiga murakkab tuyulgan terminlarni izohlab berishi, uning ongida aqliy faoliyatini uyg'otish hamda kuchaytirish talab qilinadi.

Oliy ta'limda qo'llaniladigan asosiy interfaol metodlar:

Aqliy hujum («Mozgovaya ataka») metodi

Bahslar

Muzokara

Taqdimot (muzyorar)

Pinbord ("pin"-mustahkamlash, "board"-doska)

Insert metodi

Zanjirmetodi

Klaster ("g'uncha", "bog'lar"-axborotlarni yoyish)

Loyihalar metodi

"Qarama qarshi munosabat" metodi

"Qarorlar shajarasi"metodi

""Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim" metodi

Bumerang

Muloqot

Muammo yaratish va yechimini topish

Ayrim interfaol usullarning qisqacha bayoni:

"Aqliy hujum"- muammolarni hal qilishda keng qo'llanadigan anchagina mashhur metoddir, uning nomini rus tilida "mozgovaya ataka", inglizchasiga "brain storming" deb ataladi.

Bu usul katta miqdordagi g'oyalarni yig'ish, talaba shaxsini ayni bir xil fikrlash inersiyasidan holi qilish, ijodiy vazifalarni yechish jarayonida dastlab paydo bo'lgan fikrlarni yengishdir.

To'g'ri tashkil etilgan aqliy hujumning amaliy afzalliklari ko'p. Faqat bunda quyidagi qoidalarga rioya qilish kerak:

- Jumlar juda qisqa bo'lishi kerak, ularning asoslanishi shart emas.
- Har qanday jumla yoki fikr tanqid qilinishi mumkin emas, ya'ni fikrlar tanqiddan holidir.
- Mantiqiy fikrlardan ko'ra fantastik yoki tasodifan miyada paydo bo'lgan fikr muhimroq.
- Fikr yoki bildirilgan qisqa mulohaza qayd etiladi.
- Bildirilgan fikr yoki g'oyalar u yoki bu ishtirokchiliki deb ajratilmaydi, ya'ni ular muallifsizdir.

"Pinbord" metodi - pinbord (ingilizchadan: pin-mustahkamlash; board-doska) Bu o'qitish metodining mohiyati shundan iboratki, unda munozara yoki o'quv suhbatlari amaliy usul bilan bog'lanib ketadi. Uning afzallik funksiyalari-rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi vazifalar: o'qituvchilarda muloqot yuritish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi, o'z fikrini faqat og'zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi.

- Mantiqiy ketma-ketlikka asoslaniladi;
- Oddiydan murakkabga borgani sari savollar bir-birini to'ldiradi;
- Muammoli vaziyatlar sodir bo'ladi;
- Talabani mustaqil fikrlashga undaydi;
- Qaytar aloqa o'rnatiladi;
- Ijodiy muhit shakllanadi;
- Faol harakat vujudga keladi;

- Hamfikrlik asosida do'stona munosabatlar, qaror topadi;

"Insert"strategiyasi metodi - Ushbu strategiya o'zlashtirilishi ko'zda tutilgan yangi mavzu bo'yicha talabalarning muayyan tushunchalarga ega ekanliklarini aniqlash va ularda mavzuga nisbatan tahliliy yondashish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ishni bajarish tartibi:

- Kichik guruhlar tuzilib, ular nomlanadi;
- Har bir guruhdan o'zlashtirilishi rejalashtirilayotgan mavzuga oid yozma fikr bildirish so'raladi;
- Talabalar fikr va mulohazalarini qog'ozga yozib borishadi;
- O'qituvchi matnning mazmuni ifodalangan taqdimotni namoyish etadi;
- Talabalar bu matn va o'zlari bildirgan fikrni qanchalik o'xshashligi va farqini maxsus belgilar bilan qayd etadilar;
- Har bir kichik guruh a'zolari ushbu topshiriq bo'yicha ma'lumot berishadi.

Metodni qo'llashda talabalar quyidagi jadvallar bo'yicha faoliyatni tashkil etadilar:

4. O'qituvchi va o'quvchining dasturli faoliyati – bu o'quv jarayonida ahamiyatsiz harakatlarni yo'qotish, samarali o'zaro aloqani ta'minlash va rejalashtirilgan natijalarga o'z vaqtida erishish jarayonidan iboratdir. Bunda o'qituvchi texnolog – nazoratchi sifatida qatnashadi. Ushbu jarayonda ta'lim maqsadini aniq ifodalab olish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, o'rganilayotgan o'quv materiallarining mazmunini saralashda o'quvchilarning o'zlashtirish faoliyat darajalarini, fanni bayon qilishning ilmiy tilini hisobga olishi va nihoyat, tashkiliy shakllarining mosini tanlab belgilangan vaqt doirasida samarali didaktik jarayonni tashkil etadi.

O'qituvchilar o'z kasbiy faoliyatini olib borishdagi o'quv dasturlari va darsliklardan foydalanishda quyidagi savollarga javoblar doimo ularda bo'lishi kerak:

1. Ta'lim oluvchilar qanday konsepsiyani (qarashni) talqin qilishi va unga amal qilishi kerak?
2. Konsepsiya bilan tanishish uchun ta'lim oluvchilar qanday faoliyatni amalga oshirish kerak?
3. Ta'lim oluvchilar nimalarni kuzatishlari va yozib borishlari kerak?
4. Ta'lim oluvchilarga qanday ko'rsatmalar berish kerak?
5. Ta'lim oluvchilar axborot yoki kashfiyotlarning qanday turlari to'g'risida fikr yuritishlari kerak?
6. Ularning "Kashfiyotlari"ni umumlashtirish uchun Men ta'lim oluvchilarga qanday yordam bera olaman?

7. Men ta'lim oluvchilarni qanday boshqarishim va xatto, ularning tushunishlari yetarlicha bo'lmasada, ular aniqlashi mumkin bo'lgan narsalarni ularga yetkazishdan o'zimni to'xtatib turishim mumkin. Ular konsepsiyani to'g'ri shakllantirishlari (ifodalashlari) uchun ulardagi mavjud axborotdan foydalanishda Men ularga qanday yordam bera olaman?

8. Agar ta'lim oluvchilar nima uchun ana shu konsepsiya muhim bo'lib hisoblanadi, deb mendan so'rashsa, men ta'lim oluvchilarga qanday javoblarni keltirishim mumkin?

9. Ta'lim oluvchilar ushbu konsepsiyaga daxldor bo'lgan avvalgi tajribalarga egadir! Men ushbu konsepsiyani ta'lim oluvchilar intellektual salohiyati va tajribasi bilan qanday bog'lay olaman?

10. Ushbu konsepsiya ta'lim oluvchilarga muayyan fandan o'zlari uchun foydani ko'rishda yordam berishiga qanday misollar bor? Fan, texnika – texnologiya va jamiyatning o'zaro munosabatlarini tushunishda yordam berishigachi? Fan tarixi va mohiyatiga oid axborot olish uchun ularga yordam berishigachi?

Ma'lumki, o'qituvchilarning kasbiy shakllanishi – bu ta'lim oluvchining oliy o'quv yurti dargohida o'quv – biluv faoliyatidan iborat bo'lgan jarayon. Albatta, ularda tayyorlanadigan mutaxassis yo'nalishga mos o'quv reja hamda DTSga mos o'quv dasturlari ishlab chiqiladi va ularga mos pedagogik jarayon davom ettiriladi. Bu orqali ta'lim oluvchilarga kasb sir – asrorlarini o'rgatish, ilmiy bilimlar berish, ta'lim oluvchining kasbiy mahorati haqida ma'lumotlar berib boriladi va ular o'qituvchilik kasbi haqidagi bilimga ega bo'lishi bilan birga ma'lum ko'nikmalarga ega bo'ladi.

Ta'lim jarayonida o'quv dasturlari bo'yicha amalga oshiriladigan seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari nazariy bilimlarni mustahkamlashga hamda ularni ko'nikmaga aylantirishgagina emas, balki ta'lim oluvchilarni amaliy faoliyatga ijodiy yondasha oladigan qilib tayyorlash ham e'tiborda bo'lmog'i lozim. Bunday mashg'ulotlar egallamoqchi bo'lgan kasbining to'g'ri tanlanganligiga ishonch hissini uyg'otadi va o'z sohasining deyarli barcha jabhalariga ijodiy yondasha olish qobiliyatini shakllantiradi.

Nazorat uchun savollar

1. O'quv dasturlari qanday tuziladi?
2. Ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulot bir-biridan qanday farq qiladi?
3. laboratoriya, konsul'tatsiya deganda nimani tushunasiz?
4. O'qitish metodlari
5. O'qituvchiga qo'yiladigshan talablar.
6. Oliy ta'limda qo'llaniladigan asosiy interfaol metodlar:?
7. Ma'ruza darsining. afzallik va kamchilik tomonlari?
8. Seminar - talaba bilimini kengaytirish va mustahkamlashga qanday ta'sir o'tkazadi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. / Toshkent; "O'zbekiston", 1992y. 37 b.
2. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. / Toshkent; "O'zbekiston", 1997y. 30 b.
3. Olimov Q.T. va boshqalar. / Ixtisoslik fanlarini o'qitish metodikasi. / Toshkent; "Fan", 2004y. 36 b.
4. Mirsaidov K.J. Ixtisoslik fanlarini o'qitish va ishlab chiqarish ta'limi. / Toshkent; "O'qituvchi", 1996y. 59b.
5. Oliy ta'lim me'yoriy xujjatlari. / Toshkent; "O'qituvchi", 2003 y. I va II qismlar.

4-mavzu: Axborot resurs markazi. Axborot resurs markazining ichki tartib qoidasi va unga amal qilish.

Reja:

1. Axborot resurs markaziga a'zo bo'lish
2. Axborot resurs markazining huquq va majburiyatlari.
3. Ziyonet va ta'lim portalidan foydalanish..

Tayanch iboralar: axborot, resrus, bibliografiya, adabiyot, kitob, markaz, ta'lim, ARM, normativ-huquqiy hujjat, buyruq, farmoyish, texnologiya, ustav, elektron, katalog, baza

1. Axborot resurs markazi (ARM) institutning bosh binosida joylashgan bo'lib, uning tarkibida bir qancha filiallar faoliyat ko'rsatmoqda. ARMda zamonaviy jihozlangan o'quv zali mavjud bo'lib, unda tegishli adabiyotlar va axborot resurslari to'liq jamlangan. O'quv zalida elektron katalog mavjud.

ARM filialida kitob berish, kompyuter hamda vaqtli matbuotlar va o'quv zallari mavjud bo'lib, ular barcha kerakli jihozlar bilan ta'minlangan. O'quv zalida 10 ta zamonaviy kompyuter o'rnatilgan bo'lib, ular internetga ulangan. Bundan tashqari foydalanuvchilar o'quv zalidagi skaner, printer va kserokopiya xizmatlaridan foydalanishlari mumkin.

ARM da va uning filiallarida institut mutaxasislari tomonidan ishlab chiqilgan elektron katalog va elektron formulyar dasturi asosida ro'yxatga olish ishlari olib borilayapti.

Institut axborot resurs markaziga a'zo bo'lish uchun shaxsingizni tasdiqlovchi hujjat, 2 dona 3x4 rasm va haqiqatdan talabaligingizni tasdiqlovchi hujjat taqdim etasiz. Kutubxonachi shu hujjatlar asosida kutubxon talaba formasini to'ldirib, sizni kutubxonaga a'zo qiladi va kutubxonadan foydalanish ruxsatnomasini beradi.

Kitobxon talaba axborot resurs markazidan adabiyotlarni olish uchun kutubxonachilarga kerakli adabiyotlar ro'yxati bilan murojaat qiladi, kutubxonachilar kerakli adabiyotlarni topishda talabalarga ko'maklashadilar .

Abonement bo'limidan olingan kitoblar 10 donadan oshmagan holatda 20 kun muddatga beriladi.

Kitobxon kitobdan foydalanib bo'lgach, berilgan muddatidan kechiktirilmay, qayta ARMga topshiradi. Kitoblar yaxshi holatda saqlanishi shart.

Talabalar o'quv zalida mavjud barcha adabiyotlardan, gazeta va jurnallardan, kompyuterlar va «Internet» tarmog'idan foydalanishi mumkin. O'quv zali barcha qulayliklarga ega. O'quv zalidagi adabiyotlar uyda foydalanish uchun berilmaydi. Talabalar o'quv zali qonun- qoidalariga amal qilgan holda shug'ullanadi. Ular o'quv zaliga ruxsatnoma bo'yicha kiritiladi. O'quv zaliga kirayottanda, tozalikka va tinchlikka rioya qilgan holda, albatta, maxsus shippaklar oyoqqa ilinadi. Ortiqcha buyumlar (ustki kiyim, sumka, kitob) bilan o'quv zaliga kirish ta'qiqlanadi.

Kutubxonadan foydalanganda quyidagilar taqiqlanadi:

- Kutubxonada ovozi ko'tarib gapirish;
- Kitoblar varag'ini yirtib olish, rasm chizish;
- Kutubxonadagi gazeta va jurnallarni yirtish, ruxsatsiz olib ketish.

Axborotlarni qidirib topish, ularni mustaqil ta'lim olishda, o'quv jarayonida va ilmiy ishlarda qo'llanish, ARMning ma'lumotnoma bibliografik apparatiga, axborot tizimlariga va ma'lumotlar bazalariga tayanish ko'nikmalarini shakllantiradi. Foydalanuvchilar uchun informatika, ARM va bibliografiya asoslari bo'yicha mashg'ulotlar tashkil qiladi. Mintaqaning boshqa ARM bilan muvofiqlashtirgan holda aholining kitoblarga bo'lgan talablari, shuningdek ta'lim-kasb hunar dasturlari, o'quv rejalari hamda ilmiy tadqiqotlar tematikalariga muvofiq fondni komplektlashni ta'minlaydi. O'quv ilmiy, davriy, ma'lumotnoma, badiiy adabiyotlar va boshqa turdagi nashrlarni sotib oladi.

ARM o'z faoliyati bilan aholining barcha qatlamlarini axborot resurslari va ARM fondidan erkin foydalanish huquqini ta'minlaydi. Axborot -resurslari va ARM fondidan foydalanish tartibi, asosiy xizmatlar ro'yxati, ularni ko'rsatish shartlari, foydalanuvchilarning huquqlari va javobgarligi ARMdan foydalanish qoidalariga belgilanadi.

ARMga umumiy rahbarlik qilish O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining o'rta maxsus, kasb-xunar ta'limi markazi hamda Xalq ta'limi vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Barcha idoralar ARM ishlariga umumiy tashkilot metodik rahbarlikni, ularning ishlarini muvofiqlashtirishni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika axborot-ARM tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha idoralar kengash idoraviy va hududiy metodik markazlar tizimi orqali O'zbekiston Respublikasi ARM barcha idoralar uchun O'zbekiston Respublikasi Metodik markazi, idoralar kengashining ishchi organ orqali; Mirzo Ulug'bek nomidagi Milliy institutning ilmiy-ARM Oliy o'quv yurtlari ARMLarining metodik markazi orqali; O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimi kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish insituti o'rta maxsus, kasb-hunar kolleji muassasalari ARMLarining metodik markazi orqali. Respublika ilmiy-pedagogika ARM umumta'lim o'quv yurtlari ARMLarining metodik markazi orqali Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar axborot ARM markazlari-mintaqaviy metodik markazlar orqali amalga oshiriladi.

2.ARMning huquq va majburiyatlari

ARM quyidagi huquqlarga ega

Nizomda ko'rsatilgan maqsadlar va vazifalarga muvofiq o'z faoliyatining mundarijasini va aniq shakllarini mustaqil ravishda belgilash. ARM tuzilmasini, shtat ro'yxatini va undan foydalanish qoidalarini ishlab chiqish hamda ularni ta'lim muassasasi rahbariyati tomonidan tasdiqlash

Markazga berilgan mablag'larni tasarruf etish;

Yagona tarif setkasi asosida, mehnatga xaq to'lash fondi doirasida lavozim maoshlarini; lavozim maoshlariga utsamalar va qo'shimcha to'lovlarni, xodimlarni mukofotlash tartibi va miqdorlarini belgilash;

Foydalanuvchilarga noyob va qimmatli nashrlarni berishda, shuningdek ARMdan foydalanish qoidalarida belgilangan boshqa hollarda garov summasini belgilash;

ARM dan foydalanish qoidalariga muvofiq, foydalanuvchilar tomonidan ARMga etkazilgan zararni undirish turlari va miqdorlarini belgilash;

Yuridik va jismoniy shaxslar bilan shartnomalar asosida ARM ning ARM fondidan foydalanish shartlarini belgilash ta'lim muassasasining ta'lim kasb-hunar dasturlari, o'quv rejaları, ilmiy-tadqiqot ishlari tematikasi bilan tanishish. Uning tarkibiy bo'linmalaridan ARM oldiga qo'yilgan vazifalarni hal etish uchun zarur bo'lgan materiallar va ma'lumotlarni olish;

Turli muassasalarda, tashkilotlarda ta'lim muassasi nomidan vakillik qilish, ARM va axborot-bibliografik faoliyat masalalari bo'yicha ilmiy konferensiyalar, yig'ilishlar va seminarlar ishida bevosita qatnashish;

Boshqa ARMLar, tashkilotlar bilan belgilangan tartibda yozishmalar olib boorish;

Amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda axborot-ARM birlashmalariga kirish;

Axborot-ARM ishini rivojlantirishning davlat va mintaqaviy dasturlarini amalga oshirishda tanlov yoki boshqa asosda qatnashish.

Xorijiy davlatlarning ARMLari, ARMLari qamda boshqa muassasa va tashkilotlari bilan belgilangan tartibda hamkorlikni amalga oshirish, shu jumladan zaruriyatga ko'ra xalqaro kitoblar ayirboshlashni yuritish, belgilangan tartibda xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lib kirish, xalqaro ARM va boshqa dasturlarni amalga oshirishda qatnashish.ARM fondlarini saqlanishi uchun javob beradi. Ta'lim muassasasi ARM o'zining vakolatiga taalluqli funksiyalarning bajarilmagani uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

ARM – axborot fondlariga zarar etkazilishida aybdor bo'lgan ARM xodimlari amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda javob beradilar.

ARM xodimlarining mehnat munosabatlari O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq tartibda solinadi

3.“Ziyonet” va “ta'lim portali” dan foydalanish

Manzili: <http://www.Ziyonet.uz/> - O'zbekiston Respublikasi jamoat ta'lim axborot tarmog'i.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2005- yil 28- sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasining jamoat ta'lim axborot tarmogini tashkil etish to'grisida"gi qarori asosida tashkil etilgan. Asosiy vazifasi yoshlarni axborot resurslariga bo'lgan talabini qondirishdir.

“ZIYONET” axborot ta'lim portali bo'limlari:

Bosh sahifa

Publikatsiyalar

Katolog

Kutubxona

Tanlovlar

Arboblar

Ma'lumotnoma

Forum

“Ziyonet” tarmogida sayt ochish

* Yangiliklar va yangiliklar

* Kutubxona

* Resurs qo'shish tasmasi

*Forum


*Saytlar katalogi

*Fikr bildirish

*Qiziqarli

Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti ichki axborot "Ta'lim portali"

Manzili : <http://www.samdaqiportal.uz/> - Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti ichki axborot "Ta'lim portali".



Portalga kirish uchun institutda faoliyat ko'rsatayotgan ichki lokal kompyuter tarmog'iga ulangan ixtiyoriy kompyuterning INTERNET EXPLORER dasturining manzillar maydoniga <http://www.samdaqiportal.uz/> manzili kiritilishi kerak. Hosil bo'lgan portal bosh sahifasidan kerakli bo'lim sahifasi tanlanadi. Portalda asosan ta'lim jarayoniga tegishli bo'lgan axborot resurslari tizimli ravishda (fakultetlar, ta'lim yo'nalishlari, kurslar, fanlar bo'yicha) joylashtirilgan. Hozirgi kunda portalda jamlangan o'quv axborot resurslarining hajmi 160 Gb dan ortiqdir. Institutning lokal kompyuter tarmog'i institutning barcha o'quv binolarini, ARMLarini, talabalar turar joylarini, yoshlar markazini o'z ichiga qamrab olgan tarmoq hisoblanadi.

Eng ko'p ishlatiladigan axborot resurs saytlari:

<http://www.samdaqi.uz/> - Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti sayti

<http://www.samdaqiportal.uz/> - Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti chki axborot ta'lim portali

<http://www.edu.uz/> - Oliy va O'rta maxsus ta'lim Vazirligi portali

<http://www.istedod.uz/> - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Iste'dod jamg'armasi portali

<http://www.ziyonet.uz/> - O'zbekiston axborot ta'lim tarmog'i

<http://www.uz/> -Milliy qidiruv tizimi

<http://www.uforum.uz/> - O'zbekiston forumchilar sayti

<http://gdu.zn.uz/> -Guliston davlat instituti ziyonetdagi blogi

<http://www.dissertant.uz/-yosh> olimlar portali
<http://www.e-darslar.net/> elektorn onlayn darslar manzili
<http://www.viibrary.freenet.uz/> elektron darsliklar kutubxonasi
<http://www.ta'lim.uz/> - masofaviy o'qitish ta'lim markazi
<http://www.ilm.uz/> - masofaviy ta'lim va test o'tkazish tizimi
<http://www.DTM.uz/> test markazi sayti
<http://www.allbest.ru/-elektron> kutubxonalar bibliotekasi

Nazorat uchun savollar:

1. ARMga qanday a'zo bo'ladi?
2. ARM o'z faoliyati to'g'risida belgilangan tartibda hujjatlarni qanday yuritadi?
3. ARMning huquqlari nimalardan iborat?
4. ARM ta'lim mussasasida kimga buysunadi..?
5. ARMning majburiyatlariri bilasizmi?
6. Institut axborot resurs markaziga a'zo bo'lish uchun qanday hujjatlar taqdim etiladi?
7. "Ziyonet" va ta'lim potali nima?
8. Eng ko'p ishlatiladigan axborot resurs saytlarini ayting?

Foydalanilgan adaiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. / Toshkent; "O'zbekiston", 1992y. 37 b.
2. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. /Toshkent; "O'zbekiston",1997y. 30 b.
3. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun meyoriy-huquqiy hujjatlar to'plami. O'MKHTM. /Toshkent; "O'qituvchi", 2005y.89b.
4. ARMning 2006 yildagi tashkil etilganligi bo'yicha 381-PQ qaror asosidagi nizomi /T;-2007 y.
5. Oliy ta'lim me'yoriy xujjatlari /Toshkent; 2003 y IvaII qismlar.

5- mavzu: Talabalar bilimini baxolashning reyting tizimi. Yakuniy davlat nazorati.

Reja:

1. Reyting nazorat tizimi.
2. Nazorat turlari.
3. Baxolashni tartibi va mezonlari.

Tayanch iboralar: Ichki nazorat, reyting, oliy majlis, ta'lim, qonun, bilim, qaror, ko'nikma, malaka, baholash, konsul'tatsiya, kurs ishi, loyihasi, bitiruv malakaviy ishi, magistrlik dissertatsiyasi, attestatsiya.

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 9-son, 225-modda) va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 11-12-son, 295-modda) qonunlariga hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 20 iyuldagi 341-son «O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi qaroriga (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2004 y., 29-son, 332-modda) muvofiq oliy ta'lim muassasalari talabalarining bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish hamda baholash jarayonlarini takomillashtirish maqsadida Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risida nizom tasdiqlangan.

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 9-son, 225-modda) va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 11-12-son, 295-modda) qonunlariga hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi 343-son «Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi qaroriga (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2001 y., 15-16-son, 104-modda) muvofiq oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimini tartibga soladi.

- Talabalar bilimini nazorat qilish va reyting tizimi orqali baholashdan maqsad ta'lim sifatini boshqarish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishish, talabalarining fanlarni o'zlashtirishida bo'shliqlar hosil bo'lishini oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etishdan iborat.

- Reyting tizimining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

a) talabalarda Davlat ta'lim standartlariga muvofiq tegishli bilim, ko'nikma va malakalar shakllanganligi darajasini nazorat qilish va tahlil qilib borish;

b) talabalar bilimi, ko'nikma va malakalarini baholashning asosiy tamoyillari: Davlat ta'lim standartlariga asoslanganlik, aniqlik, haqqoniylik, ishonchlilik va qulay shaklda baholashni ta'minlash;

v) fanlarning talabalar tomonidan tizimli tarzda va belgilangan muddatlarda o'zlashtirilishini tashkil etish va tahlil qilish;

g) talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, axborot resurslari manbalaridan samarali foydalanishni tashkil etish;

d) talabalar bilimini xolis va adolatli baholash hamda uning natijalarini vaqtida ma'lum qilish;

e) talabalarining fanlar bo'yicha kompleks hamda uzluksiz tayyorgarligini ta'minlash;

j) o'quv jarayonining tashkiliy ishlarini kompyuterlashtirishga sharoit yaratish.

- Fanlar bo'yicha talabalar bilimini semestrda baholab borish reyting nazorati jadvallari va baholash mezonlari asosida amalga oshiriladi.

2. Nazorat turlari, uni o'tkazish tartibi va mezonlari kafedra mudiri tavsiyasi bilan oliy ta'lim muassasasining (fakultet) o'quv-uslubiy kengashida muhokama qilinadi va tasdiqlanadi hamda har bir fanning ishchi o'quv dasturida mashg'ulot turlari bilan birgalikda ko'rsatiladi.

- Reyting nazorati jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarning saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

- Talabalarning bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlarini o'tkazish nazarda tutiladi:

joriy nazorat — talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda, seminar, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarida og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollokvium, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin;

oraliq nazorat — semestr davomida o'quv dasto'rining tegishli (fanning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabaning bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazoratining soni (bir semestrda ikki martadan ko'p o'tkazilmasligi lozim) va shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

yakuniy nazorat — semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan «Yozma ish» (tibbiyot oliy ta'lim muassasalari uchun «Yozma ish» o'tkazilishi mumkin.

- Nazorat turlarini o'tkazishda xolislikni ta'minlash maqsadida talabalar to'g'risidagi ma'lumotlar ularning nazorat ishlariga oliy ta'lim muassasasi tomonidan identifikatsiya kodi berish orqali shifrlanishi mumkin.

- Oraliq nazoratni o'tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida davriy ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari bo'zilgan hollarda, oraliq nazorat natijalari bekor qilinadi hamda oraliq nazorat qayta o'tkaziladi.

- Oliy ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi yoki o'quv-uslubiy boshqarma rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida yakuniy nazoratni o'tkazish jarayoni davriy ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari bo'zilgan hollarda, yakuniy nazorat natijalari bekor qilinadi hamda yakuniy nazorat qayta o'tkaziladi.

3. Baholash tartibi va mezonlari. Talabalarning bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning har bir fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

-. Har bir fan bo'yicha talabaning semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda butun sonlar bilan baholanadi.

Ushbu 100 ball nazorat turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

yakuniy nazoratga — 30 ball;

joriy va oraliq nazoratlarga — 70 ball (fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 70 ball kafedra tomonidan joriy va oraliq nazoratlarga taqsimlanadi

reyting ballari nazorat turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

joriy nazoratga - 40ball;

oraliq nazoratga — 30 ball;

yakuniy nazoratga — 30 ball.

- Talabaning reyting daftarchasi yoki talabalar reytingini hisobga olish elektron tizimiga alohida qayd qilinadigan kurs ishi (loyihasi, hisob-grafik ishlari), malakaviy amaliyot, fan (fanlararo) bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi, bitiruv malakaviy ishi va magistratura talabalarining ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlari, magistrlik dissertatsiyasi bo'yicha o'zlashtirish darajasi — 100 ballik tizimda baholanadi.

- Talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda quyidagi namunaviy mezonlar (keyingi o'rinlarda namunaviy mezonlar deb yuritiladi) tavsiya etiladi:

a) 86 — 100 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

xulosa va qaror qabul qilish;

ijodiy fikrlay olish;
mustaqil mushohada yurita olish;
olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;
mohiyatini tushunish;
bilish, aytib berish;
tasavvurga ega bo'lish.

b) 71 — 85 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

mustaqil mushohada yurita olish;
olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;
mohiyatini tushunish;
bilish, aytib berish;
tasavvurga ega bo'lish.

v) 56 — 70 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

mohiyatini tushunish;
bilish, aytib berish;
tasavvurga ega bo'lish.

g) quyidagi hollarda talabaning bilim darajasi 0 — 55 ball bilan baholanishi mumkin:

aniq tasavvurga ega bo'lmaslik;
bilmaslik.

- Namunaviy mezonlar asosida muayyan fandan joriy va oraliq nazoratlar bo'yicha aniq mezonlar ishlab chiqilib, kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi va talabalarga e'lon qilinadi.

- Namunaviy mezonlarga muvofiq mutaxassislik fanlar bo'yicha tayanch oliy ta'lim muassasalari tomonidan yakuniy nazorat uchun baholash mezonlari ishlab chiqilib, oliy ta'lim muassasasi Ilmiy-uslubiy kengashi tomonidan tasdiqlanadi va turdosh oliy ta'lim muassasalariga etkaziladi.

- Talabalarining o'quv fani bo'yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.

- Talabaning fan bo'yicha bir semestrda reytingi quyidagicha aniqlanadi:

$$R_f = V \cdot O / 100$$

Bunda:

V — semestrda fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklamasi (soatlarda);

O^I — fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi (ballarda).

- Fan bo'yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to'plagan talabalar yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

Joriy va oraliq nazorat turlari bo'yicha 56 va undan yuqori ballni to'plagan talaba fanni o'zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo'yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo'l qo'yiladi.

- Talabaning semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to'plagan ballari yig'indisiga teng.

Nazorat turlarini o'tkazish muddati. Oraliq va yakuniy nazorat turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat yoki fakultet tuzilmasi bo'lmagan oliy ta'lim muassasalarida o'quv bo'limi (o'quv-uslubiy boshqarma) tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o'tkaziladi. Yakuniy nazorat semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o'tkaziladi.

- Talaba fan bo'yicha kurs loyihasi (ishi)ni ushbu fan bo'yicha to'plagan ballari umumlashtirilishiga qadar topshirishi shart.

- Joriy va oraliq nazoratlarda saralash balidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi.

Kasalligi sababli darslarga qatnashmagan hamda belgilangan muddatlarda joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarni topshira olmagan talabalarga fakultet dekani farmoyishi yoki fakultet tuzilmasi bo'lmagan oliy ta'lim muassasalarida o'quv bo'limi (o'quv-uslubiy boshqarma) yoki o'quv ishlari bo'yicha prorektorning ruxsatnomasi asosida, o'qishni boshlaganidan so'ng ikki hafta muddatda qayta topshirishga ruxsat beriladi.

- Talabaning semestrda joriy va oraliq nazorat turlari bo'yicha to'plangan ballari ushbu nazorat turlari umumiy ballining 55 foizidan kam bo'lsa yoki semestr yakunida joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo'yicha to'plangan ballari yig'indisi 56 balldan kam bo'lsa, u akademik qarzdor deb hisoblanadi.

Akademik qarzdor talabalarga semestr tugaganidan keyin (bahorgi semestr natijalari bo'yicha esa, talabalarining yozgi ta'tili hamda professor-o'qituvchilarning mehnat ta'tilidan so'ng) qayta o'zlashtirish uchun bir oy muddat beriladi. SHu muddat davomida fanni o'zlashtira olmagan talaba fakultet dekani yoki fakultet tuzilmasi bo'lmagan oliy ta'lim muassasalarida o'quv bo'limi (o'quv-uslubiy boshqarma) boshlig'ining tavsiyasiga ko'ra belgilangan tartibda rektorning buyrug'i bilan talabalar safidan chetlashtiriladi.

- Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekani yoki fakultet tuzilmasi bo'lmagan oliy ta'lim muassasalarida o'quv bo'limi (o'quv-uslubiy boshqarma) boshlig'iga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekani yoki fakultet tuzilmasi bo'lmagan oliy ta'lim muassasalarida o'quv bo'limi (o'quv-uslubiy boshqarma) boshlig'ining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda apellyasiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyasiya komissiyasi talabalarining arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

- Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra mudiri, o'quv bo'limi hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

Reyting natijalarini qayd qilish va tahlil etish tartibi. Talabaning fan bo'yicha nazorat turlarida to'plagan ballari semestr yakunida reyting qaydnomasiga butun sonlar bilan qayd qilinadi. Reyting daftarchasi yoki talabalar reytingini hisobga olish elektron tizimining «O'quv rejasida ajratilgan soat» ustuniga semestr uchun fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklama soatlari, «Fandan olingan baho» ustuniga esa 100 ballik tizimdagi o'zlashtirishi qo'yiladi.

Talabaning saralash balidan past bo'lgan o'zlashtirishi reyting daftarchasiga qayd etilmaydi.

- Har bir fan bo'yicha o'tkaziladigan nazorat turlarining natijalari guruh jurnali hamda qaydnomada qayd etiladi va shu kunning o'zida (nazorat turi yozma ish shaklida o'tkazilgan bo'lsa, 2 (ikki) kun muddat ichida) talabalar e'tiboriga etkaziladi.

- Yakuniy nazorat natijalariga ko'ra fan o'qituvchisi talabalarining fan bo'yicha reytingini aniqlaydi hamda reyting daftarcha va qaydnomaning tegishli qismini to'ldiradi.

Talabalar reytingini hisobga olish elektron tizimi joriy etilgan oliy ta'lim muassasalarida talabalarining fan bo'yicha reytingi reyting qaydnomasi va ushbu tizimga qayd etiladi.

- Talabaning reytingi uning bilimi, ko'nikmasi va malakalari darajasini belgilaydi. Talabaning semestr (kurs) bo'yicha umumiy reytingi barcha fanlardan to'plangan reyting ballari yig'indisi orqali aniqlanadi.

- Talabalar umumiy reytingi har bir semestr va o'quv yili yakunlangandan so'ng e'lon qilinadi.

- Diplom ilovasi yoki akademik ma'lumotnomani dekanat yoki fakultet tuzilmasi bo'lmagan oliy ta'lim muassasalarida o'quv bo'limi (o'quv-uslubiy boshqarma) tomonidan rasmiylashtirishda fan bir necha semestr davom etgan bo'lsa, reytinglar yig'indisi olinadi.

Talabaga imtiyozli diplom belgilashda uning har bir semestr yakunidagi fanlar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi hisobga olinadi.

- Talabalarining nazorat turlari bo'yicha erishgan natijalari kafedralar, dekanatlar va o'quv-metodik bo'linmalarda kompyuter xotirasiga kiritilib, muntazam ravishda tahlil qilib boriladi.

- Joriy, oraliq va yakuniy nazorat natijalari kafedra yig'ilishlari, fakultet va oliy ta'lim muassasasi Ilmiy kengashlarida muntazam ravishda muhokama etib boriladi va tegishli qarorlar qabul qilinadi.

Nazorat uchun savollar

1. Ichki nazorat deganda nimani tushinasiz?
2. Reyting nazorat tizimi haqida Nizomning tahlili?
3. Nazorat turlari.
4. Talabalarining reytingi qanday aniqlanadi.
5. Talabaning o'zlashtirish ko'rsatkichi.
6. Talabalarni bilimini nazorat qilish va baxolash.
7. Amaliy mashg'ulotlarda qanday nazorat turi o'tkaziladi?
8. Semestr yakunida qaysi nazorat turi o'tkaziladi?
9. Qanday nazorat turlari bor?
10. Baxolash mezonlari.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. / Toshkent; "O'zbekiston", 1992y. 37 b.
2. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. / Toshkent; " O'zbekiston",1997u. 30 b.
- 3.Oliy ta'lim muassalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizmi to'g'risidagi Nizom/ Toshkent; 2009 yil 3 sentabr.
4. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun meyoriy-huquqiy hujjatlar to'plami. O'MKHTM. Toshkent; 2005y.76b
5. Kasb ta'limi (Bin ova inshootlar qurilishi, ta'sviriy san'at va muxandislik grafikasi) yo'nalishlari bo'yicha loyihasini bajarish uchun uslubiy ko'rsatma . /SamDAQI; 2013 y.28 b.
6. Oliy ta'lim muassasalarida bitiruvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risidagi "Nizom"/ 2003 yil №160 son.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining ' ta'lim to'g'risidagi"qarorlari /Toshkent; «Fan»,1998 y.106 b.

6-Mavzu: Talabalar fan olimpiadalari. Talabalardan ishlari. Talabalarning ijodkorlik ishlari. Ilmiy yo‘nalishdagi kurs ishlari (loyihalari) va bitiruv malakaviy ishlari.

Reja

1. O‘quv fanlaridan talabalar olimpiadalari.
2. Talabalarning mustaqil va Ilmiy ishlari.
3. Ilmiy yo‘nalishdagi kurs ishlari (loyihalari) va bitiruv malakaviy ishlari.

Tayanch iboralar Fan, olimpiada, konkurs, ratsionalizatorlik, ijodkorlik, kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlari, ta‘lim, rag‘batlantirish, bosqich, urin.

1. Oliy ta‘lim muassasalari talabalari respublika fan olimpiadasi to‘g‘risidagi nizom qabul qilingan. Maskur Nizom O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasto‘rining 4.5-bandi talablariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko‘rsatayotgan davlat oliy ta‘lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar orasidan bilimning tegipshi sohalari va fanning aniq yo‘nalishlari bo‘yicha o‘z tabiiy qobiliyatlarini namoyon etish va rivojlantirish, o‘zlarining noyob iste‘dodlarini ro‘yobga chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratish maqsadida Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan har yili fanlar bo‘yicha o‘tkaziladigan talabalar respublika fan olimpiadasini tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilaydi.

Olimpiadani tashkil etish va o‘tkazish ikki bosqichdan iborat.

-I bosqich har joriy yilning mart-aprel oylarida barcha OTMlarida utkaziladi.

-II bosqich vazirlikning buyrug‘i bilan belgilangan muddatida tegishli fanlardan olimpiadani tashkil etish va o‘tkazishga mas‘ul etib belgilangan OTMlarida o‘tkaziladi.

Olimpiadani qaysi bosqichidan qat‘iy nazar olimpiadaning I bosqichida birinchi o‘rinni egallagan talaba II bosqichda ishtirok etish huquqiga ega.

Olimpiadaning ikkinchi bosqichi o‘tkaziladigan oliy ta‘lim muassasani har uch yilda o‘zgartirib turish tavsiya etiladi.

OTM I bosqichida birinchi o‘rinni egallagan talabalar haqidagi ma‘lumotni II bosqich boshlanishdan kamida 10 kun oldin II bosqich olimpiadasini o‘tkazadigan tegishli OTMlariga etkazadi.

Olimpiadaning ikkinchi bosqichi vazirlik buyrug‘ida ko‘rsatilgan OTMlarda o‘tkaziladi. Ularni samarali o‘tkazish maqsadida mas‘ul OTM rektori rahbarligida Ishchi tashkiliy qo‘mita tuziladi.

Vazirlik tomonidan belgilangan mas‘ul vakil va olimpiada o‘tkaziladigan OTMda tuzilgan Ishchi tashkiliy qo‘mitaga ishtirok etuvchi OTMlari vakillari tomonidan tegishli fandan o‘z variantlarini olimpiada boshlanishidan bir kun avval takdim etadi. Takdim etilgan variantlardan vazirlik tomonidan belgilangan mas‘ul vakil hamda olimpiada o‘tkaziladigan OTMning Ishchi tashkiliy qo‘mitasi yangi uchtadan kam bo‘lmagan variantlarni uch nusxada tuzadi va konvertlarga joylashtirib muxrlyadi. Qura tashlash yo‘li bilan konvertlardan bittasi tanlab olinadi.

Olimpiadaning II bosqichi kamida 4 ta turdan iborat bo‘ladi: ijodiy ish tayyorlash; yozma ish yoki amaliy, laboratoriya topshiriqlarni bajarish (yoki matn tarjima qilish); test topshiriqlarini bajarish; og‘zaki topshiriqlar bo‘lib, har bir tur 100 balllik tizimda Hakamlar hay‘ati a‘zolari tomonidan baholanadi..

Baholarning o‘rtachasi hisoblanib, talabaning shu turdan olgan bali aniqlanadi. Talabaning 4ta tur bo‘yicha natijasi asosida egallagan o‘rni belgilanadi.

Olimpiadaga umumiy rahbarlikni Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vaziri buyrug‘i bilan tasdiqlangan Vazirlik tashkiliy qo‘mitasi amalga oshiradi.

Tashkiliy qo‘mitaga Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirining (birinchi) o‘rinbosari raislik siladi va a‘zolari soni 21 kishidan oshmagan holda uning tarkibiga quyidagi tashkilotlardan vakillar kiritiladi:

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi xmda Oliy va o'rta maxsus, kasb- xunar ta'limini rivojlantirish markazining mas'ul xodimlari;

olimpiadaning II bosqichini o'tkazuvchi oliy ta'lim muassasalari rektorlari; ” ‘
jamoat tashkilotlari vakillari.

Vazirlik tashkiliy k;umitasi quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

olimpiadaning II bosqichi o'tkaziladigan joylari va muddatini belgilash; ‘

olimpiadaning I-II bosqichlarini joylarda tashkil etilishi, o'tkazilishini muvofiqlashtirish, bopqarish va nazorat qilish;
olimpiadaning o'tkazilishini ommaviy axborot vositalarida yoritishni tashkil qilish.

Talabalar fan olimpiadasi -. talabalarining oliy ta'lim muassasasida fanlar va kasbiy tayyorgarlik bo'yicha olgan bilimlarini ijodiy qo'llash, o'z iqtidorlarini namoyon etishga qaratilgan mutaxassislik va umumkasbiy fanlardan ommaviy ravishda o'tkaziladigan intellektual tanlov;

olimpiada tarkibiga kiritilgan umumkasbiy va mutaxassislik fanlari - talabalar fan olimpiadasi tarkibiga kiradigan fanlar tayanch OTM tomonidan turdosh OTM bilan o'zaro kelishilgan holda belgilanadigan fanlar turkumi;

olimpiada topshiriqlarini baholash mezonlari -talabalar fan olimpiadasida g'oliblarni aniqlash uchun berilgan topshiriklarga javoblarning qiymatini belgilovchi baho, o'lchov yoki daraja.

Respublika hududida faoliyat ko'rsatayotgan davlat oliy ta'lim muassasalarida (keyingi o'rinlarda - OTM) tahsil olayotgan talabalar orasida mazkur nizomda belgilangan talablar asosida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan har yili fanlar bo'yicha Oliy ta'lim muassasalari talabalari respublika fan olimpiadasi (keyingi o'rinlarda — Olimpiada) o'tkaziladi.

Olimpiadaning maqsadi: muayyan fan bo'yicha respublikaning barcha OTM talabalar orasidan mutaxassislik va umumkasbiy fanlari bo'yicha iqtidorli, qobiliyatli va iste'dodlilarni aniqlash, ulardagi ijodiy qobiliyatlarning ro'yobga chiqishiga ko'maklashish va qo'llab-quvvatlash.

Olimpiadaning asosiy vazifasi sifatida quyidagilar belgilangan:

- Respublika hududida faoliyat ko'rsatayotgan davlat oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar orasidan eng iqtidorlilarini aniqlash, qobiliyatlarini yanada rivojlantirish maqsadida olimpiada o'tkazish;
- OTMda iqtidorli talabalar bilan ishlashni takomillashtirish va rivojlantirish;
- OTMdagi o'quv-tarbiya jarayonining zamonaviy talablar darajasiga ko'tarilishini ta'minlash, fan o'qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirish, qobiliyatli va iste'dodli talabalarni tayyorlash va tarbiyalashga qaratilgan ijodiy izlanishlari bo'yicha mehnatini rag'batlantirish;
- talabalar uchun o'quv mashg'ulotlarini tashkillashtirishda zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda interaktiv usullarini tadbiq etilishini takomillashtirish, ijodiyotini rivojlantirish;
- olimpiadaning g'oliblari orasidan xalqaro fan olimpiadalarida mamlakatimiz sharafiga himoya qilish uchun respublika terma jamoasiga nomzodlar tarkibini shakllantirish;

“ talabalarining bilim va qobiliyat, iqtidori va iste'dodini namoyish etish orqali ular tahsil olayotgan oliy ta'lim muassasasida ta'lim-tarbiya jarayonini samarali olib borilayotganligini ko'rsatish.

Olimpiada mutaxassislik va umumkasbiy fanlari bo'yicha alohida o'tkaziladi!

Olimpiada tarkibiga kiritilmagan mutaxassislik fanlaridan turdosh OTM bilan o'zaro kelishilgan holda musobaqa o'tkaziladi. Musobaqani o'tkazishni muvofiqlashtirish, g'oliblarni rag'batlantirish muayyan fan bo'yicha olimpiadaning II bosqichini o'tkazadigan OTM tomonidan amalga oshiriladi.

Olimpiadaning I bosqichi har bir OTMda Vazirlik belgilagan muddatda o'tkaziladi. uning yuqori saviyada o'tkazilishiga shaxsan OTM rektori mas'ul.

Olimpiadaning I bosqichini o'tkazish uchun OTMda Ishchi tashkiliy qo'mita tuziladi. Uning tarkibi rektor buyrug'i bilan tasdiqlanadi va quyidagilardan iborat bo'ladi:

- Rektor (Rais);
- Ilmiy ishlar bo'yicha prorektor (Rais o'rinbosari);
- Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limi boshlig'i (Mas'ul kotib);

A'zolari:

- Ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha prorektor;
 - O'quv ishlari bo'yicha prorektor;
 - OTM "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati boshlang'ich tashkiloti vakili;
 - Fakultet dekanlari, OTMning etakchi olimlari va mutaxassislari;
- "Jamoat tashkilotlari va xomiy tashkilotlar vakillari.

Olimpiadaning I bosqichida OTM tomonidan olimpiada qatnashchilarining bilimlarini baholash mezonlari ishlab chiqiladi va rektor tomonidan tasdiqlanadi.

Olimpiada o'tkaziladigan mutaxassislik va umumkasbiy fanlar bo'yicha I bosqich topshiriqlari fan dasturiga mos holda, tegishli kafedralar tomonidan ko'p variantli qilib tuziladi va OTM Ishchi tashkiliy qo'mitasiga topshiriladi. Ishchi tashkiliy qo'mita mavjud variantlar asosida yangi variantlarni tuzadi. Variantlar maxfiylikni ta'minlagan holda olimpiadaning tegishli turi boshlanish vaqtiga qadar maxsus sayfda sakdanadi va olimpiadaning tegishli turi boshlanishidan oldin hakamlar hay'atiga topshiradi.

Olimpiadaning I bosqichi quyidagicha amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

- ijodiy ish tayyorlash;
- yozma ish yoki amaliy, laboratoriya topshiriqlarini bajarish (yoki matn tarjima qilish);
- test topshiriqlarini bajarish;
- og'zaki topshiriqlarni bajarish.

Ijodiy ishni tayyorlash tartibi va muddatlari OTM tomonidan belgilanadi.

Olimpiadaning I bosqichi natijalari OTMning Kengashida muxokama etiladi. Fakat 1-o'rinni egallagan g'oliblarni olimpiadaning II bosqichida qatnashishi to'g'risida qaror kdbul ^ilinadi.

Oldingi o'quv yillaryda II bosqich olimpiadasida qatnashib birinchi, ikkinchi va uchinchi o'rinlarni egallagan iqtidorli talabalar ushbu fan bo'yicha olimpiadada qayta qatnashishi mumkin.

Olimpiada II bosqichi Vazirlik buyrug'i bilan mas'ul etib belgilangan OTMlarida tashkil etiladi va o'tkaziladi.

Olimpiada II bosqichini o'tkazuvchi OTMlarning Ishchi tashkiliy qo'mitasi tarkibi rektor buyrug'i bilan tasdiqlanadi va quyidagilardan iborat bo'ladi:

- Rektor (Rais);
- Ilmiy ishlar bo'yicha prorektor (Rais o'rinbosari);
- Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limi boshlig'i (Mas'ul kotib);

A'zolari:

- Ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha prorektor;
- O'quv ishlari bo'yicha prorektor;
- ishtirok etayotgan OTM vakillari;
- OTM «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati boshlang'ich tashkiloti vakili;
- Vasiylar kengashi, jamoat va xomiy tashkilotlar vakillari.

Olimpiadaning II bosqichini talab darajasida o'tkazish mas'uliyati OTM rektorlari zimmasida bo'ladi. Vazirlik tashkiliy qo'mitasi II bosqichning o'tkazilishini muvofiqlashtirish uchun mas'ul vakillarni xizmat safariga yuboradi va ular joylarda umumiy nazoratni amalga oshiradi.

Olimpiadaning II bosqichini o'tkazuvchi OTM Ishchi tashkiliy qo'mitasining vazifalari:

- olimpiadaning II bosqichini mazkur Nizom talablari asosida tashkil etish, olimpiadaning o'tkazilish jarayonini

nazorat qilish va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga hisobot berish;

olimpiada ishtirokchilarini kutib olish, joylashtirish, ovqatlantirishni tashkil etish, zarur hollarda tibbiy xizmat ko'rsatish va kuzatishni tashkil qilish;

- ishtirokchilar va jamoa rahbarlarini olimpiada Nizomi, o'tkazish tartibi, qatnashchilar bilimini baholash mezonlari bilan tanishtirish;

- olimpiadaning ilmiy-uslubiy jihatdan yuqori saviyada, adolat va oshkoralik mezonlari asosida o'tkazilishini ta'minlash;

- olimpiada jarayonida ro'y berishi mumkin bo'lgan tashkiliy, texnik nosozliklar va anglashilmovchiliklarning oldini oladi, ularni bartaraf etish choralari ko'radi;

- olimpiada natijalarini olimpiada ishtirokchilari va OTM mutasaddi vakillari ishtirokida e'lon qilish, zarur hollarda ishtirokchilar va qatnashuvchi OTMlari mutasaddi vakillari savollariga javob berish, ularning e'tirozlarini ko'rib chiqib o'rnatilgan tartibda bartaraf etish;

olimpiada o'tkazilayotgan fanlar bo'yicha II bosqich topshiriqlari fan dasturiga mos holda tegishli OTM vakillari tomonidan takdim etilgan variantlar asosida Vazirlikning vakili bilan birgalikda OTM tashkiliy qo'mitasi yangi variantlarni tuzish. Maxfiyligini ta'minlagan holda olimpiadaning tegishli turi boshlanadigan vaqtga qadar maxsus seyfa saqlash va olimpiadaning tegishli turi boshlanishidan oldin hakamlar hay'atiga topshirish;

- olimpiadada qatnashuvchi talabalar ishtirokida tadbirlarni tashkil etish, kafedra va dekanatlarda "Bilimlar kuni" ruknida madaniy tadbirlarni o'tkazish;

- tarixiy-madaniy yodgorliklar, muassasalar va muzeylarga sayoxatlar tashkil etish;

olimpiada g'oliblarini va qatnashuvchi oliy ta'lim muassasasi jamoasi rahbarlarini takdirlash hamda rag'batlantirish,

Olimpiadaning II bosqichida ishtirokchi quyidagi ishlarni amalga oshirishi tavsiya etiladi:

- ijodiy ish tayyorlash;
- yozma ish yoki amaliy, laboratoriya topshiriqlarni bajarish (yoki matn tarjima qilish);
- test topshiriqlarini bajarish;
- og'zaki topshiriqlarni bajarish.

Ijodiy ish olimpiada o'tkazilayotgan muayyan mutaxassislik yoki umumkasbiy fanlar doirasidagi mavzu yuzasidan bajariladi.

Olimpiada o'tkaziladigan joyga ishtirokchilarni olib kelish va olib ketish, ularning yo'llardagi harakatlanish xavfsizligini ta'minlash bo'yicha barcha mas'uliyat qatnashuvchi OTMlari rektorlari va ular tomonidan tayinlangan mas'ullar zimmasiga yuklatiladi.

Olimpiada II bosqichining o'tkazilishi yuzasidan qatnashuvchi talabalardan, jamoa rahbarlaridan natija e'lon qilingandan so'ng 4 soat ichida tushgan yozma ishkoyat va arizalar Tashkiliy qo'mita va Hakamlar hay'ati tomonidan olimpiada jarayonida bevosita joyida hal etiladi. Belgilangan muddatdan kechiqib bildirilgan e'tirozlar va shikoyatlar ko'rib chiqilmaydi.

Olimpiada o'tkazilish jarayonida o'rnatilgan tartib qoidalarga amal kilmagan talaba Hakamlar hay'ati qarori bilan olimpiadadan chetlashtiriladi. Bu haqda tegishli dalolatnoma tuziladi va uni Hakamlar hay'ati raisi va a'zolari hamda tartib qoidaga amal kilmagan talaba tomonidan imzolanadi.

Olimpiada g'oliblarini aniqlash va takdirlash:

I bosqichda OTM tashkiliy qo'mitasi qarori natijalariga asosan;

II bosqichda mutasaddi OTM tashkiliy qo'mitasi qaroriga ko'ra amalga oshiriladi. "

Olimpiadaning II bosqichi g'oliblarining soni har bir fan bo'yicha quyidagicha belgilanadi:

- 1 o'rin - bir nafar;

- 2 o‘rin - bir nafar;
- 3 o‘rin - bir nafar.

Olimpiada IT-bosqichini o‘tkazuvchi OTM tashkiliy qo‘mitasi tomonidan bajargan ishlar bo‘yicha dastlabki ma‘lumotnomani (Hakamlar hay‘atining xulosasi, Mutasaddi OTM qarori va h-k.) elektron ko‘rinishda (shrift - Times New Roman, 14) hamda qog‘ozda rasmiylashtirilgan holda Vazirlik tashkiliy qo‘mitasining mas‘ul vakiliga olimpiada tugagan kunining o‘zidayoq topshiriladi

Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-xunar ta‘limini rivojlantirish markazi mazkur Nizom asosida quyidagilarni bajaradi:

- olimpiada hisobotini tahlil qiladi;
- olimpiadaning joriy yilda tashkil etilishi, o‘tkazilishi va yakuni haqida tahliliy ma‘lumotnomani Vazirlikka takdim etadi.

Olimpiadaning II bosqichida 1-o‘rinni egallagan talaba Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining birinchi darajali diplomi va yuqori stipendiyaning besh karra mikdorida pul mukofoti bilan takdirlanadi.

Olimpiadaning II bosqichi da 2-o‘rinni egallagan talaba vazirlikning ikkinchi darajali diplomi hamda yuqori stipendiyaning turt karra mikdorida pul mukofoti bilan takdirlanadi.

Olimpiadaning II bosqichida 3-o‘rinni egallagan talaba vazirlikning uchinchi darajali diplomi va yuqori stipendiyaning uch karra mikdorida pul mukofoti bilan takdirlanadi.

Olimpiadani o‘tkazishda faol katvashgan tashkilotchilar, ilmiy rahbarlari OTM hamda Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim Vazirligining tegishli buyrug‘i asosida rag‘batlantiriladi. Olimpiadaning II bosqichida birinchi, ikkinchi va uchinchi o‘rinni egallagan talabalarning ilmiy rahbarlari bir oylik maosh mikdorida pul mukofoti bilan takdirlanadi.

Olimpiadaning II bosqichi g‘oliblari, ularning ilmiy rahbarlariga beriladigan pul mukofotlari uz OTMlari byudjetdan tashqari mablag‘i hisobidan amalga oshiriladi.

Olimpiadaning I, II bosqichini o‘tkazish xarajatlari OTMlarning Ishchi tashkiliy qo‘mitasi ishlab chiqilib smeta asosida joylarda byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan qoplanadi.

Olimpiada II bosqichida ishtirok etadigan talabalarning va ularni kuzatib kelgan o‘qituvchilarning yo‘l xarajatlari o‘z OTMlari tomonidan to‘lanadi.

Olimpiadani tashkil qilish va o‘tkazish xarajatlari smetasini OTM tashkiliy qo‘mitalari ishlab chiqadi xmda OTM Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

2. Ijodiy ish topshiriqlari - ijodiy ish olimpiada o‘tkazilayotgan muayyan mutaxassislik yoki umumkasbiy fanlar doirasidash mavzu yuzasidan bajariladigan va talabalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar majmuasi;

yozma ish yoki amaliy topshiriqlar - fan dasturida belgilangan talabalar bilimini baholashning tayanch qonuniyatlariga asoslangan, o‘tilgan fanlarga nisbatan ijodiy yondashish, mustaqil fikrlash, o‘z bilimini doimiy ravishda oshirish, adabiyotlardan keng foydalanish, o‘z fikrlarini yozma ravishda aniq va lo‘nda ifodalab berish hamda takdim etish kabi xususiyatlarini o‘zida mujassamlantirgan topshiriqlar majmuasi;

laboratoriya topshiriqlari - talabalar o‘zlashtirilgan nazariy bilimlarni amalda qo‘llashga qaratilgan topshiriqlar majmuasi;

test topshiriqlari - talabalar aqliy rivojlanishini aniqdash maqsadida ishlatiladigan, muqobil echimlari ko‘rsatilgan, tezkor aniqdashga qaratilgan standart topshiriqlar majmuasi;

og‘zaki topshiriqlar - dialog orqali talabaning qobiliyatini aniqdashga qaratilgan og‘zaki topshiriqlar majmuasi;

Ilmiy yo‘nalishdagi kurs ishlari (loyihalari) va bitiruv malakaviy ishlari. Axborot va bilimlar doirasi tez sur‘atlar bilan kengayib borayotgan hozirgi sharoitda barcha ma‘lumotlarni faqat dars mashg‘ulotlari paytida talabalarga yetkazib bo‘lmaydi.

1. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, talaba mustaqil ravishda shug'ullanganda va o'z ustida ishlagandagina bilimni chuqur o'zlashtirishi mumkin. Talabalarning asosiy bilim, ko'nikma va malakalari mustaqil ta'lim jarayonidagina shakllanadi, ularda mustaqil faoliyat ko'rsatish qobiliyati rivojlanadi hamda ijodiy ishlashga qiziqish paydo bo'ladi. Shuning uchun talabalarning mustaqil ta'lim olishlarini rejalashtirish, tashkil qilish va amalga oshirish, buning uchun barcha zaruriy imkoniyatlarni yaratish oliy ta'limning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Talaba mustaqil ishi (TMI) - muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan, talaba tomonidan o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bir qismi bo'lib, fan o'qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriyada va auditoriyadan tashqarida bajariladigan tizimli faoliyatdir.

O'qishning boshlang'ich bosqichlarida TMI ni tashkil etish Siz talabalar uchun bir oz qiyinroq kechadi. Chunki Siz ta'lim olish jarayonida o'z mustaqil faoliyatingizni tashkil qilishni deyarli bilmaysiz. Ma'lumotlarni qaysi manbadan, qanday qilib topish, ularni tahlil qilish, eng zarurlarini ajratib olish va tartibga solish, konspektlashtirish, fikringizni aniq va yorqin ifodalash, vaqtingizni to'g'ri taqsimlash, o'z aqliy va jismoniy imkoniyatlaringizni to'g'ri baholash Siz uchun katta muammo bo'ladi. Siz hali mustaqil ta'lim olishga ruhan tayyor emassiz. Shuning uchun Sizdan katta mas'uliyat va intilish talab qilinadi.

Odatda talaba mustaqil ishini tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- fanga oid ayrim mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash
- amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rib kelish
- ma'lum mavzu bo'yicha referat tayyorlash
- kurs ishi va loyihalarni bajarish
- bitiruv malakaviy ishi va magistrlik dissertatsiyasi uchun materiallar to'plash.
- hisob-kitob va grafik ishlarini bajarish
- maket, model va badiiy asarlar ustida ishlash
- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash
- ilmiy maqola, tezis va ma'ruzalar tayyorlash.
- uy vazifalarini bajarish va boshqalar.

3. Talabalar ikkinchi kursdan boshlab hisob-grafik ishlari, umukasbiy fanlardan kurs ishlari va loyixalarini bajarishda kirishadilar. Bu kurs ishlari va loyixalari yo'nalishining o'quv rejasidan kursatib o'tilgan kurs ishlari har bir fanning ma'lumot bir nazariy qismi tugagandan sung, amaliy kunikma olish maqsadida talabalarga topshiriq kurinishida boriladi. Topshiriqda kurs ishining mavzuni, bajarish uchun kerakli ma'lumotlar, topshirish muddati, tushuntirish xatining mazmuni, hamma, grafik qismi tarkibi va adabiyotlar ruyxati berildi. Bundan tashqari talabalarga kurs ishini bajarish uchun uslubiy ko'rsatma ham berilad. Kurs ishlari va loyixalarini talabalarga byerishda, ularning iqtidori, qobiliyati e'tiborga olinadi. Buning uchun bu talabalarga ilmiy yoki hayotga tadbiq etilishi mumkin bo'lgan masalasi hal qilishga ko'rsatilagn bo'lishi mumkin. Uchinchi kurs talabalarga kurs ishi yoki loyixa mavzularini turtinchi kurs oxirida bojarilgan bitiruv malakaviy ish mavzulariga moslab berishlishi ham mumkin. Bitiruv malakaviy ishlar, diplom loyixalari tegishli "Nizom" asosida bojoriladi. Nizomda diplom loyixalarining tushuntirish xati 10-15 ming so'zdan iborat bulishi, grafik qism esa 5-6 varaq A-2 formatli qog'ozda bajarilishi kerak.

Fanning xususiyati, talabalarning bilim darajasi va qobiliyatiga qarab tanlangan hamda ishchi o'quv dasturiga kiritilgan alohida mavzular talabalarga mustaqil ravishda o'zlashtirish uchun topshiriladi. Bunda mavzuning asosiy mazmunini ifodalashga va mazmunini ochib berishga xizmat qiladigan tayanch iboralar, e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan momentlarni aniqlashtirishga va mavzuni tizimli bayon qilishga xizmat qiladigan savollar, asosiy adabiyotlar va axborot manbalari ko'rsatiladi.

Topshiriqni bajarish jarayonida talabalar mustaqil ravishda o'quv adabiyotlaridan foydalanib ushbu mavzuni konkretlashtiradilar, tayanch iboralarning mohiyatini anglagan holda mavzuga taalluqli savollarga javob tayyorlaydilar. Zarur hollarda (o'zlashtirish qiyin bo'lsa, savollar paydo bo'lsa, adabiyotlar yetishmasa, mavzuni tizimli bayon eta olmasa va h.k.) o'qituvchidan maslahatlar oladilar.

Mustaqil o'zlashtirilgan mavzu bo'yicha tayyorlangan matn kafedrada himoya qilinadi.

Talabaga qiyinchilik darajasi uning shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyati va bilim darajasiga muvofiq bo'lgan biror mavzu bo'yicha talabaga referat tayyorlash topshiriladi. Bunda talaba asosiy adabiyotlardan tashqari qo'shimcha adabiyotlardan (monografiyalar, ilmiy, uslubiy maqolalar, internet tarmog'i, elektron kutubxona materiallari va h.k.) foydalanib, materiallar yig'adi, tahlil qiladi, tizimga soladi va mavzu bo'yicha imkon darajasida to'liq, keng ma'lumot berishga harakat qiladi. Zarur holda o'qituvchidan maslahat va ko'rsatmalar oladi.

Yakunlangan referat kafedrada ekspertlar ishtirokida himoya qilinadi.

Talabaga muayyan mavzuni bayon qilish va yaxshiroq o'zlashtirish uchun yordam beradigan ko'rgazmali materiallar (jadvallar, chizmalar, rasmlar, xaritalar, maketlar, modellar, grafiklar.) tayyorlash topshiriladi. Mavzu o'qituvchi tomonidan aniqlanib, talabaga ma'lum ko'rsatmalar, yo'l-yo'riqlar beriladi. Ko'rgazmali vositalarning miqdori, shakli va mazmuni talaba tomonidan mustaqil tanlanadi. Bunday vazifani bir mavzu bo'yicha bir necha talabaga berish mumkin.

Talabaga biron mavzu bo'yicha (mavzuni talabaning o'zi tanlashi ham mumkin) ilmiy (referativ) xarakterda maqola, tezis yoki ma'ruza tayyorlanishi topshirilishi mumkin. Bunda talaba o'quv adabiyotlari, ilmiy-tadqiqot ishlari, dissertatsiyalar, maqola va monografiyalar hamda boshqa axborot manbalaridan mavzuga tegishli materiallar to'playdi, tahlil qiladi, zarurlarini ajratib olib tartibga soladi, shaxsiy tajribasi va bilimi, ilmiy natijalariga asoslangan holda qo'shimchalar, izohlar kiritadi, o'z nuqtai-nazarini bayon etadi va asoslaydi. Bunda talaba o'qituvchi bilan hamkorlikda ishlaydi.

Tayyorlangan maqola, tezis yoki ma'ruza kafedrada himoya qilinadi. Talabalar mustaqil ishini shartli ravishda ikkiga ajratish mumkin:

Auditoriyada amalga oshiriladigan TMlari. O'tilgan mavzuni qayta ishlash, kengaytirish va mustahkamlashga oid topshiriqlar bajariladi.

Auditoriyadan tashqarida amalga oshiriladigan TMlari. O'quv dasturidagi ayrim mavzularni mustaqil holda o'zlashtirish, uyga berilgan vazifalarni bajarish, amaliy va laboratoriya ishlariga tayyorgarlik ko'rib kelish, ijodiy va ilmiy-tadqiqot xarakteridagi ishlar va h.k.

Nazorat uchun savollar

1. O'quv fanlaridan talabalar olimpiadalari qanday olib boriladi?
2. Talabalar ishlari konkursleri kim tomonidan ko'rib chiqiladi?
3. Talabalarning ratsionalizatorlik va ijodkorlik ishlari qanday baholanadi?
4. Talabalarning kurs ishlari qanday tartibda olib boriladi?
5. Olimpiada tashkil etish va o'tkazish nechta bosqichda o'tkaziladi?
6. Talabalarning mustaqil ish shakllari.
7. Olimpiadaning birinchi bosqichi qanday tashkil etiladi?
8. Olimpiada g'oliblari qanday taqdirlanadi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. /Toshkent; "O'zbekiston", 1992y. 37 b.
2. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. / Toshkent; " O'zbekiston",1997y. 30 b.
3. Oliy ta'lim me'yoriy xujjatlari /Toshkent;2013 y. I.II qism.
3. Oliy ta'lim muassalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizmi to'g'risidagi Nizom Toshkent/2009 yil 3 sentabr.
4. "Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar" O'z.Res. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirlining 2005 yil 21 fevraldagi 34- sonly buyrug'i.
6. Kasb ta'limi (Bino va inshootlar qurilishi, amaliy va tashkiliy san'at) yo'nalishlari bo'yicha diplom loyihasini bajarish uchun uslubiy ko'rsatma/SamDAQI Samarqand . 2013 yil-28 b
7. Oliy ta'lim muassasalarida bitiruvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risidagi "Nizom"/ 2003 yil №160 son.

7- Mavzu : Institut talabalarining huquq va majburiyatlari. Talabalarining odob-axloq normalari. Talabalarining ichki tartib-qoidalar. Stipendiya bilan ta'minlash. Sport – sog'lomlashtirish tadbirlari.

Reja

1. Institut talabalarining huquq va majburiyatlari.
2. Talabalarining odob-axloq normalari.
3. Talabalarining stipendiya bilan ta'minlash
4. Talabalar turar joyi.
5. Sport – sog'lomlashtirish tadbirlari.

Tayanch iboralar: Institut, talaba, huquq, majburiyat, axloq normalari, ma'muriy jazo, stipendiya, poliklinika, sport, universiada, tadbir, axloq, qoida.

1. Samarqand davlat arxitektura - qurilish instituti (bundan buyon matnda institut deb yuritiladi)ning odob-axloq qoidalar (bundan buyon matnda "Qoidalar" deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi, "Ta'lim to'g'risidagi", "Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida" gi va "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi qonunlar, "Yoshlar yili", "Barkamol avlod yili" davlat dasturlari, oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining tegishli buyruqlari, institutning Ustavi, ichki tartib qoidalar hamda umume'tirof etilgan ma'naviy va axloqiy tamoyillar asosida ishlab chiqilgan.

"Qoidalar" ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi ta'limga oid qonun hujjatlarida fuqarolarga ta'lim, tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini belgilashga hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta'minlashga, ta'lim oluvchilarni manaviy-axloqiy tarbiyalashning va ma'rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etishga qaratilganligi sababli, institutning asosiy funksiyasi ta'lim va tarbiya berishdan iborat ekanligi nazarda tutilgan.

"Qoidalar" institutning Ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlanganidan so'ng kuchga kiradi va unga o'zgartirish hamda qo'shimchalar kiritish Ilmiy kengash qaroriga binoan amalga oshiriladi.

"Qoidalar" institutning ma'muriyati, professor-o'qituvchilari, xodimlari va talabalar (jamoat a'zolari)ning institutga oid o'zaro munosabatlaridagi odob-axloq tamoyillari, rioya etishlari shart bo'lgan xulq-atvor qoidalar va majburiyatlarini belgilab beradi.

"Qoidalar"ga rioya qilish institut jamoat a'zolarining barchasi uchun majburiydir.

Talabalikka va ishga qabul qilinayotgan har bir shaxs "Qoidalar" bilan tanishib chiqishi hamda unga rioya qilishini o'z zimmasiga olib imzo ko'yishi shart.

Institut jamoat, davlat va nodavlat tashkilotlari, ta'lim va ilmiy muassasalar, tadbirkorlik sub'ektlari, ommaviy axborot vositalari hamda talabalarining ota-onalari bilan o'zaro munosabatlarda "Qoidalar"dagi ko'rsatmalarga rioya etilishidan manfaatdordir.

"Qoidalar"ning maqsadi institutda sog'lom ma'naviy va ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish, uning nufuzi hamda obro'-e'tiborini asrab-avaylash, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlashga ko'maklashish, institutning jamiyatdagi hamda ta'lim tizimidagi nufuzini yanada oshirishdir.

"Qoidalar"ning asosiy vazifalari:

- yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, jamiyat, davlat va oila oldida o'z mas'uliyatini his etadigan, davlatning ichki va tashqi siyosatini to'g'ri anglaydigan, vatanparvar va xalqparvar, tashabbuskor va tadbirkor, zamonaviy bilimlar bilan qurollangan hamda yuksak insoniy fazilatlarga ega bo'lgan irodasi baquvvat, iymoni butun va vijdoni uyg'oq mutaxasislarni tayyorlash;

- institut jamoat a'zolarinng manaviy immunitetini shakllantirish, saqlash va himoya qilish;

- yoshlar orasida odob-axloqni bo'zishga, shu jumladan zo'ravonlik, hayosizlik va shafqatsizlikni tashviqot qilishga qaratilgan har qanday hatti-harakatlarning oldini olish, jumladan, yoshlarni ichkilikbozlik va giyohvandlik illatlaridan, boshqa turli haloqatli tahdidlar hamda biz uchun yot bo'lgan diniy va ekstremistik ta'sirlardan, tuban "ommaviy madaniyat" xurujlaridan himoya qilishga ko'maklashishdan iborat.

Institutda hamjihatlik, o'zaro ishonch, hurmat, bir-biriga g'amxo'rlik qilish hamda ahil-inoqlik jamoa a'zolarining o'zaro munosabatlaridagi muhim shartlardir.

Institutda o'zaro munosabatlarning asosiy tamoyili - bir shaxsni huquqi boshqa shaxsning huquqini poymol qilmasligi lozim, jumladan, jamoa a'zosining so'z erkinligi unga birovga tuhmat qilish, uni xaqorat qilish, o'zaro munosabatlarda umume'tirof etilgan axloq qoidalarini namoyishkorona mensimaslikda ifodalanuvchi behayo so'zlardan foydalanish huquqini, e'tiqod erkinligi diniy marosim liboslarida institutga kelish huquqini, kiyinish erkinligi ta'lim maskanida tarbiya jarayoniga salbiy ta'sir qilish huquqini kafolatlamaydi va hokazo.

Jamoa a'zolarining institutga odamlar diqqatini tortadigan tanani shaffof ko'rsatib turadigan, elka, ko'krak va qorin, shuningdek, tizzadan yuqori qismlari ochiq qoladigan hamda haddan ziyod tor kiyimda yoki diniy ibodat libosida, metall zanjirlar, to'g'nog'ichlar, tanaga turli munchoqlar qadagan holda, sport kiyim va poyabzalida kelishi taqiqlanadi. Jamoa a'zolari institutga orasta bo'lib, unga monand kiyimda kelishi lozim.

Jamoa a'zosining sha'ni va qadr - qimmatini hurmat qilinishi hamda xalqimizning ma'naviy merosini avaylab asrash maqsadida jamoa a'zolari bir-biriga nisbatan hurmatsizlik qilishi, behayo so'zlar ishlatishi qat'iy taqiqlanadi hamda institutda o'zaro "Siz" deb murojaat qilish odat tusiga kirishi lozim.

Institut jamoa a'zolari turli tadbirlarda (majlislar, tantanali yig'ilishlar, amaliy uchrashuvlar, bayramlarda) so'zga chiquvchilarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lish, maishiy tinchlikka rioya etishi shart. Zarurat taqozo etsa, bir notiq o'z so'zini tugatib, boshqasi so'z boshlashiga qadar yuzaga keladigan o'zilish vaqtida zaldan chiqib ketish mumkin.

Binolarga kirish joylarida tirbandlik yuzaga kelsa, talabalar professor-o'qituvchilar va xodimlarni, erkaklar esa ayollarni o'zlaridan oldin o'tkazib yuborishlari lozim.

Binoga kirayotgan har bir kishi binolarga kirib-chiqishni nazorat qilish uchun tayinlangan mas'ul shaxs yoki navbatchiga o'z shaxsini tasdiqlovchi hujjatni ochiq holda ko'rsatishi shart.

Jamoa a'zolari institut hududida yo'lning o'ng tomonidan yurishlari kerak. Bir-biriga duch kelganda, albatta, salomlashishlari, bunda: talabalar professor-o'qituvchilar va xodimlarga, erkaklar xotin-qizlarga, yoshlar kattalarga birinchi bo'lib salom berishlari tavsiya etiladi. Bundan qo'l berib so'rashish istisno bo'lib, yoshi katta shaxslar birinchi bo'lib qo'l uzatganidan keyingina unga javoban qo'l uzatish mumkin.

Milliy va umumbashariy qadriyatlarga xos bo'lmagan yoki institutning ichki muammolariga taalluqli masalalarni Internet tarmog'iga joylashtirish yoki undan turli maqsadlar yo'lida foydalanish taqiqlanadi.

Kompyuterlarda institutga tegishli bo'lmagan ma'lumotlarni, shuningdek, turli kinofilmlar, noqonuniy diniy ma'lumotlar, behayo suratlar, milliy, irqiy, etnik, diniy adovatni targ'ib qiluvchi har qanday materiallarni tayyorlash, saqlash, tarqatish va targ'ib etish qat'iy man etiladi.

O'quv mashg'ulotlariga va ishga hamda jamoa a'zolarining osoyishtaligiga halaqit beradigan hatti-harakatlar (radiopriyomnik, televizor, magnitofon va boshqa ovoz kuchaytirish vositalaridan maqsadsiz foydalanish) sodir etish taqiqlanadi.

Institut jamoa a'zolari dars mashg'ulotlari va ishga belgilangan kun tartibiga ko'ra o'z vaqtida kelishlari shart.

Institutda har qanday huquqbuzarlik sodir etish ta'qiqlanadi, shu jumladan, tuhmat qilish, haqorat qilish, jamoa a'zosiga ma'naviy yoki moddiy zarar etkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotni tarqatish, tan jaroxati etkazish, fuqarolik muomalasidan chiqarilgan vositalarga oid munosabatlarga kirishish (giyohvand moddalar, psixotropik vositalar va hokazo), ichkilikbozlik, kashandalik, maishiy tinchlikka tajovuz qilish, janjallashish, qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlar o'ynash qat'iy man etiladi.

2. Talabalarining odob-axloq normalari. Fan va texnika, madaniyatning zamonaviy rivojlanish darajasiga mos bilimlarni egallash;

- Institut faoliyatiga taalluqli muhim masalalarni muhokama qilish va yechishda jamoat tashkilotlari va boshqaruv organlari orqali ishtirok etish;

- Kutubxona fondidan, axborot resurslaridan, institutning o'quv, ilmiy, madaniy, tibbiy va boshqa bo'linmalari xizmatidan bepul foydalanish;

- Barcha ilmiy-tadqiqot ishlarida, anjuman, simpoziumlarda ishtirok etish, ilmiy ishlarni nashrga taqdim etish;

- O'z mutaxassisligi bo'yicha o'quv fanlarini o'rganishdan tashqari institutda o'qitilayotgan ixtiyoriy boshqa fanlarni shartnoma asosida o'rganish; Ma'muriyatning buyruqlari va farmoyishlari ustidan qonunlarda belgilangan tartibda shikoyat qilish;

- Institut tomonidan berilgan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid kelmaydigan boshqa huquqlarga egadir.

- Institut ichki tartib-qoidalariga qat'iy rioya etish, hududda sigaret, nos chekmaslik, kiyinish va salomlashish odobiga rioya qilish, xushmuomala bo'lish, o'quv xonalari, koridorlarni, institut hududini ozoda saqlash;

- Darslarga to'liq qatnashish, o'quv mashg'ulotlarida faollik ko'rsatish, rektorat va dekanat farmoyishlariga bo'ysunish, mustaqil ish topshiriqlarini o'z vaqtida bajarish;

- Institutning siyosiy-ijtimoiy hayotida, shanbaliklarda, uchrashuv va kechalarda faol ishtirok etish;

- Institutdagi jihozlarni, kompyuterlar va boshqa o'qitish vositalarini ehtiyot qilish;

- Axborot resurs markazi, "Ta'lim portali" va "Ziyonet" axborot resurs portalidan foydalanish qoidalariga qat'iy rioya qilish;

- Institutdagi til o'rganish va kompyuter kurslariga qatnashish, fan va sport to'garaklariga a'zo bo'lish;

- Mustaqillik mafkuramizga, milliy g'oyamizga yot bo'lgan turli ekstremistik, buzg'unchi g'oyalarga va oqimlarga aldanib qolmaslik, ularga qarshi kurashish, "Men mustaqillikka nima berdim" degan tamoyilni doimo yodda tutish, vatanga munosib farzand bo'lish baxti kutayotganini esdan chiqarmaslik;

a) institut hududida:

- hududga kirishda talabalik guvohnomasini ko'rsatib kirish;

- hududni ifloslantirmaslik va chiqindilarni faqat maxsus joylardagi urnalarga tashlash;

- ustozlar bilan duch kelganda salom berish;

- o'quv mashg'ulotlari vaqtida hududda sababsiz yurmaslik;

- institut mulki (ko'char va ko'chmas mulki, o'simlik va xayvonot dunyosi va hokazolar) ga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish;

- kiyinish va o'zaro suhbat odoblariga rioya qilish;

- mutasaddilarning ruxsatisiz turli reklama vositalarini osmaslik;

- maishiy tinchlikka rioya qilish;

- narkotik va psixotrop moddalar, alkohol va tamaki mahsulotlar iste'mol qilinishi hamda tarqatilishiga qarshi kurashish.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq yuqoridagi holatlar haqida tegishli tashkilotlarga o'z vaqtida xabar bermaslik javobgarlikka sabab bo'lishi alohida qayd etiladi.

b) auditoriyada:

- uyali aloqa vositalarini o'chirib qo'yish;

- dars vaqtida gaplashmaslik;

- jihozlarga madaniy munosabatda bo'lish, partalarga yozmaslik;

- qog'oz va boshqa keraksiz narsalarni qoldirib ketmaslik;

- ovqatlanmaslik, saqich chaynamaslik.

v) UMUMIY ovqatlanish joylarida:

- taomlarni olishda navbat tartibiga rioya qilish;
- tirbandlik holatida ustozlar, ayollar, yoki kattalarga hurmat ko'rsatish;
- ovqatlanish vaqtida shovqin solmaslik;
- umumiy ovqatlanish shaxobchasida belgilangan tartib-qoidalariga rioya qilish.

g) axborot resurs markazida:

- ARM xodimlari bilan xushmuomalada bo'lish;
- kitoblar va jihozlarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish;
- baland ovozda so'zlashmaslik va atrofdagilarga halaqit bermaslik;
- qog'oz, saqich va boshqa chiqindilarni qoldirib ketmaslik;
- kitoblarni olish va topshirish tartib-qoidalariga rioya qilish.

d) talabalar turar joylarida:

- mavjud jihozlarni asrash, ularga zarar etkazmaslik;
- elektr-energiyasi, gaz va suv resurslaridan tejamkorona (oqilona) foydalanish;
- sanitariya va gigiena xonalaridan foydalanish qoidalariga amal qilish;
- talabalar turar joyi "Nizomi" va "Ichki tartib qoidalari"ga qat'iy rioya qilish.

e) sport majmualarida:

- sport majmuasiga xos bo'lgan kiyim va poyabzallarda kirish;
- sport inventarlariga nisbatan madaniy munosabatda bo'lish;
- mashg'ulotlardan keyin sport inventarlarini belgilangan joylarga qayta topshirish;
- sport majmuasining belgilangan tartib-qoidalariga rioya qilish.

j) madaniyat saroyi va boshqa ommaviy tadbirlar o'tkazish joylarida:

- o'rindiqlar va boshqa jihozlarga nisbatan madaniy munosabatda bo'lish;
- ommaviy tadbirlar vaqtida hushtak chalmaslik, baqirmaslik, tadbir tugashidan oldin sababsiz chiqib ketmaslik;
- uhlab o'tirmaslik, o'rindiqlarga yotib olmaslik, bir-biri bilan gaplashmaslik, yon atrofdagilarga xalaqit bermaslik.

Shuningdek.

- turli davralarda o'zining namunaviy xulqi va bilimi bilan institut haqida yuksak ijobiy taassurot hosil qilishga intilish;
- doimo komillikka intilish, halollik va adolat bilan hayot kechirish kabi olijanob fazilatlarini chuqur anglash;
- institut manfaati, uning sha'ni va shonli ananalari, obro'si hamda nufuzi to'g'risida qayg'urish, ularni saqlab qolishga

jonkuyarlik qilish va ularga hurmat bilan munosabatda bo'lish.

Talabalar odob-axloqida man etiladigan holatlar

Talabaga:

- professor-o'qituvchilarga qo'pollik qilish, mashg'ulotlar vaqtida asossiz gapirish;
- professor-o'qituvchi bilan boshqalarning bahosini muhokama qilish;
- yolg'on gapirish, g'irromlik yoki professor-o'qituvchilarni chalg'itish bilan bog'lik har qanday hatti-harakatlar qilish;
- xodimlar va o'z o'rtoqlariga nisbatan xurmatsizlik qilish;
- yozma ishlarni himoya qilish va reyting nazoratiga doir boshqa tartib-taomillarni bajarish vaqtida chetdan yordam olish, o'zgalarga yordam ko'rsatish;
- boshqa shaxslar tomonidan tayyorlangan topshiriqlar yoki yozma ishlarni o'z nomidan topshirish;
- mashg'ulotlarni o'tkazib yuborish yoki kechqib kelish;
- mashg'ulotlar vaqtida professor-o'qituvchining ruxsatisiz auditoriyadan chiqib ketish;
- boshqa talabaning sa'y-harakatlariga qasddan ziyon etkazish;
- moddiy jihatdan yaxshi ta'minlanganligini turli yo'llar bilan ko'z-ko'z qilish qat'iyan man etiladi.

3. Talabalarga stipendiya tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida. Institutning kunduzgi shaklida talabalikka davlat granti yoki to'lov-kontrakt asosida o'qishga kirgan talabalarga har semestr boshida o'tgan semestr yakunlari asosida rektor buyrug'i bilan stipendiya tayinlanadi. Stipendiya miqdori talabaning o'zlashtirish darajasiga qarab tabaqalashgan holda belgilanadi, ya'ni:

- reyting bo'yicha ballari 56-70 ball - 0,5 koeffitsent miqdorida;
- reyting bo'yicha ballari 71-85 ball - 0,75 koeffitsent miqdorida;
- reyting bo'yicha ballari 86-100 ball - 1,0 koeffitsent miqdorida;

Birinchi kurs talabalariga 1-semestrda 0,5 koeffitsent bilan stipendiya tayinlanadi. Agar semestr yakunida talaba qarzдор bo'lib qolsa, u stipendiya olishdan mahrum bo'ladi. Talaba akademqarzini topshirib bo'lgandan so'ng unga keyingi oynning birinchi sanasidan boshlab stipendiya tayinlanadi.

To'lov-kontrakt asosida talabalikka qabul qilish davlat komissiyasi qarori asosida amalga oshiriladi va institut bilan yuridik yoki jismoniy shaxslar o'rtasida belgilangan tartibda kontraktlar rasmiylashtiriladi. Kontrakt blankalari marketing bo'limidan olinadi. Yuridik shaxslar uchun 3 nusxada, jismoniy shaxslar uchun 2 nusxada rasmiylashtiriladi. Kontrakt rektor va bosh hisobchi tomonidan imzolanadi va muhr bilan tasdiqdanadi.

To'lov-kontrakt asosida o'qishga kirayotgan abituriyentlarga to'lov amalga oshirilgandan keyin buyruq chiqariladi. Agar abituriyent ko'rsatilgan muddatda (15- sentabrgacha) to'lovni amalga oshirmasa, buyruq chiqarilmaydi.

4. Talabalar turar joyi. Umumiy ovqatlanish joylarida: taomlarni olishda navbat tartibiga rioya qilish, tirbandlik holatida ustozlar, ayollar, yoki kattalarga hurmat ko'rsatish, ovqatlanish vaqtida shovqin solmaslik, umumiy ovqatlanish shaxobchasida belgilangan tartib-qoidalarga rioya qilish.

2 ta talabalar turar joyi mavjud. Institutning istalgan talabasi talabalar turar joyiga joylashishi mumkin. Buning uchun ular fakultet dekaniga murojaat qilishlari talab etiladi. Talabalar turar joyida yashovchilarga:

- Talabalar turar joyi ichki tartib-qoidalariga qat'iy amal qilish;
- Ma'muriyat bilan tuzilgan o'zaro mas'uliyat to'g'risidagi shartnoma qoidalariga rioya qilish;
- Navbatchilik jadvaliga binoan xonalarda, qavat va kirish joylarida navbatchilik qilish, dam olish joylarida namunali tozalikni ta'minlay bilish;
- Gaz va elektr asboblariidan unumli foydalanish va texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish;
- Yashab turgan xona va umumiy foydalanish joylarini xar doim saranjom tutish;
- Xonadoshlar hamda talabalar turar joyida yashayotgan talabalar bilan samimiy va ahil munosabatda bo'lish.

Quyidagi majburiyatlar yuklanadi:

- Qavat va seksiya sardorlari, talabalar Kengashi raisi topshiriqlarini so'zsiz bajarish;
- Talabalar turar joni va xonadagi mavjud hamma jihozlarni (shifoner, krovat, tumbochka, stol, stul va h.k.) namunali darajada saqlash;
- Talabalar turar joyi va xonadagi mebellarni, deraza va unga qo'yilgan oynalarni sindirmaslik, eshik qulflarini talabalar turar joyi direktorining ruxsatisiz almashtirmaslik;
- Umumiy foydalanish joylariga o'rnatilgan yoritgichlar, elektr va gaz plitalarini ehtiyot qilish, yuvinish xonasi, oshxona hamda ma'naviyat ea ma'rifat xonalari jihozlaridan to'g'ri foydalanish;
- Elektr va gaz plitalaridan tejab foydalanish, qo'lbola elektr isitgich asboblariidan foydalanmaslik;
- Jadval bo'yicha navbatchilik qilish, belgilangan muddatda qavatni hamda umumiy foydalanish joylarini (hojatxona, yuvinish xonalari, ovqat pishirish xonasi va boshqalar) tozalash, maishiy chiqindilarni maxsus belgilangan joylarga o'z vaqtida chiqarib tashlash;
- Talabalar turar jonlarida o'tkaziladigan hashar, ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish ishlarida muntazam, faol qatnashish ;

- Talabalar turar joyidan uzoq muddatga ketishdan oldin (yozgi va qishki ta'tilga, dam olishga, amaliyotga) xonadagi jihozlar va xona kalitini talabalar turar joyi direktoriga topshirish;
- Bitiruv malakaviy ishlari tugallangandan so'ng yoki institutdan chetlashtirish to'grisida buyruq chiqarilgan taqdirda xona va undagi jihozlarni bir hafta muddat ichida talabalar turar joyi direktoriga topshirish;
- Talabalar turar joyidan o'rin olib unda yashamasligiga yo'l qo'ymaslik.
- O'z o'rnida boshqa birovning yashashiga ruxsat bermaslik;
- Yashash xonalarida mehmondorchilik, tug'ilgan kunlar, bayram dasturxonlarini "bezab" , ortiqcha o'yin-kulgular qilmaslik;
- Talabalar turar joyi binosi ichida, daxlizlarda, o'quv va ish xonalarida boshqalarga xalaqit beradigan baland tovushda gapirishdan o'zini saqlash, shovqin-suron qilmaslik;
- Talabalar turar joyida (kechasi) juda kech qolib kelib, ichki tartib-qoidani buzishga yo'l qo'ymaslik;
- Yashash xonasidagi barcha jihozlarning ozoda bo'lishiga, ayniqsa, ko'rpa-to'shak, choyshab, yostiqjild, sochiq, deraza pardalarining tozaligiga alohida e'tibor qaratish;
- Yashash xonalarida va talab qilingan boshqa joylarda sigaret, nos chekish, pista chaqish kabi nomunosib odatlardan saqlanish;
- Yuqori qavatlardan pastga har qanday narsani tashlashni qat'iy man etish.
- Talabalar turar joyida istiqomat qiluvchilarning do'stona, samimiy munosabatda bo'lishlari, bir oilaning farzandlaridek munosabat o'rnatishni ta'minlash;
- "Eng orasta xona", "Eng tartibli va toza qavat", "Eng obod bino" tanlovlarida ishtirok etish;
- Xona gullari parvarish qilinganda yuksak did va tozalikka e'tibor qaratish
- Farroshlarning, navbatchilarning mehnatini qadrlash;
- Talabalar turar joyida kiyinish odobi va madaniyatiga rioya qilish.

Talabalar turar joyida yashovchilarga quyidagilar man etiladi:

- Talabalar turar joyi direktorining ruxsatisiz bir xonadan ikkinchi xonaga ko'chib o'tish ;
- Yashash xonasida kir yuvish;
- Xonadagi anjomlarni boshqa xonaga ruxsatsiz ko'chirish
- Xonadagi elektr tarmoqlarini o'z xohishicha o'zgartirish va qo'shimcha yoritkich o'rnatish;
- Devorlarga turli rasmlar chizish, har xil qog'ozlar yopishtirish;
- Ovoz chiqaruvchi qurilmalar ovozining xona tashqarisidan yuqori darajada eshitilishi, yuqori ovozda ashula aytish va musiqa asboblari chalish;
- Elektr isitgichlar va kerosindan foydalanib ishlaydigan asboblarni ishlatish
- Begona odamga tunab qolish uchun joy berish;
- Spirtli ichimliklar va giyohvand moddalarni iste'mol qilish, saqlash, sotish qat'iy taqiqlanadi.

5. Sport – sog'lomlashtirish tadbirlari.. Sport majmualarida: sport majmuasiga xos bo'lgan kiyim va poyabzallarda kirish, sport inventarlariga nisbatan madaniy munosabatda bo'lish, mashg'ulotlardan keyin sport inventarlarini belgilangan joylarga qayta topshirish, sport majmuasining belgilangan tartib-qoidalariga rioya qilish.

Institutda jismoniy tarbiya kafedrasi qoshida sport to'garaklari faoliyat ko'rsatadi. To'garaklarda sport turlarini chuqur o'zlashtirish, to'garaklarda ishtirok etayotgan hamda ishtirok etish istagida bo'lgan talabalar, o'quvchilar va qiziquvchilar uchun tashkil etilgan. Shuningdek, to'garaklar tashkil etilishida talabalar, tinglovchi va qiziquvchilarning xohish va istaklari ham e'tiborga olinadi.

Siz sport to'garag'iga a'zo bo'lmoqchi bo'lsangiz to'garak tashkil etilgan kafedraning mudiri yoki to'garak rahbariga murojaat qilishingiz mumkin.

To'garakka a'zolikka qabul qilingan har bir talaba yoki tinglovchi to'garakning dasturi va rejasi asosida amalga oshiriladigan jarayonlarda faol ishtirok etishi va hosil qilgan ko'nikma va tajribalar asosida ma'ruzalar qilishi, tajribalari natijalarini namoyish qilishi hamda tanlovlarda ishtirok etishi muhim ahamiyatga ega. To'garakning ish faoliyatida faol ishtirok etib, ma'lum muvaffaqiyatlarga erishgan talaba iqtidorli talabalar safiga qabul qilinishi mumkin. Iqtidorli talaba to'garakning a'zosi bo'lishi bilan birga "Yosh sportchilar kengashi" yoki kafedra qoshidagi "Talaba" sport klubi a'zosi bo'lishi mumkin. Institutda futbol, qo'l to'pi, volleybol, basketbol, shaxmat, kurash, belbog'li kurash, dyuz-do, yengil atletika, stol tennisi, og'ir atletika sport to'garaklari faoliyat ko'rsatmokda.

Nazorat uchun savollar

1. Institut talabalarining huquq va majburiyatlari deganda nimani tushinasiz?
2. Talabalarining odob-axloq normalarida nimalar kiradi?
3. Talabalarni stipendiya bilan ta'minlash qanday amalga oshiriladi?
4. Ovqatlanish va talabalar turar joyi haqida so'zlab bering
5. Sprot – sog'lomlashtirish tadbirlari sport musobaqalari va universiadalar.
6. Talabalar turar joyida yashovchilarga nimalar man etiladi:?
7. Talabalar odob-axloqida man etiladigan holatlar?
8. Institutda qanday sport to'garaklari bor?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. / Toshkent; "O'zbekiston", 1992y. 37 b.
2. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. / Toshkent; "O'zbekiston", 1997y. 30 b.
3. Talabalarining odob axloq qoidalari / SamDAQI; 2012 yil 26 avgust
4. Q.T. va boshqalar. Ixtisoslik fanlarini o'qitish metodikasi. –/Toshkent; "Fan", 2004y.
5. ES-TACIS EDUZ-9803 «O'zbekistonda kasb-hunar ta'limi islohatiga ko'mak» loyihasi. / «Ta'lim shakllari: mazmun, tanlash va amalga oshirish» Ekspress qo'llanma. – Toshkent, 2002.
6. Germaniya Texnikaviy hamkorlik doirasidagi «Kasbiy pedagogika» mavzusidagi seminar materiallari. / Berlin, 1999y.

8- Mavzu :Binolarni rejaviy echimlari. Binolarni loyihalash asoslari . Bino barpo etishda arxitekturaviy loyihalash.

Reja

1. Binolarni me'moriy va rejaviy echimlari
2. Binolarni loylash asoslari va qurilish nazariyasi
3. Bino barpo etishda arxitekturaviy loyihalash

Tayanch iboralar; Bino, loyihalash, qurilish, me'moriy va rejaviy echim, arxitekturaviy, sanoat binolari, inshootlari, konstruksiya, qavat, ravoq,tom, yopma.

1.Dunyoda odamlar paydo bo'lgandan boshlab dastlab o'ziga bosh pana, uy-joy, qurish bilan mashg'ul bo'lishgan. Asrlar, ming yillar o'tishi bilan er kurrasida odamlar tomonidan turli tuman binolar, inshootlar, yo'llar, ko'priklar suv havzalari bog'rog'lar va boshqalar qurilgan, bunyod etilgan. Ma'lumki, har qanday bino va inshootlarni qurish uchun dastlab uning loyihasi chiziladi. Bino va inshootlar arxitekturasi fani, bino va inshootlar ularning komplekslari va yashash massivlarini loyihalashni umumiy texnik, badiiy memoriy uslublari qoidalarini o'rgatadi. Bino odamlar tomonidan ma'lum maqsadda quriladigan inshootlarning bir turi bo'lib, unda turli ijtimoiy ma'muriy xo'jalik va ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun muhit yaratiladi.

Binolar va inshootlar asosan uch turga bo'linadi.

1. Fuqaro binolari.
2. Sanoat binolari.
3. Qishloq xo'jalik bino va inshootlari.

Fuqaro binolari o'z navbatida ikki turga bo'linadi.

1. Jamoat binolari.
2. Yashash, turar-joy binolari.

Yashash, turar-joy binolari odamlarning doimiy yoki vaqtinchalik yashashlari uchun mo'ljallangan bo'lib, ularga yashash uylari, yotoqxonalar, mehmonxonalar kiradi.

Jamoat binolari deb, odamlarni turli ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan jamoatchilik ehtiyojlarini qondirish maqsadida qurilgan binolarga aytiladi. Bularga ma'muriy maishiy madaniy oqartuv ta'lim muassasalari va boshqalar kiradi.

Sanoat binolari deb, ishlab chiqarish qurollari joylashtirilgan va texnologik jarayon natijasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi binolarga aytiladi. Bularga asosan zavodlar, fabrikalar, turli sexlar, ularga yordamchi binolar ya'ni energetika, transport, omborxonalar, korxona hududida joylashgan ishchilarga madaniy maishiy, tibbiy va boshqa xizmatlar ko'rsatadigan yordamchi binolar kiradi.

Qishloq xo'jalik binolari qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lib ular qishloq xo'jaligi ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qiladi. Bularga quyidagilar kiradi:

1. Chorvachilik binolari;
2. Parrandachilik binolari;
3. Yilqichilik xo'jaliklari;
4. Cho'chqachilik binolari;
5. Xo'jalik texnikalari saqlash va ta'mirlash binolari;
6. Qishloq xo'jaligi maqsulotlarini saqlash binolari;
7. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash binolari;
8. Issiqxonalar va boshqalar.
9. Har qanday bino va inshootlarni loyiha qilishda 1-chi navbatda ularni nazariy asoslash lozim.

Ma'lumki barcha bino va inshootlar odamlar uchun yaratilgan. Yashash binolarida odamlarni yashash dam olish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilishi lozim. Jumladan me'yoriy mikro iqlim va nisbiy namlik havo almashishi va harorat maydonlari yaratiladi. Buning uchun bino va tashqi to'siq konstruksiyalarini issiqlik fizik hisoblari bajariladi. Bu hisoblar natijasida tashqi devor va tom yopmalarning qalinligi tashqi devor uchun optimal samarali qurilish materiallari tanlab olinadi. Hisoblar quyidagi tartibda bajariladi. Ma'lumki qish faslida bino ichiga olib kelingan issiqlik miqdori tashqi devor tom yopma orqali tashqi havoga sarf bo'ladi. Shu tashqi devor orqali tashqi havoga o'tayotgan issiqlik miqdori ma'lum qarshilikka uchraydi. Bu qarshilik issiqlik o'tkazish qarshiligi deb ataladi.


Har qanday bino va inshootlarni loyihalashda 1-chi navbatda ularni nazariy asoslash lozim. Ma'lumki barcha bino va inshootlar odamlar uchun yaratilgan. Yashash binolarida odamlarni yashash dam olish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilishi lozim. Jumladan me'yoriy mikro iqlim va nisbiy namlik havo almashishi va harorat maydonlari yaratiladi. Buning uchun bino va tashqi to'siq konstruksiyalarini issiqlik fizik hisoblari bajariladi. Bu hisoblar natijasida tashqi devor va tom yopmalarning qalinligi tashqi devor uchun optimal samarali qurilish materiallari tanlab olinadi. Hisoblar quyidagi tartibda bajariladi. Ma'lumki qish faslida bino ichiga olib kelingan issiqlik miqdori tashqi devor tom yopma orqali tashqi havoga sarf bo'ladi. SHu tashqi devor orqali tashqi havoga o'tayotgan issiqlik miqdori ma'lum qarshilikka uchraydi. Bu qarshilik issiqlik o'tkazish qarshiligi deb ataladi.

Bino inshootlarni loyixalashda ularga va ularning konstruktiv elementlariga maxsus talablar qo'yiladi.

Bu talablar asosan quyidagilardan iborat:

1. Texnik talablar.
2. Badiiy-me'moriy talablar.
3. Maqsadga muvofiqlik-funksional talablar.
4. Iqtisodiy talablar.

Binolarga ta'sir etayotgan tashqi muhit ta'sirlari quyidagi rasmda keltirilgan.



Binoga ta'sir etuvchi tashqi muhit ta'siri.

Texnik talablarga mustahkamlik, egilishga, siqilishga

chidamliligi, zilzilabardoshligi, uzoq muddatga xizmat qilish davri, tashqi muhit ta'siridan bo'zilmadan deformatsiyasiz ishlash xususiyati, ustivorligi, statik va dinamik kuchlar ta'sirida uz barqarorligini yo'qotmasligi va boshqalar kiradi.

Badiiy –me'moriy talablarga binoning hajmiy-rejaviy echimi, konstruktiv echim, tashqi hajmiy echimi, ichki dizayn – barchasi binoning ichki jarayonlari bilan bog'langan bo'lib, hamda binoning qurilish joyiga tabiiy bog'lanish kiradi.

Maqsadga muvofiqlik - funksional talablar deb binoni nima maqsadda loyiha qilinib qurilishi maqsadga muvofiq bo'lishi lozim, Masalan, kinoteatr, kino-konsert binolarining maqsadga muvofiqligi, ularda - odamlarning madaniy dam olishi, hordiq chiqarishi, kayfiyatini ko'tarish, musiqa va ovozni yaxshi tiniq eshitish, ko'rish ya'ni okustika, yoruglik bilan ta'minlanishi hamda mikroiklim sharoitlar yaratilishi shular jumlasiga kiradi.

Sanoat binolarida esa asosiy maqsad raqobatbardosh, sifatli yangi texnologik jarayonlar natijasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish asosiy maqsad qilib olinadi.

Iqtisodiy talablar asosiy talablardan biri bo'lib, bunda binolarni loyihalashda bir nechta variantlar loyihasi bir-biri bilan iqtisodiy jihatdan taqqoslanadi. Bunda quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha taqqoslash mumkin.

1. Rejaviy echim.
2. Hajviy-rejaviy echim.
3. Konstruktiv echim va boshqalar.

Bu ko'rsatkichlar binoning qurilish muddati, qurilishga sarf bo'lgan vositalar, ish kuchi va keltirilgan xarajatlar bo'yicha asoslanadi.

Jamoat binolarni loyihalashda quyidagi rejaviy yechim uslublaridan foydalaniladi.


1. Anfilad tipida.
2. Koridor tipida.
3. Zal tipida.
4. Markaziy tipda.

Anfilad sxemasi tipidagi binolar asosan jamoat binolarini

Anfilad sxemasi tipidagi binolar asosan jamoat binolarini

loyiha qilishda qo'llaniladi. Bu tipdagi bino: muzey, san'at ko'rgazmalari va yutuqlari, rasm zallari, xalq xo'jaligi yutuqlari, vestavkalari va rasm san'at galereyalarini loyiha qilishda qo'llaniladi.


Masalan: Moskvadagi Tretyakov rasm galereyasi yoki Sankt-Peterburgdagi ermitaj binolari anfilad sxemasida loyiha qilingan.



Anfilad tipida bino sxemasi.


Anfelad sxemasidagi binolarda xonalar ketmaket joylashtirilib, bir xonadan 2-xonaga, 2-xonadan 3-xonaga va hokazo o'tish uchun eshiklar loyiha qilingan bo'lib, bu eshiklar bir simmetrik o'qda yotishi lozim.

Zal tipidagi binolar asosan jamoat binolarini loyiha qilishda qo'llaniladi. Bu turdagi binolarga kinoteatr, klub, majlislar zali va shunga o'xshash binolarni loyiha qilishda qo'llaniladi. Zal tipida-gi binolarda asosiy xona zal atrofida yordamchi xonalar joylashtiriladi. Zal tipidagi binoning sxemasi quyidagi rasmda keltirilgan.



Zal tipida bino sxemasi.

Markaziy sxema tipidagi rejaviy yechim. Markaziy tipdagi binolarda binoning asosiy xonasi – zal markazda joylashgan bo'lib, uni atrofidagi yordamchi xonalar bosh o'qqa nisbatan simmetrik joylashtiriladi. Uning sxemasi quyidagi rasmda keltirilgan.



Markaziy tipidagi bino sxemasi.

1 – markaziy zal; 2 – yordamchi xonalar.


3. Me'moriy kompozisiya – bino qismlarining va formalarining yoki binolar kompleksining funksional, texnik va badiiy talablarga javob beradigan inshoot yaratish maqsadida uyg'unlashgan holda birlashgan (majmua) ko'rinishidir.

Me'moriy kompozisiya yaratish binoning xajmiy-plan va konstruktiv yechimini ishlab chiqishini, binoning ichki (interyer) va tashqi qiyofasini hal qilishni, ichki va tashqi qiyofa, tashqi qiyofa va atrof muxit orasidagi o'zaro mutasoniblikni ta'minlash kabi murakkab jarayonlarni o'z ichiga oladi. Odatda, binoning ko'rinib turadigan qismlari, uning detallari, alohida hajmlari uyg'unlashgan, mutanosib holda o'zaro birlashib, badiiy jihatdan ajralmas bus-butunlik yaratilgan bo'lsa, me'moriy kompozisiya muvaffaqiyatli chiqqan hisoblanadi.

Binoning ichki fazosi va tashqi hajmi me'moriy kompozisiyaning asosiy tarkibiy qismlaridir. Yuqorida ko'rib o'tilgan binolar-ning planirovka sistemalari binolar uchun ichki fazoning kompozisiya yechimlaridir.

Binolar tashqi hajm kompozitsiyalarini 3 ta asosiy guruhlariga bo'lish mumkin: oddiy kompozisiya – bir hajmdan tashkil topgan; murakkab kompozisiya bir-biri bilan bevosita tutashgan yoki birlashtiruvchi elementlar bilan bog'langan ikki yoki undan ortiq har xil hajmlardan tashkil topgan; kompleks kompozisiya – yagona me'moriy kompleksga taaluqli bir necha alohida hajmlardan (binolardan) tashkil topgan kompozisiya.

Tashqi hajm kompozitsiyalarini qurish uslublariga qarab markaziy, frontal, ichki-davomli va erkin kompozisiya kabi turlarga bo'lish mumkin. Markaziy kompozisiya – binoda markaziy hajm bo'lishini va uning yonda o'lchamlari bir xil boshqa hajmlar simmetrik ravishda joylashishni nazarda tutadi (masalan, markaziy planrovka sistemasida yechilgan binolar).



13- rasm. Hajmiy kompozitsiyali bino sxemalar.

a) frontal, b) ichki davomli, v) markaziy.

a) frontal, b) ichki qavomli, v) markaziy

Hajmlari bir yo'nalishda boshqa yo'nalishlarga nisbatan kuchaytirilgan kompozitsiyalar frontal kompozitsiya deb ataladi (masalan, uzun fasadli binolar). Agar bosh fasadning aniq ifodalangan kompozitsiya o'qi bo'lsa, u holda bunday kompozitsiyani o'q chiziqli frontal kompozitsiya deyiladi.

Ichki-davomli kompozitsiya hajm binoning frontiga nisbatan perpendikulyar yo'nalishda kuchaytirilgan holni nazarda tutadi.

Ko'pincha binolarda hajmlar bir nechta bo'lib, ular fazoda bir-biri bilan geometrik qonuniyatlarga bo'ysunmagan, erkin brikan holda bo'lishlari mumkin. Bunday kompozitsiyani erkin kompozitsiya deb ataladi.

Binolar hajmiy-fazoviy kompozitsiyasining ma'nodorligiga kompozitsiyaning bir qator badiiy va boshqa vositalari yordamida erishiladi. Ular quyidagilar: 1) simmetriya va assimetriya; 2) ritm; 3) masshtab va masshtabning kengligi; 4) proporsiyalar

(mutanosiblik); 5) kontrast va nyuans (keskin va sezilar-sezilmas farq); 6) rang, pardozi va soyalar; 7) naqshlar, haykallar, maxobaili rasmlar; 8) tektonika.

Simmetrik kompozitsiya bir xil me'moriy formalar yoki elementlarning qonuniyatli joylashishiga asoslanadi, aniqlikni, qat'iylikni, tantanavorlikni ifodalashga yordam beradi.

Asimmetrik kompozitsiya fazoda nosimmetrik joylashgan me'moriy formalar va elementlarning badiiy birligiga, yaxlitligiga asoslanadi.


Ritm me'morchilikda bir xil yoki bir xil toifadagi me'moriy forma va elementlarning yoki ular orasidagi intervalning qonuniyatli almashib kelishini bildiradi. Bunda kompozitsiya ritmik qator yoki metrik qator ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Me'moriy masshtab kompozitsiyaning bo'laklanish darajasini, uning formalarini ham binoning o'ziga nisbatan, ham atrofdagi binolarga nisbatan katta-kichikligini ifodalaydi. Masshtabning kengligi esa kompozitsiyaning sifat xarakteristikasidir. U, kompozitsiya va uning elementlarining kishi qabul qiladigan kattaligini odamning o'zining o'lchamlariga muvofiqligini ko'rsatadi.

Arxitekturada proporsiya deb me'moriy formalar elementlari va bo'laklari geometrik o'lchamlarining o'zaro va butunga nisbati tushiniladi. Ko'p sonli proporsional nisbatlar sistemalari ichida butun sonli proporsiya, «oltin kesim», geometrik o'xshashlik arxitek-turada keng qo'llaniladi. Binolar va ulardagi xonalar o'lchamlarining (uzunlik, kenglik, balandlik) o'zaro nisbatlarida 1:2, 1:3, 2:3, 3:5 kabi butun sonli nisbatlar ko'p uchraydi. Bunday nisbatlardan shunday qator tuzish mumkinki, undagi har bir nisbatning birinchi raqami undan oldingi nisbatdagi ikkita rakamning yig'indisiga teng. Masalan, 1:2, 1:3, 2:3, 3:5, 5:8, 8:13, 13:21 va hokazo. Bunday qatorni «oltin kesim» qatori va nisbatlarning qiymati 0,618 ga teng yoki yaqin bo'lgan «oltin kesim» nisbati deyiladi. Arxitekturada bunday nisbat juda ko'p qo'llaniladi.

Yirik blokli binolarning ham ikki konstruktiv sxemasi mavjuddir: kam qavatli binolarda bo'ylama yuk ko'taruvchi devorli va ko'p qavatli binolarda esa ko'ndalang yuk ko'taruvchi devorli.


Devorlar ulardagi bloklar qatoriga qarab 4 qatorli, 3 qatorli, 2 qatorli (3 blokli) va 2 qatorli (2 blokli) kesimda loyihalanadi.



a - 4 qatorli; b - 3 qatorli; v - 2 qatorli (3-blokli); g - 2 qatorli (2-blokli);
d - 2 qatorli (3 - blokli) kesim asosiy bloklari. 1 - deraza oralig'i bloki;
2 - tutashtirgich blok; 3 - deraza osti bloki.

Ikki qatorli kesimda loyihalangan yirik blokli binolar seysmik rayonlarda qurilish ishlari olib borilganda maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Yirik blokli binolar zilzilabardoshligini ta'minlash maqsadida blok qirg'oqlarida vertikal armatura taranglab tortishdir. Bu armatura devor tanasi bo'ylab poydevordan boshlab karnizgacha tortib mahkamlanadi. Bu armaturalarni tik tortish uchun tutashtirgich bloklarida maxsus teshiklar qoldiriladi. Armatura o'tkazilgandan keyin novlarga beton qo'yiladi. Armatura yoki armatura karkaslari blokga mahkamlangan skobalarga payvandlanadi.



Armatura karkaslarini blokda ko'zlangan oraliqlarga tortib qo'yish.

1 - skoba; 2 - armatura karkasi; 3 - qoziq.

Nazorat uchun savollar

1. Binolarni me'moriy va rejaviy chimlari deganda nimani tushinasiz?
2. Binolarni loylash asoslari.
3. Bino barpo etishda arxitekturaviy turlari.
4. Yopma plitalar devor panellari.
5. Konstruktiv echim deganda nimani tushutasiz?
6. Bino va inshootlarni loyihalashda ularga va ularning konstruktiv elementlariga qanday talablar qo'yiladi.?
7. Arxitekturada proporsiya deb nimaga aytiladi?
8. Zal tipidagi binolar asosan qanday binolarini loyiha qilishda qo'llaniladi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. / Toshkent; "O'zbekiston", 1992y. 37 b.
2. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. / Toshkent; "O'zbekiston", 1997y. 30 b.
3. Shukurov G'.Sh., Boboev S.M. Darslik: /«Arxitektura fizikasi» -/Toshkent; «Mehnat» , 2005 y.40b.
4. Shukurov G'.Sh., Boboev S.M., / Qo'chqorov. o'quv qo'llanma «Arxi- tektura akustikasi»- Toshkent; "O'qituvchi" 2004 y.45b.
5. Teshaboev R.D. «Fuqaro binolarining me'morchilik konstruk- siyaoi» qismlari./Toshkent; "O'qituvchi" 2006 yi.78b.
6. Qurilish me'yoriy qoidalari. Zilzilaviy hududlarda qurilish. II – 01.03.96y.
7. Qurilish me'yoriy qoidalari. Jamoat binolari va inshootlari. II – 01.08. 96y

9- Mavzu : Binolarning konstruksiyalari. Yuklar va ta`sirlar.Turli konstruktiv echimlar

Reja

1. Binolarning konstruksiyalari.
2. Yuklar va ta`sirlar
3. Turli konstruktiv echimlar

Tayanch iboralar: devor, asos, poydevor, tom qurlmalari, tusin, ferma, ustun, eshik, deraza, bino, konstruksiya..

1. Binolarning konstruksiyalari deb o`lchamlari mustahkamlikka, ustivorlikka, chidamlilikka, yoriqbardoshlikka va deformatsiyaga hisoblash yo`li bilan topiladigan, hamda har xil yuk va ta`sirlarni qabul qilishga mo`ljallangan bino va inshootlar va ularning qismlariga (qo`zg`aladigan va qo`zg`almaydigan) aytiladi.

Qurilish konstruksiyalari po`lat, alyuminiy, beton, temirbeton, tosh, plastmassa yog`och va boshqalarlardan tayyorlanadi.

Transport qurilishida betonli, temirbetonli va metall konstruksiyalar qo`llaniladi. Metall konstruksiyalardan har xil vazifani bajaruvchi katta oraliqli binolarning sinchi va tomlarida foydaniladi. Beton va temirbeton konstruksiyalar kam tanqisligi, yuqori mustahkamli, uzoqqa chidamliligi, olovbardoshligi, suv o`tkazmasligi va har xil formadagi elementlarni tayyorlash mumkinligi, hamda foydalanish chiqimlarning kam talab qilganligi uchun qurilishda etakchi o`rinni egallaydi. Materiallarni to`g`ri tanlash va ularni qo`shishga konstruksiyalarning texnik – iqtisodiy ko`rsatkichlari, ularning ishonchiligi, uzoqqa chidamliligi va boshqalar bog`liq bo`ladi. Loyihachi materiallar bahosini, ularni ishlash va tashishni, materiallarning ijobiy va salbiy xossalarini, hamda «Asosiy qurilish materiallardan tejamli foydalanishning texnik qoidalari» ga amal qilishni hisobga olishi lozim.

Bino va inshootlar. Har xil ishlab–chiqarish jarayonlarini bajarish uchun va odamlarni ishlashi va yashashi uchun mo`ljallangan er usti qurilmasiga bino deyiladi.

Binolar funksional vazifalariga qarab fuqaro, shu jumladan, yashash uy–joy, jamoa va ishlab–chiqarish binolariga bo`linadi.

Inshoot – bu material va bashqalarni saqlash, ishlab–chiqarish jarayonlarini bajarish uchun muljallangan maxsus vazifadagi qurilmadir.

Binolarning asosiy konstruktiv elementlari. Har qaysi bino (inshoot) alohida konstruktiv elementlardan tashkil topgan.

Poydevor – bu yuklarni binodan uni asosiga, ya`ni gruntga uzatish va tarqatish uchun mo`ljallangan binoning er yuzidan pastga joylashgan qismidir.

Devorlar imoratni tashqi atmosfera muhitdan to`sish (tashqi devorlar) yoki imoratni alohida xonalar (ichki devorlar) ga bo`lish uchun xizmat qiladi.

Alohida tayanchlarga yopma va tomlardan tushadigan yukni qabul qiladigan yoki tashqi devorlarni ushlab turadigan ustunlar kiradi.

Yopmalar – bu o`z og`irligi, odamlar, texnik asbob–uskunalar va shunga o`xshashlardan tushadigan yuklarni qabul qiladigan va bino (inshoot) larni balandligi bo`yicha qavatlariga bo`ladigan konstruksiyalarning gorizontal elementlaridir.

Tom – bu o`z og`irligi, qor va ba`zida shamol ta`siridan tushadigan yukni qabul qiladigan hamda imoratni tashqi klimatik faktor va ta`sirlardan himoya qiladigan bino (inshoot) ning yuqorisidagi to`siqdir.

Zinapoya – bu qavatlararo aloqa uchun xizmat qiladigan bino (inshoot)ning elementidir.

Pardadevor – bu binoning ichki bo`shlig`ini alohida xonalarga bo`lish uchun xizmat qiladigan va bevosita yopmalarga tayanadigan yupqa ichki devordir.

Deraza va yuqori yoriqlik fonarlari imoratni tabiiy yoritish va shamollatish uchun, eshiklar esa xonalar orasidagi aloqa va binodan chiqish uchun xizmat qiladi.

Qurilish konstruksiyalariga qo`yiladigan talablar. Bino (inshoot) larga quyidagi talablar qo`yiladi:

binolar mustahkam, bikir, ustivor, uzoqqa chidamli bo'lishi, sanitar–gigiena, olovga qarshi, iqtisodiy va arxitektura talablarini qondirishi lozim. Konstruksiyalarning uzoqqa chidamliligi uni foydalanishlik sifatlarini yo'qotmasdan xizmat qilish muddati tushuniladi; uzoqqa xizmat qilish bo'yicha binolar uch darajali bo'ladi: 100 yil va undan ko'p xizmat qiladigan binolar 1–darajali; 50 yildan ko'p xizmat qiladiganlari 2–darajali va 20 yildan ko'p xizmat qiladiganlari 3–darajali binolarga kiradi.

Binolar olovbardoshligi bo'yicha 5 darajaga bo'linadi, jumladan, I daraja eng yuqori olovbardoshlikka, V daraja esa eng kam olovbardoshlikka to'g'ri keladi. I, II va III darajali olovbardoshlikka tosh, beton va temirbeton binolar, IV darajali olovbardoshlikka rastvor bilan suvalgan yog'och konstruksiyalar, V darajali olovbardoshlikka esa yog'och konstruksiyalar kiradi.

Hamma bino va inshootlar uzoqqa chidamliligi, olovbardoshligi va foydalanishlik sifatlariga qarab kapitalligi bo'yicha 4 sinfga bo'linadi.

2. Yuklar va ta'sirlar. Ishlash jarayonida konstruksiya materiali turli xil ta'sirlar va turli xil yuklarni o'ziga qabul qiladi. Ta'sirlar kuchli (silovye) va kuchsiz (nesilovye) bo'lishi mumkin.

Kuchli yuklarga, ya'ni tashqi kuch sifatida ta'sir etadigan yuklarga quyidagilar kiradi:

- foydali yuklar, ya'ni konstruksiya qabul qilishi lozim bo'lgan yuklar (mashina va asbob–uskunalar vazni, texnologik materiallar hamda odamlar og'irligi kabilar);

- zilzila va dinamik kuchlar ta'sirida vujudga kelgan inersion yuklar va hokazo.

Harorat, namlik, radiatsiya, zararli muhit kabi ta'sirlar kuchsiz, ya'ni kuchga bog'liq bo'lmagan ta'sirlarga kiradi.

Temirbeton konstruksiyalarini hisoblash nazariyasi ana shu ta'sirlarning barchasini inobatga olib bilishi zarur.

Hisoblash jarayonida ishtirok etadigan yuklarni belgilashda konstruksiyani mustahkam va, ayni bir paytda, tejamli bo'lishini yodda tutishimiz lozim. Yuklar konstruksiyaning vazifasiga qarab turlarga ajratiladi. Me'yoriy yuklarni turlari "Yuklar va ta'sirlar" deb nomalangan qurilish me'yorlari va qoidalarida (SNiP 2.01.07–85) batafsil bayon etilgan [7]. Me'yoriy yuklar konstruksiyaning tejamlilik talablariga javob beradigan tarzda belgilanadi.

Loyihalash jarayonida konstruksiya va uni tayyorlash, saqlash, tashish paytida, shuningdek inshootni tiklash davrida ta'sir etadigan yuklarni e'tiborga olish lozim bo'ladi. Hisob ishlarida yuklarni me'yoriy va hisobiy qiymatlaridan foydalaniladi. Konstruksiyadan o'z me'yorida foydalanish chog'ida me'yor /8/ bo'yicha unga qo'yilishi mumkin bo'lgan yuklarning maksimal qiymati me'yoriy deb ataladi.

Yukning haqiqiy qiymati bilan me'yoriy qiymati orasidagi farq yuklar bo'yicha ishonchlilik koeffitsienti yordamida hisobga bo'linadi: uzoq muddat va qisqa muddat ta'sir etadigan hamda maxsus yuklar. Texnologik jarayonlarga bog'liq bo'lgan ta'sirlar uzoq muddatli muvaqqat yuklarga kiradi. Maslan, elevatorga to'ldirilgan don yilning ma'lum muddati davomida konstruksiyaga bosim kuchi bilan ta'sir etadi, shamol, qor singari ta'sirlar qisqa muddatli yuklarga misol bo'la oladi. Zilzila va portlash kuchlari kabi ta'sirlar maxsus yuklarga kiradi.

Konstruksiyaga ta'sir etadigan real yukni aniqlash uchun yuklarning qaysi turlarini qo'shish mumkinligini bilish zarur. Bu muammo qurilish me'yorlarida /7/ hal etilgan, ya'ni qanday hollarda qanday yuk va ta'sirlar qo'shilishi mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Birinchi guruh bo'yicha asosiy qo'shimchalarga doimiy, uzoq muddatli va bitta qisqa muddatli yuklar kiradi. Qisqa muddatli yuklarni hisobga kiritishda qo'shimmalar koeffitsienti $\gamma_s=0,9$ olinadi.

Yuklarning maxsus qo'shimmalari doimiy, uzoq muddatli, qisqa muddatli va bitta maxsus yukdan tashkil topadi. Bunda qisqa muddatli yuklar $\gamma_s=0,8$ koeffitsientiga ko'paytiriladi, maxsus yuk esa to'laligicha olinadi.

3. Har qanday bino va inshootlarni qurish uchun dastlab uning loyihasi chiziladi. Bino va inshootlar me'morchiligi fani va inshootlar ularning komplekslari yashash massivlari va shaharlarni loyihalashni texnik badiiy me'moriy chizish uslublarini o'rgatadi. Har qanday bino va inshootlar bir-biri bilan tabiiy uzviy bog'langan konstruktiv elementlar va qurilmalardan tashkil topadi. Bu elementlar va qurilmalarga quyidagilar kiradi:

1. Devor asos va poydevor.
2. va devor elementlari.
3. Tom va ora yopmalar.
4. Tomning yuk ko'taruvchi qurlmalari. (to'sin, ferma, arka va boshqalar).
5. Tom.
6. Ustun va tayanchlar.
7. Eshik deraza va boshqa elementlar.

Asos – binoning eng pastki qismida joylashgan tuproq massivi bo'lib, ular binodan tushadigan barcha yuklarni poydevor orqali o'ziga qabul qiladi.

Poydevor – binoning asosiy konstruktiv elementlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Poydevor ham binoning pastki qismida joylashgan bo'lib, binodan tushadigan yuklarni o'ziga qabul qilib asosga uzatuvchi konstruksiyadir.

Devorlar – vazifasiga ko'ra ikki xil bo'ladi.

1. Tashqi devorlar.
2. Ichki devorlar.

Tashqi devorlar bino va bino xonalarini tashqi muhit ta'siridan muhofaza qiladi.

Ichki devorlar binoning ichki muhitini alohida xonalarga ajratadi.

Yopmalar – gorizontal konstruksiya bo'lib binolarni balandligi bo'yicha qavatlariga ajratadi.

Tomning yuk ko'taruvchi konstruksiyalariga to'sinlar fermalar, balkalar va arkalar kiradi. Bu konstruksiyalar ustunlarga yoki devorlarga montaj qilinadi va ularning ustidan tom yopma konstruksiyalari qo'yiladi.

Tom binoning yakunlovchi qismi bo'lib bino va inshootlarning yuqori qismini tashqi muhit va atmosfera tasiridan himoya qiladi.




Derazalar – vazifasiga ko'ra bino xonalarini me'yoriy tabiiy yorug'lik bilan taminlash uchun xizmat qiladi.

Zinapoyalar – binoning turli qavatlarida joylashgan xonalar o'rtasida aloqa qilish vazifasini bajaradi.

Bino devorlarida yuqorida sanab o'tilgan elementdaridan tashqari quyidagi elementlar ham mavjud:


1. Sokol;
2. Karniz;
3. Sandrik (qosh);
4. Plyastir;
5. Kontrofors;

1. Sokol tashqi devorning pastki qismida joylashgan bo'lib devorning pastki qismini namlikdan himoya qiladi. Uning shakli kuyidagicha bo'ladi:




Sokol turlari.


2) Karniz, binoning yuqori qismini namlikdan va tashqi muhit ta'siridan himoya qiluvchi element hisoblanadi.



Karniz sxemalari.




3) Sandrik (qosh) – bu element deraza va eshiklarning yuqori qismiga qurilib, deraza va eshiklarni atmosfera ta’siridan va yog’ingarchiliklardan himoya qiladi, hamda binoning tashqi devorlarida bezak sifatida ham ishlatiladi. Bu elementlarning shakli quyidagicha: (rasmda keltirilgan).



Sandrik sxemasi.

4) Pilyastr va kontrofors - tashqi uzliksiz devorlarda qurilib, bu elementlar tashqi devorlarning yuk qutarish qobiliyatini, barqarorligini va mustahkamligini oshiruvchi element hisoblanadi. Pilyastr uzliksiz devorda ma’lum masofada joylashgan bo’lib, o’sha joyda devorning qalinligini oshiradi.



a) Pilyastr, b) Kontrofors sxemalari.

Kontrofors. Agar devordagi pilyastrning pastki qismi kengaytirib qurilgan bo’lsa, bunga kontrofors deyiladi.

Nazorat uchun savollar

1. Binolarning konstruksiyalari deganda nimani tushunasiz?
2. Turli konstruktiv echimlar bir- biridan qanday farq qiladi?
3. Me’yoriy hujjatlarda texnik informatsion adabiyotlardan va internetdan foydalanish qanday amalga oshiriladi?
4. Yopmalar va ora yopmalar haqida nimalarni bilasiz?
5. Tomning yuk ko’taruvchi qurlmalarini sanab bering ?
6. Devorlar vazifasiga ko’ra nechta turga bo’linadi?
7. Qurilish konstruksiyalari nima?
8. Binolarning sinflanishi (uy–joy, jamoa va ishlab chiqarish binolari).
9. Binolarning asosiy konstruktiv elementlarini ayting.
10. Ularga qo’yiladigan talablar?
11. Konstruksiyaga ta’sir etuvchi yuklar qanday sinflanadi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. / Toshkent; “O‘zbekiston”, 1992y. 37 b.
2. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. / Toshkent; “O‘zbekiston”, 1997y. 30 b.
3. R .I. Xolmurodov, S.A. Asliyev /“Metal qurilmalar” -Toshkent “O`qituvchi”;.1994 yil.179 b.
4. N. J .To`ychev “Oqava va sanoat binolari konstruksiyalari” Voris nashr./Toshkent;.2006y.247 b.
- 5 . Teshaboev R.D. «Fuqaro binolarining me’morchilik konstruksiyaon» qismlari. /Toshkent “O`qituvchi”;.1994 yil.179b.
6. Qurilish me’yoriy qoidalari. Zilzilaviy hududlarda qurilish. II – 01.03.-96b.
7. Qurilish me’yoriy qoidalari. Jamoat binolari va inshootlari. II – 01.08.- 96 b.

10- Mavzu: Zamin va poydevorlar. Inshootni mustahkamligi va turg'un holatlari. Inshootni loyihasini tuzish.
Zaminda grunt da yuz bergan o'zgarishlar.

Reja

1. Zamin va guruntlar
2. Poydevorlar.
3. Tabiiy va sun'iy asoslar
4. Poydevorlarning konstruktiv sxemalari

Tayanch iboralar; Zamin, poydevor, inshoot, grunt, loyiha, mustahkamlik, bino, tuproq, yuk, trambovka, qum.

1. Har qanday bino erining ustki qatlamlarining birortasiga tayanib tu-radi. U grunt yoki xarsangtoshlar bo'lishi mumkin.

Gruntlar - bu maydalangan tog' jinslari bo'lib, zarrachalar orasidagi yopishish mustahkamligi zarrachalarning mustahkamligidan anchagina kam bo'ladi.

Xarsanglar (qoyatoshlar) - bu zich tog' jinslari. Ularda zarrachalar o'zaro qattiq bog'langan va ular yaxlit massiv ko'rinishida yotadilar. Ularda yoriqlar bo'lishi mumkin.

Binodan tushadigan yukni qabul qiluvchi poydevor ostidagi grunt yoki tosh jinslari zamin (asos) deb ataladi.

Yuk ta'sirida zaminda kuchlanganlik holati paydo bo'ladi va ma'lum bir darajada poydevor ham, zamin ham deformatsiyalanadi.

Uncha qattiq bo'lmagan va bir tekis deformatsiya (osadka) bino uchun xavf tug'dirmaydi. Deformatsiya katta va notekis bo'lsa (prosadka), bino uchun xavfli hisoblanadi.

Binoning uzoqqa chidamliligi, uning ekspluatatsion sifatlari ko'p jihatdan zaminning holatiga bog'liq bo'lganligi sababli, zaminlarga jiddiy talablar qo'yiladi.

Zaminlarning yuk ko'tarish qobiliyatlari etarli bo'lishi kerak, ular bir tekis siqiluvchan, qo'zg'almas bo'lishlari kerak, er osti suvlari ta'sirida yuvilib, yoki erib ketmaydigan, muzlaganda shishmaydigan bo'lishlari lozim.

Agar poydevor ostidagi grunt o'zining tabiiy holatida binoning ustivorligini, unda bir tekis deformatsiya bo'lishini ta'minlash uchun etarli yuk ko'tarish qobiliyatiga ega bo'lsa, bunday zamin tabiiy zamin deb ataladi.

Agar poydevor qo'yiladigan chuqurlikda zaminning yuk ko'tarish qobiliyati etarli bo'lmasa, uni sun'iy ravishda mustahkamlash kerak bo'ladi. Bunday za-min sun'iy zamin deb ataladi.

Quyidagi gruntlar va xarsanglar zamin sifatida ishlatiladi:

1) Xarsanglar (qoyatoshlar) - aytib o'tilgandek, yaxlit massiv ko'rinishida yotadilar, ular kam siqiladigan, suvga chidamli, suv o'tkazmaydigan. Binolar uchun yaxshi, ishonchli zamin bo'lib xizmat qiladilar (granitlar, dioritlar, marmar va boshqalar).

2) Yirik parchali (chaqirtosh) gruntlar - xarsanglarning o'zaro bog'lanmagan yirikligi 2 mm dan katta parchalaridan tashkil topadilar.

Ularni parchalarning kattaligiga qarab qo'yidagi turlarga bo'lish mumkin:

- palaxsalar (валуны, глыбы) - kattaligi 200 mm dan ortiq;
- o'ta yirik shag'al (галка, щебен) - kattaligi 200-40 mm oralig'ida;
- yirik shag'al - kattaligi 40-20 mm oralig'ida;
- o'rtacha shag'al - kattaligi 20-10 mm oralig'ida;
- mayda shag'al - kattaligi 10-4 mm oralig'ida;
- juda mayda shag'al - kattaligi 4-2 mm oralig'ida.

Agar ular zich grunt ustida joylashgan bo'lsa, yaxshi zamin bo'lib xizmat qilishlari mumkin.

3) Qumlar - kattaligi 0,05 mm dan 2 mm gacha bo'lgan zarrachalardan tashkil topadilar. Zarrachalarning kattaligi bo'yicha qumlarni qo'yidagi turlarga bo'lish mumkin:

- juda yirik (shag'alsimon) qum - (2-1 mm);
- yirik qum - (1-0,5 mm);
- o'rtacha qum (0,5-0,25 mm);
- mayda qum - (0,25-0,1 mm);
- changsimon qum (0,1-0,05 mm).

Qum, agar yuvilib ketmaydigan holatda, bir tekis zichlikda va qalinlik-da qatlam bo'lib yotgan bo'lsa, binolar uchun yaxshi zamin bo'lib xizmat qiladi.

4) Gruntlagi kattaligi 0,05 mm dan 0,005 mm gacha bo'lgan zarrachalarni changsimonlar deb ataladi. Agar qum tarkibida bunday zarrachalar 15% dan 50% gacha bo'lsa, qumni changsimonlar guruhiga tegishli deb qarash mumkin. Changsimon zarrachalar gruntning qurilish xossalarini yomonlashtiradilar.

5) Gil (loy) tuproqlar (glina) - kattaligi 0,005 mm dan kichik bo'lgan ignasimon va tangasimon shakllardagi zarrachalardan tashkil topadilar. Ularda zarrachalar o'rtasidagi solishtirma tegib turish yuzasi katta bo'ladi. Ingichka kapillyarlar mavjud.

Gil tuproqlar quruq holatda katta yuklarni ko'tarishlari mumkin. Lekin namlik oshgan sari ularning yuk ko'tarish qobiliyati pasayadi. Gil tuproqlardagi ingichka g'ovaklar suv bilan to'lgan bo'lgani uchun, muzlagan paytida ular shishish (bo'kish) xususiyatiga ega bo'ladilar. Buni poydevorlarni loyihalashda hisobga olish kerak.

Qum va giltuproqning orasida qumloq, tuproq (supes) va qumoq tuproq (suglinok) uchrab turadi.

Qumloq tuproqda gil tuproq zarrachalarining miqdori 3 dan 10 % gacha bo'lishi mumkin.

Qumoq tuproqda esa giltuproq zarrachalari 10 dan 30 % gacha bo'lishi mumkin.

Sariq(sog') tuproq (lyoss) ham giltuproqlar guruhiga taaluqdi bo'lib, u sarg'ish rangli bir jinsli mayda donador va o'ta g'ovak jinslardan iborat. Unda changsimon zarrachalar ko'p bo'ladi. Sariq tuproqda oddiy ko'z bilan ko'rish mumkin bo'lgan yirik g'ovaklar bo'ladi. Suv tekanda bu tuproqda katta, tez erib boradigan cho'kish hosil bo'ladi. Shuning uchun ularni o'ta cho'kuvchan grunt (prosadochnyy grunt) deb ataladi.

6) Uyilgan gruntlar (suv xavzalari ostidan refulyator bilan chiqarilgan tuproqdan boshqasi) hamda organik aralashmalari bor gruntlarni avval mustahkamlamasdan zamin sifatida ishlatilishi mumkin emas.

Kuchsiz, bo'sh gruntlarda qurilish qilish zaruriyati tug'ilganda, sun'iy za-min (asos) yaratish uchun qo'yidagi usullar qo'llaniladi:

- 1) Shibbalash - maxsus shibbalagichlar (zichlagichlar - trambovka) yordamida amalga oshiriladi. Bu usul ayniqsa qumlar uchun qulay. Katta chuqurlikda gruntning zichlashtirish uchun qum yoki grunt qoziqlari hosil qilish kerak bo'ladi.
- 2) Yirik va o'rtacha qumlarni sementlashtirish yoki silikatlashtirish yo'li bilan mustahkamlash mumkin. Birinchisida gruntga katta bosim ostida sement qorishmasi, ikkinchisida esa navbat bilan suyuq shisha va kalsiy xlor eritmasi yuboriladi.

Mayda va changsimon qumlarga suyuq shisha bilan fosfor kislotasining aralashmasi yoki karbamid smola maxsus qotirg'ichlar bilan yuborilishi mumkin. Sariq (lyoss) gruntning suyuq shisha yuborish yo'li bilan mustahkamlash mumkin.

3) Sariq - (lyoss) gruntning yana termik usul yordamida mustahkamlash mumkin. Termik usul gruntning yuqori temperatura (400-800°S) da ko'ydirib sopolga aylantirib mustahkamligini oshirishga asoslangan.

4) Agar bo'sh gruntning zichlashtirib yoki mustahkamlab bo'lmaydigan bo'lsa, u holda uni boshqa mustahkamroq grunt, ko'pincha, qum yoki shag'al bilan almashtiradilar.

2. Poydevorlar binodan tushadigan yuklarni zaminga uzatish uchun xizmat qiladilar. Binoning uzoqqa chidamligi, mustahkamligi va ustivorligi ko'p jihatdan poydevorning sifatiga bog'liq. Poydevorlarning bino umumiy bahosidagi ulushi 8-10% ni, mehnat sarfi esa 10-15% ni tashkil qiladi.

Poydevorlar juda murakkab sharoitlarda xizmat qiladilar. Juda ko'p kuch va kuch bo'lmagan ta'sirlarni qabul qiladilar. Shu ta'sirlarga muvofiq ravishda poydevorlarga qo'yidagi talablar qo'yiladi:

- poydevor ostki tekisligida surilmaslikka, ag'darilmaslikka qarshi etarli mustahkamlik va ustivorlikka ega bo'lishi;
- er osti suvlarining ta'siriga chidamli bo'lishi;
- sovuqqa (muzlashga) chidamli bo'lishi;
- uzoqqa chidamlilik bo'yicha binoning uzoqqa chidamlilik darajasiga mos kelishi;
- industrial usullar bilan qurish mumkin bo'lishi;
- tejimli, iqtisodiy samarali bo'lishi kerak.

Poydevor uchun material sifatida yog'och, tabiiy toshlar, beton, temirbeton ishlatiladi. YOg'och poydevorlar vaqtinchalik binolarda qo'llaniladi. Yog'ochga kimyoviy ishlov berilgan bo'lishi kerak. Aks holda ular tez chiriydilar. Tabiiy toshlardan qilinadigan poydevorlar hozirgi paytda kam ishlatiladi. Toshlar markasi $R=30 \text{ kgs/sm}^2$ bo'lgan qorishma yordamida teriladi. Monolit poydevorlarda betonni tejash maqsadida 25-35% yirik toshlar qo'shish mumkin. Bunda butobeton hosil bo'ladi.

Zamonaviy binolarda asosan beton yoki temirbeton poydevorlar qo'llanilmoqda. Ayniqsa yig'ma beton bloklardan qilingan poydevorlar ko'p ishlatilmoqda. Ularning afzalligi shundaki, ularni butun yil bo'yi qurish mumkin.


Konstruktiv sxemasi bo'yicha poydevorlar lentasimon (tasmasimon), alohida turuvchi (ustinsimon), yaxlit va qoziq poydevorlarga bo'linadilar

Gruntga qo'yilish chuqurligiga qarab poydevorlarni sayoz (5 m gacha) va chuqur (5 m dan chuqur) poydevorlarga ajratish mumkin.

Lentasimon poydevor barcha asosiy devorlarning ostida qilinadi. Binodan tushadigan yuklar ko'p bo'lgan hollarda ustunlar ostida ham lentasimon poydevorlar qilinishi mumkin.

Poydevor tagligining enini yuklarning kattaligi va gruntning qarshiligini hisobga olgan holda aniqlaydilar.

Alohida turuvchi poydevorlarni asosan ustunlar (kolonnalar) ning tagida qiladilar. Ular stakan tipida bo'lishi mumkin. Kam qavatli binolarda ham us-tinsimon poydevorlar ishlatilishi mumkin. Ustunlarni asosiy devorlarning burchaklarida, ular kesishgan joylarda qo'yadilar. Ustun poydevorlar orasidagi masofa 2-3 m bo'lishi mumkin. Ustin poydevorlarga poydevor balkalari o'rnatiladi va ularning ustidan devor qilish mumkin. Ustin poydevorlar grunt mustahkam, lekin unga binodan tushadigan yuk kam bo'lgan hollarda maqsadga muvofiq hisoblanadi. Grunt sharoiti tufayli poydevorni chuqur joylashtirishni talab qilingan hollarda ham ustin poydevorlardan foydalangan ma'qul.



Poydevorlarning konstruktiv echimlari:

a - lentasimon poydevor; b - alohida turuvchi poydevor; v - yaxlit poydevor;

g - qoziq poydevorlar;

Yaxlit poydevorlar poydevorga tushadigan yuk ko'p, grunt esa kuchsiz bo'lgan hollarda bino ostini to'liq egallaydigan plita qilib bajariladi. Ular yaxlit plita tarzida monolit betondan qilinadi. Plita tekis va qovurg'ali bo'lishi mumkin. Qovurg'asi pastga va yuqoriga qaragan bo'lishi mumkin

Qoziq poydevorlar kuchsiz gruntlarga katta yuklarni uzatish kerak bo'l-ganda ishlatiladilar. Bunday poydevorlar qoziqlardan, rostverkdan iborat bo'ladilar Qoziqlarning o'zi betondan, temir betondan, ayrim hollarda yog'ochdan va metaldan qilinishi mumkin. Ularni erga zarba, vibrasiya, burash usullari bilan kirgizish mumkin yoki oldindan kovlangan quduqlarga beton qo'yish yo'li bilan tayyorlash mumkin.

Qoziq poydevorlarni ishlash prinsiplariga qarab ikki turga: ustin qoziq va osma qoziq poydevorlarga ajratish mumkin. Ustin qoziqlarning uchi mustahkam grunt qatlamiga kirib turishi va binodan tushadigan yukni shu gruntga uzatishi kerak. Bunday qoziq poydevorlar mustahkam gruntgacha bo'lgan chuqurlik qoziqning uzunligidan katta bo'lmagan hollarda qo'llaniladi. Mustahkam grunt katta chuqurlikda joylashgan hollarda qoziq poydevorning uchi unga etmasligi mumkin. Bunday hollarda osma qoziq poydevorlar qo'llaniladi. Ular yon sirti va qoziqni o'rab turuvchi grunt orasidagi ishqalanish kuchi hisobiga binodan tushadigan yukni asosga uzatadilar.

Ko'pincha uzunligi 3-6 m bo'lgan kalta qoziqlardan foydalaniladi. Lekin qoziqlarning uzunligi 15-20 metrgacha bo'lishi mumkin. Kalta qoziqlarni nisbatan mustahkam gruntlarga ham qoqish mumkin bo'ladi. Qoziqlarning kesimi to'rtburchak (250x350 mm), kvadrat (250x250 mm dan 400x400 mm gacha) qabul qilingan. Kvadrat qoziqlarning ichi aylanasi bo'sh qilinsa ham bo'ladi. Shu ma'noda, quvursimon ichi bo'sh qoziqlar ancha samarali hisoblanadilar. Ularning diametri 400-700 mm bo'ladi.

Qoziqlar planda yakka holda, qoziqlar lentasi, qoziqlar birlashmasi hamda qoziqlara maydoni tarzida joylashishi mumkin. Qoziqlar orasidagi masofa hisob bilan topiladi. Qoziqlar orasidagi minimal masofa $3d$ ga (d -aylanasi qoziqning diametri yoki kvadratning bir tomoni) teng qabul qilinadi. Lekin qoziqlar orasidagi masofa 1 m dan oz bo'lmasligi kerak.

3. Tabiiy va sun'iy asoslar.

Erning uski qismi poydevor ostida joylashgan tuproq massivi asos deb ataladi. Asoslar asosan ikki turga bo'linadi

1. Tabiiy asos.
2. Sun'iy asos.

Tabiiy asos deb o'zining tabiiy holatida binodan tushadigan barcha yuklarni ko'tarish qobiliyatiga ega tuproq massiviga aytiladi.

Sun'iy asos deb o'zining tabiiy holatida binodan tushadigan yuklarni ko'tara olmaydigan cho'quvchan tuproq massivlariga aytiladi. Shu sababli bu tuproq qatlamini sun'iy ravishda yuk ko'tarish qobiliyati oshiriladi.

Quyidagi tartibda sun'iy asoslarni ularning yuk ko'tarish qobiliyati oshiriladi.

1. Og'ir trambovka uslubi. Bu uslubda asos ya'ni tuproq massivi og'irligi 3-5 tonna bo'lgan kesik konus shaklidagi plitalar bilan trambovka qilinadi. Trambovka qilish uchun birinchi navbatda tuproq massivi namlanadi, suv qo'yiladi. Nam tuproqqa kranlar yordamida metall yoki temirbeton plita ko'tarib tashlanadi. Bu jarayon bir necha bor takrorlanadi. YA'ni tuproq cho'quvchanligi to'xtaguncha (atkaz).

2. Yirik va o'rtacha qumlarni sementlashtirish va silikatlash-tirish yo'li bilan yuk ko'tarish qobiliyati oshiriladi. Bunda tuproq massiviga katta bosim ostida sement qumli qorishma yuboriladi. Ikkinchisida esa suyuq shisha yuborish bilan mustahkamligi oshiriladi. Ba'zi grunt turlarida (lyos) termik usulda tuproqni yuk ko'tarish qobiliyati oshiriladi. Termik usulda tuproq 400-800 S gacha kuydiriladi. Bunda tuproq sopolga aylantirish mustahkamligi oshiriladi.

Agar mustahkamligi past bo'lgan tuproq massivini zichlashtirib trambovka

qilib mustahkamligini oshirib bo'lmasa u holda uni boshqa mustahkamroq tuproq bilan almashtiriladi. Tuproqlar quyidagi turlarga bo'linadi.

1. Xarsang toshlar – ular yaxlit massiv ko‘rinishida bo‘lib ular siqilishga chidamli, suv o‘tkazmaydi binolar uchun yaxshi ishonchli zamin bo‘lib xizmat qiladi.

2. Yirik parchali gruntlar – bular kattaligi 2mm dan katta parchalardan tashkil topadi.

3. Qumlar - kattaligi 0,05-2 mm gacha bo‘lgan zarrachalardan tashkil topadi.

Agar qumlarning kattaligi 0,05-0,005 mm gacha bo‘lsa changsimon kumlar deyiladi. Agar kattaligi 0,005 mm dan kichik bo‘lgan zarra-chalardan tashkil topgan tuproq gil (loy) deb ataladi. Sariq soz tup-roq lyos deb ataladi. Ular cho‘quvchanlik xususiyatiga ega bo‘lgan tuproq deb ataladi. Bu tipdagi tuproq massivlari suv yoki nam ta‘sirida o‘z og‘irligidan cho‘kadi. Agar suv va nam ta‘siridan 5 sm gacha cho‘ksa 1-chi tip cho‘quvchan tuproq deyiladi. Agar nam ta‘sirida o‘z og‘irligida 5 sm dan ko‘proq cho‘ksa bunday tuproqlar 2 chi tip cho‘quvchan tuproq deyiladi.

4. Poydevorlar – binoning eng pastki qismida joylashgan bo‘lib binodan tushadigan barcha yuklarni o‘ziga qabul qilib olib asosga uzatuvchi konstruksiya hisoblanadi. Poydevorlar o‘zining konstruktiv sxemasiga qarab 4 turga bo‘linadi

1. Tasmaimon (lentasimon) poydevorlar.

2. Yaxlit poydevorlar.

3. Alohida turuvchi yakka poydevorlar.

4. Qoziqli poydevorlar.


Tasmaimon poydevorlar asosan uzliksiz devorlarning ostidan quriladi. Tasmaimon poydevorlar ishlatilgan ashyosiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi.

1. Xarsangtoshli poydevorlar.

2. Beton poydevorlar.

3. Yig‘ma temir beton poydevorlar.

Ularning sxemalari quyidagi rasmda keltirilgan.



Tasmaimon poydevorlar.

1 - xarsangtoshli poydevorlar. 2 - beton poydevorlar.

3 - yig‘ma temir beton poydevorlar.

Alohida turuvchi poydevor.


Alohida turuvchi poydevorlar ustunlar va tayanchlar ostidan quriladi. Bu turdagi poydevorlar asosan 2 xil bo‘ladi:

1. Quyma monolit; 2. Yig‘ma temir betondan.

Quyma monolit poydevorlar qurilish joyini o‘zida apalovkalarga solib quriladi. Quyma poydevorlarni yig‘ma va boshqa poydevorlardan afzalligi shundan iboratki, zilzilaviy hududlarda binoning umumiy zilzilabardoshligini oshiradi.

Quyma monolit poydevor sxemasi quyidagi rasmda ko‘rsatilgan.

Alohida turuvchi poydevorning ustki sathi pol sathidan 15 sm pastda bo'ladi.




Quyma monolit poydevorlar.

Yig'ma temir betondan iborat poydevorlar quyidagi elementlardan iborat bo'ladi.

1. Ustun ostiga qo'yiladigan element stakan deb ataladi;
2. Stakan ostiga qo'yiladigan element poydevor plitasi deb ataladi.

Uning sxemasi quyidagi rasmda ko'rsatilgan.



Yig'ma temir-betonli poydevorlar.

Yig'ma temir beton elementdan iborat poydevorlar zavod sharoitida tayyorlanib, qurilish joyida montaj qilinadi. Bu poydevorlarning quyma monolit poydevorlardan afzalligi shundan iboratki, ularning qurilishiga kam mehnat kuchi sarf qilinib, qurilish muddati keskin qisqaradi.



Yaxlit poydevorlar.

Asos tuprog'i cho'quvchan bo'lgan va yuk ko'tarish qobiliyati kichik bo'lgan qurilish joylarida butun bino ostidan yaxlit poydevor quri-ladi. Bu poydevorlar ham asosan 2 xil bo'ladi:

Quyma monolit;

1. Yig'ma temir beton bloklardan iborat bo'ladi.

Yaxlit poydevor sxemasi quyidagi rasmda ko'rsatilgan.



Yaxlit poydevor sxemasi.

a) balkasiz yaxlit; b) balkali ya

Qoziqli poydevorlar (svay).

Qoziqli poydevorlar – asos tuprog‘ning yuk ko‘tarish qobiliyati kichik bo‘lgan va tuproqqa uzatiladigan yuklar juda katta bo‘lsa, asrlar bo‘yi mo‘zlardan iborat joylarda, botqoqli joylarda va sathiga yaqin qurilish mintaqalarida qo‘llaniladi.

Qoziqli poydevorlar materiali bo‘yicha quyidagi turlarga bo‘linadi.

Yog‘ochdan;

Temir betondan;

Betondan;

Po‘lat metaldan;

Qo‘shma kombinatsiyalashtirilgan.

Qoziqli poydevorlar qurilish bo‘yicha asosan 2 turga bo‘linadi:

1. Burg‘ular yordamida joyida quyilib tayyorlanadigan qoziqli poydevorlar.
2. Qurilish joyida maxsus uskunalar bilan qoqib tayyorlanadigan poydevorlar.

Qoziqli poydevorlar tuproq massivida ishlashi bo‘yicha asosan 2 - xil bo‘ladi:

1. Tayanchli qoziqli poydevorlar.
2. Osma qoziqli poydevorlar.

Tayanchli qoziqli poydevorlar uchi qattik tuproq massiviga tayangan bo‘ladi.

Osma poydevorlar esa asosan ishqalanish kuchi bo‘yicha ishlaydi, ularning uchi qattiq tuproq jinslariga tayanmaydi.

Nazorat uchun savollar

1. Zamin va poydevorlar deb nimaga aytiladi?
2. Guruntlar turlari?
3. Poysevorlar materiallari?
4. Zaminda grunt da qanday o‘zgarishlar yuz berishi mumkin?
5. Tabiiy asos deb nimaga aytiladi?
6. Sun‘iy asos deb nimaga aytiladi?
7. Poydevorlar o‘zining konstruktiv sxemasiga qarab necha turga bo‘linadi?
8. Qoziqli poydevorlar tuproq massivida ishlashi bo‘yicha asosan necha xil bo‘ladi?
9. Binodan tushadigan yukni qabul qiluvchi poydevor ostidagi grunt yoki tosh jinslari nima deb ataladi?
10. Poydevor uchun material sifatida nimalar ishlatiladi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi./Toshkent; « O‘zbekiston » ,1992 y.37 b.
2. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan kolsin/ Toshkent;.2.T. «O‘zbekiston», 1996y.38 b.
3. Teshaboev R.D. «Fuqaro binolarining me‘morchilik konstruksiyasi» qismlari. /Toshkent;.2.T. «O‘zbekiston», 1996y.38b.
4. Qurilish me‘yoriy qoidalari. Zilzilaviy hududlarda qurilish. II – 01.03.-96b.
5. Qurilish me‘yoriy qoidalari. Jamoat binolari va inshootlari. II – 01.08.- 96b.
6. Qurilish me‘yoriy qoidalari. Shovqindan himoya. II – 01.08-96b.
7. Qurilish me‘yoriy qoidalari. Qurilish issiqlik texnikasi.II. 03.04.- 97b.
8. P.P.Serbinovich. Grajdanskie zdaniya massovogo stroitelstva. Iz. -2, Moskva, «Выsshaya shkola» - 1975 god.

11- Mavzu: Qurilish texnologiyasi va uni tashkil etish. Qurilish texnologiyasini takomillashtirish. Qurilish texnologiyasini ishlab chiqarishga tadbqiq etish.

Reja

1. Qurilish texnologiyasi va uni tashkil etish.
2. Qurilish texnologiyasini takomillashtirish.
3. Qurilish texnologiyasini ishlab chiqarishga tadbqiq etish.

Tayanch iboralar; Qurilish, texnologiya, ishlab chiqarish, nazorat, laboratoriya, zveno, brigada, kompleks brigada, qurilish ishchisi, malaka darajasi, vaqt me'yori, ish haqi me'yori.

1 Qurilish texnologiyalari bu qurilish materiallaridan foydalangan holda binoni barpo etish demakdir. Har bir qurilish iahini balarishning ketma- ketligi, usuli qo'llabgan mashina va mexanizimlar, asbob- uskunalar, jihozlar YAMvaN, MMvaN, ish , ishbay, vaqtbay, mukofotli ishbay, tarif setkasi, tarif koeffitsienti, bu qurilish texnologiyasini tashkil etadi. Sifatni nazoratlash, birlamchi nazorat, laboratoriya nazorati, geodezik nazorat, ma'muriy nazorat, qurilish texnologiyalari yer ishlarini yuk oqimi, avtomobil transporti, traktor transporti, qilish texnologiyalariga no`linadi.

Texnologik jarayon (qurilish jarayoni)-qurilish maydonida sodir bo'lib, natijada tayyor barpo etilgan yoki qayta tiklangan bino yoki uning bir qismini hosil qiluvchi ishlab chiqarish jarayonidir. Ishlab chiqarish jarayoni oddiy yoki murakkab bo'lishi mumkin. Har qanday ishlab chiqarish jarayoni asosida ish quroli va ish predmeti yotadi. Ishchi ish quroli bilan ish predmetiga ta'sir etib ma'lum ish jarayonini hosil qiladi.

Agar qurilish jarayoni bir ishchi yoki bir zveno tomonidan bajarilishi mumkin bo'lsa bunday jarayon oddiy qurilish jarayoni deb ataladi. Bir nechta oddiy jarayonlardan iborat jarayon murakkab jarayondir. Masalan, bir qavatli sanoat binosi ustunlari montaji oddiy jarayon bo'lsa, bino karkasini montaj qilishni murakkab jarayon deb qarash mumkin.

Qurilish jarayonlari mexanizatsiyalashganlik darajasiga nisbatan qisman mexanizatsiyalashgan, to'la mexanizatsiyalashgan va avtomatlashtirilgan qurilish jarayonlari ko'rinishida namoyon bo'lishi mumkin.

Qurilish ishlari - qurilish jarayonlari yig'indisidir. Qurilishga jalb etilgan kishilarning ular bajarayotgan ishlari xarakteri va turiga nisbatan bo'linishi natijasida qurilish ishchilari hosil bo'ladi. Qurilish ishchilari bajarayotgan ishlarining nomiga nisbatan nomlanadilar: betonchilar, buyoqchilar, suvoqchilar, gisht teruvchilar va boshqalar.

Qurilish ishchisi malakasining darajasi (razryad) uning ish qobiliyati va bilimi bo'yicha aniqlanadi. Odatda, ishchiga malaka darajasi berish uchun me'yoriy hujjatiga asosan sinov ishi berilib undan imtixon qabul qilinadi, uning nazariy bilimi ham tekshirilib ko'riladi. Qurilish ishchilari zveno yoki brigadalar ko'rinishida faoliyat ko'rsatadilar.

Zveno - bir yoki bir nechta kasbga ega ishchilar guruhidir. Zveno har xil malaka darajasiga ega bo'lgan ishchilardan iborat bo'ladi. Bunda murakkab jarayonlarni yuqori malaka darajasiga ega bo'lgan ishchilar, oddiy jarayonlarni past malaka darajasiga ega bo'lgan ishchilar bajaradilar.

Brigadalar tarkibida bir nechta zvenolar faoliyat ko'rsatishlari mumkin. Brigadalar mutaxassislashgan, kompleks va yakuniy maxsulot beruvchi brigadalar ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Mutaxassislashgan brigada bir kasbga ega bo'lgan ishchilar guruhi: betonchilar, bo'yoqchilar brigadalari. Brigadada 25 tagacha ishchilar bo'lishi mumkin. Kompleks brigada har xil kasbga ega bo'lgan ishchilar guruhi bo'lib, brigada tarkibida betonchilar, suvoqchilar, duradgorlar, bo'yoqchilar va boshqalar bo'lishi mumkin. (Brigadada 50 tagacha ishchilar bo'lishi mumkin).

Yakuniy maxsulot beruvchi brigadalarda har xil kasb mutaxassislikka ega bo'lgan ishchilar, to'planib, ular o'z faoliyatlari natijasida tayyor maxsulotni (bino, inshoot) foydalanishga topshiradilar.

Qurilish ishchilari (zveno, brigada) faoliyatlarini texnik va ta'rifiy jihatdan me'yorlovchi tushunchalar mavjud. Bulardan vaqt me'yori, ish haqi me'yori va ishlab chiqarish qobiliyati (me'yoriga) ga ta'rif beramiz.

Vaqt me'yori - zvenoning birlik ish hajmini bajarishi uchun talab qilinadigan vaqt.

O'lchov birligi - odam.soat, mashina.soat.

Ish haqi me'yori - zvenoga uning birlik ish hajmini bajargani uchun to'planadigan ish haqi.

O'lchov birligi - sum, tiyin.

Ishlab chiqarish me'yori - ishning mukammal tashkil etilgan sharoitida zvenoning birlik vaqt ichida ishlab chiqargan maxsuloti hajmi. O'lchov birligi - m /soat, mingdona/soat, dona/soat va boshqalar.

Qurilish ishlarining ish joylari ular faoliyatlari davomida harakatlanishlari uchun ajratilgan joydir. Ish joyida ish predmeti, ish quroli, maxsulotning tayyor bir qismi, ishchi kuchi harakatlanishi uchun erkin (bush) joy bo'ladi. Ish joyi xarakteri va o'lchamiga nisbatan qator bo'linishlarga ega.

Bulak (delyanka) - zveno uchun ajratilgan ish joyi maydoni.

Zaxvatka - brigada uchun ajratilgan ish joyi maydoni.

Yarus - bir ish joyida turib binoning tiklanishi mumkin bo'lgan balandligi (gisht terish ishlari uchun $h = 1,2$ m).

Ma'lumki, qurilish maxsulotining sifati uning ishlatilish sohasiga yaroqlilik darajasini bildiruvchi xossa-xususiyatlar yig'indisi bilan belgilanadi. Qurilish qator me'yoriy hujjatlar (KMK, GOST, TSH) asosida olib boriladi. «KMK -qurilish me'yori va qoidalari» me'yoriy hujjatida qurilishni loyihalash, tashkil etish, ishlab chiqarish, tayyor maxsulotni qabul qilish va narxini aniqlash qoidalari keltirilgan.

Harakatdagi KMK quyidagi 6 qismdan iborat:

1. Tashkil etish, boshqarish, iqtisodiyot.
2. Loyihalash me'yorlari.
3. Tashkil etish, ishlab chiqarish va ishni qabul qilish.
4. Smeta me'yorlari.
5. Material va mehnat resurslari xarajatlari me'yorlari.
6. Bino va inshootlarni ta'mirlash.

2. Qurilish texnologiyasini takomillashtirish uchun qurilishda qator vaqt va ish haqi me'yorlari keltirilgan me'yoriy hujjatlardan ham foydalaniladi. Bular:

YAM va N (ENiR)-yagona me'yor va narxlar. Bu me'yoriy hujjatda barcha qurilish, montaj ishlarini bajarish bo'yicha qabul qilingan zveno tarkibi, birlik ish hajmlari uchun vaqt va ish haqi me'yorlari keltirilgan.

MM va N (VNIR) -ma'muriy me'yor va narxlarda vaqt va ish haqi me'yorlari qurilish ishlarining spetsifikatsiyasiga bog'liqlikda keltirilgan (ma'muriyat tomonidan tuzilishi mumkin).

MM va N (MNIr) -mahalliy me'yor va narxlar mahalliy qurilish tashkilotlari, me'yoriy-izlanish stansiyalari tomonidan tuzilib, unda shu qurilish hududi xususiyatlari hisobga olinadi.

Qurilishda ish haqi. Qurilishda texnik va ta'rif me'yorlari asosida haq to'lanadi. Bajarilgan ish hajmi hisoblanib texnik me'yoriy hujjat (YAM va N. KMK) da birlik ish hajmi uchun keltirilgan ish haqi me'yoridan foydalanib, ishbay ish haqi quyidagi ifoda yordamida aniqlanadi.

$I_x = V_i \cdot I_{xm}$ Bunda: I_x - ishbay ish haqi; sum;

V_i - ish hajmi, m , m , dona.

I_{xm} - birlik ish hajmi uchun ish haqi me'yori, sum.

Demak, ishbay haq to'lashda ish haqi mikdori bajarilgan ish hajmiga nisbatan to'g'ri proporsional ravishda oshib boradi. Ishbay haq to'lash oddiy va mukofotli bo'lishi mumkin.

Oddiy ishbay haq to'lashda, ish haqi bajarilgan ish hajmini hisoblab ish haqi me'yorlari bo'yicha to'g'ridan to'g'ri baholanadi.

Mukofotli ishbay haq to'lashda brigada ishga shartnoma asosida kirishib, asosiy ish haqiga qo'shimcha bajarilgan ishning sifatiga, bajarilish muddatiga bog'liqlikda mukofot ham oladi. Mukofot mikdori asosiy ish haqining 40% mikdoridan oshmasligi zarur.

Ta'rif setkasi asosida ishchining ishlagan ish soati bo'yicha hisoblangan ish haqi vaqtbay ish haqi deb ataladi. Ta'rif setkada ishchining malaka darajasiga mos ta'rif koeffitsienti berilgan. Hukumat tomonidan belgilangan eng kam mikdor oylik (soatlikni hisoblab topish mumkin) ish haqi mikdori va ta'rif koeffitsienti asosida vaqtbay ish haqini aniqlash mumkin.

Qurilishda 6 ta malaka darajasi mavjud bo'lib, keyingi 5 ta malaka darajasining 1 chi malaka darajasiga nisbatan ta'rif koef-fitsientlari aniqlangan.

Ayrim hollarda mukofotli vaqtbay haq to'lash ham mumkin, bunda ishchiga uning ilgor faoliyatini hisobga olib mukofot beriladi.

Qurilish montaj ishlari sifatini boshqarish - bu KMI ning sifatli bajarilishi uchun sharoit yaratish va nazorat qilishdir. Sifatni nazorat qilishning qator bosqichlari mavjuddir.

1. Birlamchi nazorat-qurilish maydoniga keltirilgan material, buyum va konstruksiyalar GOST, TSH asosida tashki tekshiruvdan o'tkaziladi.
2. Laboratoriya nazorati-qurilish materiallari, buyumlarining sifat xarakteristikalarini laboratoriya jihozlariida sinaladi, xulosalar qilinadi.
3. Geodezik nazorat - bajarilgan KMI sifati geodezik asboblari, jihozlari yordamida nazorat qilib boriladi.
4. Ma'muriy nazorat - KMI bajarilishi sifati avtorlik, buyurtmachi, bosh pudrat quruvchi tashkilot tomonidan nazorat qilinadi.

Davlat qurilish nazorati-KMI sifati «Davlat arxitektura qurilish nazorati» va uning topshirigi bilan loyiha institutlari tomonidan nazorat qilinadi.

Qurilishda yuklarni tashish. Transportlari. Qurilish montaj ishlarining tuxtovsiz davom etishi qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarining takomillashtirilgan grafik asosida, o'z vaqtida tashib keltirilishiga bog'liq. Qurilishda transport xarajatlari qurilish umumiy tannarxining 18-20% ni tashkil etadi. Ma'lumki, transport vositalarini, ularning harakat yo'llarini to'g'ri tanlab, yuklash va tushirish jarayonlarini kompleks mexanizatsiyalab, transport vositalaridan ratsional foydalanib bu xarajatlar miqdorini minimumga etkazish mumkin.

3. Qurilish texnologiyasini ishlab chiqarishga tadbiq etish asosan qurilishga yuk tashish ishlarini bajarishga bog'liq, qurilishda yuk tashishni qator texnik iqtisodiy faktorlarga (tashish masofasi, yukning turi va xarakteri,...) tayanib mutaxassislashgan (fakat bir turdagi transportda tashish) va aralash (bir necha tur transportlardan foydalanib tashish) yuk tashishga bo'lish mumkin.

Yuk tashish intensivligi (sur'ati) yuk aylanishi va yuk okimi tushunchalari bilan xarakterlanadi. Yuk aylanishi - ma'lum vaqt oraligida (soat, smena) ombordan ob'ektga yoki bir ob'ektdan ikkinchi ob'ektga tashilgan yuk og'irligi (ton). Yuk okimi- birlik vaqtda yo'lning ma'lum qismidan yuklarning olib utilish surati (ton).

Qurilishda yo'lning qurilish ob'ektiga nisbatan joylashganligiga nisbatan ichki va tashki transport turiga bo'linadi. Tashki transport qurilish maydonini tashki manbalar bilan boglash uchun xizmat qiladi. Ichki transport yuklarni qurilish maydoni chegarasida bir joydan ikkinchi joyga kuchirish uchun xizmat qiladi.

Bugungi kunda qurilishda quyidagi zamonaviy transportlardan foydalaniladi.

- temir yo'l transporti;
- avtomobil transporti;
- suv transporti;
- havo transporti;

- osma-sim arkonli transport;
- pnevmatik (havo bosimi yordamida) transporti va boshqalar.

Turar joy va jamoat binolarini qurilishda qurilish materiallari buyumlari va konstruksiyalarini tashib keltirishda avtomobil transportidan keng foydalaniladi. Sanoat binolari qurilishida temir yo‘l transportidan foydalaniladi.

Eng arzon transport turi-suv transportidir. Bunday transport turidan qurilish ob’ekting geografik joylashish sharoitidan kelib chiqib daryo, dengiz kabi suv yo‘llari mavjud bo‘lsa foydalaniladi.

Qurilish materiallari va buyumlarini etkazib berish kiyin bo‘lgan sharoitlarda havo transportidan (vertolet) foydalaniladi.

Quvur yo‘lli (truboprovodnyy) transportda sochiluvchan va donabay qurilish materiallari doimiy talab qilinadigan joylarga kuchiriladi (karerdan material sifatini boyitadigan zavodlarga yoki bunday zavodlardan omborxonalariga).

Osma arkonli transport turidan suvli to‘siq, jarliklar mavjud sharoitlarda qurilish yuklarini kuchirishda keng foydalaniladi. Avtomobil va traktor transporti.

Traktor transportidan avtomobil transportiga nisbatan kam foydalaniladi. Traktorlar tasma zanjir, va shina oyoqli bo‘lib, ular pritsep, yarim pritsep va treylerlar bilan birgalikda ishlaydi. Shina oyoqli traktorlar tasma zanjir oyoqli traktorlardan tezligi (40 km/soat), chaqqonligi, har qanday yo‘lda harakatlana olishi bilan ajralib turadi.

Qurilishda avtomobil transporti turlari - samosval (ag‘darma mashina)dan keng foydalaniladi. Unda tosh, chakik tosh, qum, grunt, beton va boshqa materiallar tashiladi. Bunday mashinalarning yuk ko‘tarish qobiliyati 3.5-40 tonna, kuzov hajmi 5-21,7 m chegarasida o‘zgaradi. Avtomobil-samosavallar kundalang kesimi to‘g‘ri burchakli, tog‘orasimon, yarim oval ko‘rinishidagi kuzovlarga ega bo‘lishi mumkin. Kuzovlar odatda (ko‘pchilik hollarda) orqadan bo‘shatiladi.

Avtomobillar pritseplar va yarim pritseplar bilan birgalikda ishlashlari mumkin (shatakka tortish prinsipida). Pritseplar va yarim pritseplar, ularda tashiladigan konstruksiyalarning turi, ko‘rinishi va o‘lchamiga mos ravishda maxsus moslamalar (kassetalar) bilan jihozlanadilar. Shu yo‘l bilan maxsus fakat bir turdagi konstruksiyalar tashishga mo‘ljallangan transportlar hosil qilinadi. Bularga devor panellarini tashishga mo‘ljallangan panelovoz, stropil fermalarni tashishga mo‘ljallangan fermavoz kabi transport turlarini misol tariqasida keltirish mumkin.

Avtomobil yo‘llaridan uzoq muddatda foydalanish shartlaridan biri - grunt asos va yo‘lning harakatlanish uchun mo‘ljallangan qismi materiallarining sifatini ta‘minlashdir. Qurilish maydonida aksariyat hollarda vaqtinchalik yo‘llardan foydalaniladi. Kapital yo‘l koplamasi sifatida sement-betonli, asfalt-betonli, sheben kali, gruntli, shagalli tushanalardan foydalaniladi. Yo‘l koplamasi sifatida yigma temir-beton plitalaridan ham keng foydalaniladi.

Sanoat binolari konstruksiyalari asosan temir yo‘l transportlarida tashiladi. Temir yo‘llar tor va me‘yordagi izli (koleya) bo‘lishi mumkin. Tor izli yo‘lning eni 750 mm, me‘yoriy izli yo‘lning eni 1524 mm bo‘ladi. Temir yo‘l elementlari (rels, shpal) harakatlanadigan sostavning og‘irligidan kelib chiqib tanlanadi. Odatda 1 km yo‘lga 1440, 1600 va 1840 shpal o‘rnatilishi mumkin.

Shpallar orasi shebenkali, shag‘alli ballastlardan to‘ldiriladi. Qurilish materiallari va buyumlarini temir yo‘lda tashish uchun platforma, yarim vagonlar (60 tonnagacha yukni ko‘taradi), sisterna, traylerlardan foydalaniladi.

Yuklash-tushirish ishlarini kompleks mexanizatsiyalash qurilish ishlab-chiqarishni jadallashtirishning muhim faktori bo‘lib, mehnat unumdorligining oshishiga sabab bo‘ladi. Qurilish yuklari yuklash, tushirish va etkazib berish usuliga nisbatan donabay (yigma temir beton, metall, yogoch konstruksiyalari, yogoch, metall, quvur, texnologik jihozlar), mayda donabay, yashiklarga terilgan, paketlarga yigilgan, sochiluvchan, boglovchi materiallar kabi yuklarga bo‘linadi.

Qurilishda juda ko‘p maxsus yuklash-tushirish mashina va mexanizmlari mavjud. Bundan tashqari qurilish montaj ishlarini bajaruvchi (ekskvotor, kran) ba’zi mexanizmlarda ham etarli darajada yuklash-tushirish ishlari bajariladi.

Yuklash tushirish mashinalari ishchi organlarining harakatiga karab uzlukli (siklli) va uzluksiz ishlovchi mashinalarga bo‘linadi.

Uzlukli ish prinsipida ishlovchi mashinalarga shina va tasma zanjir oyoqli bir kovshli ekskavatorlar, tekislovchi ekskavatorlar, bir kovshli universal yuklagichlar, avtoyuklagich, shina oyoqli elektroyuklagich, maxsus yuklagichlar kiradi.

Ularda sochiluvchan materiallar, grunt yuklanadi. bundan tashqari uzlukli ish prinsipida ishlovchi, donabay materiallarni yuklab tushiruvchi mashinalar ham mavjud. Bunday mashinalarga o'zi yurar, mikorali kranlar, ekskavator-kranlar, avtomobil-kranlar, bir kovshli yuklagichlar misol bo'la oladi.

Uzluksiz ish prinsipida ishlovchi mashinalarga ko'p kovshli yuklagichlar, konveyerlar misol bo'la oladi.

CHangsimon materiallar (sement) pnevmatik jihozlarda ham yuklanishi mumkin. Changsimon materiallarning quvurlar bo'yicha havo bosimi yordamida uzatilishi atrof muhitni muxofaza qilishda muhim rol o'ynaydi.

Nazorat savollari:

1. Qurilish ishlab chiqarish texnologiyasi fanida qanday asosiy tushunchalar mavjud?
2. Qurilishni texnik me'yorlash nima va unda qanday me'yorlovchi hujjatlardan foydalanadi?
3. Quruvchi ishchiga malaka darajasi qanday tartibda beriladi?
4. Qurilishda ish haqini to'lashning qanday usullari mavjud?
5. Qurilish montaj ishlari sifatini nazorat qilish qanday bosqichlarda amalga oshiriladi?
6. Texnologik jarayon tushunchasiga ta'rif bering?
7. Zveno, brigada tushunchalariga ta'rif bering.?
8. Mukofotli ish bay haq to'lashda mukofot miqdori qanday ifoda yordamida aniqlanadi?
9. Bino va inshootlarni ta'mirlash.?
10. Bugungi kunda qaday transport turlaridan foydalaniladi?

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. /Toshkent; "O'zbekiston". 1992.y 37 b.
2. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. / Toshkent; "O'zbekiston".1997y. 30 b.
3. M. Tohirov, R. Norov "Qurilish jarayonlari texnologiyasi/ Toshkent; "Fan".2007 y. 174 b.
4. M. Tohirov, R. Norov, E. Maxmataliyev "Qurilishmontaj ishlari texnologiyasi va ularni tashkil etish/ -Toshkent; "Fan".2007 y.243 b.
5. Badin G.M. Mexanikov A.V. "Texnologiya stroitel'nogo proizvodstva" Leningrad, SI,- 1997 y. 606 b.
6. Atoev S.S., Lutskiy S.YA. Texnologiya mexanizatsiya i avtomatizatsiya stroitel'nogo proizvodstva. M.SI. /-1984g.
7. Atoev S.S. Danilov N.N., Prognin V.V. -Texnologiya stroitel'nogo proizvodstva./ Moskva- 1984 g.

12-Mavzu :Menejment asoslari. Boshqarish sohasini fundamental o‘rganish. Soha bo‘yicha mutaxasislarni tayyorlash.

Reja

1. Menejment asoslari.
2. Boshqarish sohasini fundamental o‘rganish.
3. Soha bo‘yicha mutaxasislarni tayyorlash.

Tayanch iboralar: Menejment, menejment ob‘ekti va su‘ekti, makro, mego va mikro darajadagi ob‘ektlar, raqobat, boshqarish, korxona.

1. Menejment asoslari menejment – bu inglizcha so‘z bo‘lib, ingliz tilining Oksford lug‘atida berilgan ta’rifga binoan u: -boshqaruv hokimiyati va san’ati;

- resurslarni boshqarish bo‘yicha alohida moxirlik va ma’muriy ko‘nikmalar tushuniladi.

Boshqacha so‘z bilan aytganda, menejment – bu boshqaruv, ya’ni resurslarni, odamlarni boshqarish, samarali faoliyat olib borish va foyda olishni bilish, uni ko‘paytirish jarayonidir.

Boshqaruv esa o‘z navbatida-bu tanlov, qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilish jarayonidir.

Demak menejment fani bu – boshqaruvchiga tanlovni to‘g‘ri amalga oshirishni va oqil qarorni, qaror qabul qilishni o‘rgatuvchi fandir.

Menejmentning mohiyati ishlab chiqarish usuli, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar darajasi, ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishiga bog‘liq holda o‘zgaradi. Ishlab chiqarish rivojlanishi va iqtisodiy aloqalar murakkablashuvi bilan boshqaruv ham murakkablashadi va mustaqil fan sifatida ajralib chiqadi. Mulkchilikning turli shakllari mavjud bo‘lgan sharoitda tovar ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida raqobat vujudga kelib, u ishlab chiqarishni boshqarish, foydani ko‘paytirishga yo‘naltiriladi. Shundan kelib chiqib, menejment quyidagilarni o‘rganadi:

- boshqarish nazariyasi va amaliyoti;
- boshqarish obekti va subekti;
- boshqarish tamoyili va usullari;
- boshqarish madaniyati;
- menejer va uning fazilatlar;
- menejer reytingi;
- boshqarishda kirishuvchanlik va qaror qabul qilish;
- boshqarish funksiyalari;
- xodimlarni boshqarish;
- ishlab chiqarishni boshqarish;
- samaradorlikni boshqarish;
- o‘z-o‘zini boshqarish;
- hududiy boshqarish va xokozolar.

Fanning maqsadi o‘quvchilarga boshqarish muammolariga nisbatan qiziqish amaliy tashkilotchilik faoliyatiga ishtiyoq uyg‘otishdan iborat.

Menejmentni asosiy vazifasi esa, jamiyat rivojlanishining obektiv qonunlari talablarini hisobga olgan holda va iqtisodiyotni boshqarish amaliyotini umumlashtirish asosida iqtisodiyotni samarali boshqarish uchun zarur bir maqsadga yo‘naltirilgan harakatlar tamoyillarini ishlab chiqishdan iborat.

Menejment obekti haqida so‘z yuritganda, eng avvalo, obekt so‘zining lug‘aviy ma’nosiga e’tibor berishimiz zarur.

Ya’ni obekt bu:

- bizdan tashqarida va bizning ongimizga bog‘liq bo‘lmagan holda mavjud bo‘lgan borliq, voqelik moddiy dunyo, mavjudot;

- kishi faoliyati, diqqat–e‘tibori qaratilgan hodisa, narsa, shaxs;

- xo‘jalik yoki mudofaa ahamiyatiga ega bo‘lgan korxona, qurilish, ayrim uchastka va h.k.

Demak, obekt tushunchasi mikro voqelikdan (kishi va uning faoliyatidan) tortib, to makro voqelik (moddiy dunyo, jamiyat) darajasigacha bo‘lgan ma‘noni o‘z ichiga oladi. Masalan, «haydovchi o‘z mashinasini boshqara ololmaganligi sababli u yo‘ldan chiqib ketgan». Bu erda boshqaruv obekti bo‘lib mashina hisoblanadi.

Yoki, «U kishi o‘zini juda yaxshi boshqara oladi». Bu erda boshqaruv obekti bo‘lib kishi, shaxs hisoblanadi. Futbol komandasi yoki shahar transporti harakatini boshqarish. Tuman, viloyat, mamlakatni boshqarish va xakozo menejmentning yoki boshqarishning obektlaridir.

Boshqarish ishini bajaruvchi idoralar va ularning rahbarlari menejmentning **subekti**, ya‘ni boshqaruv organlari yoki menejerlar – boshqaruvchilar bo‘lib hisoblanadi.

«Struktura» (tarkib) lotincha so‘z bo‘lib, narsalar tarkibiy qismlarining o‘zaro bog‘liq ravishda joylashishi, tuzilishini bildiradi.

Boshqarish tarkibi deganda boshqaruv maqsadlarini amalga oshiruvchi va funksiyalarni bajaruvchi bir-biri bilan bog‘langan turli boshqaruv organlari va bo‘g‘inlarining majmui tushuniladi.

Boshqarishning u yoki bu vazifalarini hal qilish uchun muayyan organlar tuziladi. Boshqarish organlari tizimi, quyi organlarning yuqori organlarga bo‘ysunishi va ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqa boshqarish tarkibi tushunchasini tashkil qiladi. Bunday tarkib odatda «boshqaruv apparati tarkibi» deb yuritiladi. U biror–bir boshqaruv organining (vazirlikning boshqaruv apparati, korxonaning boshqaruv apparati va h.k.) bo‘limlari tarkibini bildiradi.

Boshqarish tarkibi ishlab chiqarish tarkibi bilan ham ifodalanadi. Bunda boshqarishni tashkil etishning dastlabki va belgilovchi omili ishlab chiqarish jarayoni bo‘lib hisoblanadi.

Shunday qilib boshqarishning maqsadlari, funksiyalari, vazifalari, obektlari va organlari uning **tashkiliy tarkibini** belgilab beradi.


Tashkiliy tarkiblarni hosil qiladigan boshqarish organlari boshqaruv bo‘g‘inlari va boshqaruv bosqichlari shaklida bo‘ladi.

2. Boshqarish sohasini fundamental o‘rganish boshqarish bo‘g‘ini – bu boshqarishning ayrim yoki qator funksiyalarini bajaruvchi mustaqil tarkibiy bo‘limlaridir.

Boshqarish bosqichi – bu ierarxiyaning muayyan darajasida amal qiladigan bo‘g‘indir. Masalan:


Vazirlik → birlashma → korxona → sex → uchastka

Boshqarishning quyidagi asosiy tashkiliy tarkiblari ma‘lum. (1-chizma).



/

(2-chizma).




2-chizma. Chiziqli boshqarish tartibi.

orqali tashkil etiladi.

Bu tarkib quyidagi ko‘rinishga ega (3-chizma).





A, B –sex boshliqlari, funksional organlar.

FO1 – marketing bo'yicha direktor o'rinbosari funksional rahbar.

FO2 –ishlab chiqarish bo'yicha direktor o'rinbosari funksional rahbar.

FO3 –moliya va reja bo'yicha direktor o'rinbosarlari funksional rahbar.


A1, A2, A3 – ijrochilar.

B1, B2, B3 – ijrochilar.

Funksional tarkib – bunda har bir boshqaruv bo'g'iniga muayyan funksiyalar biriktirib qo'yiladi. Masalan, biri marketing, ikkinchisi ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi.

Dasturli – maqsadli boshqarish tarkibi – bu tarkib uch ko'rinishda bo'ladi: loyiha bo'yicha boshqaruv, maxsulotga ko'ra boshqaruv, matritsaviy tarkib.

Loyiha bo'yicha boshqaruv – yangi texnika va texnologiyani qisqa muddatda joriy qilish zaruriyati tug'ilgan hollarda foydalaniladi. Bu bo'lim loyiha tayyorlaydi va uning ijro etilishini ta'minlaydi. Ish bitgandan keyin loyihalash guruhi tugatiladi.



Maxsulotga ko'ra boshqaruvning afzalligi axborotlarning kelish yo'llari va oqimining qisqarishida, yakka boshchilik tamoyiliga to'la rioya qilinishida, boshqarishning yuqori bosqichlarini mayda joriy vazifalardan xalos qilishda namoyon bo'ladi. Bunday tarkib bozorda talabning o'zgarishiga tezkor munosabat bildirishga qodir.

Matritsaviy tarkib – bo'yicha boshqarish ancha murakkab bo'lib, u maxsuloti nisbatan qisqa «umr» ko'radigan va tez-tez o'zgarib turadigan korxonalar tomonidan ko'llaniladi.

«Struktura» (tarkib) lotincha so'z bo'lib, narsalar tarkibiy qismlarining o'zaro bog'liq ravishda joylashishi, tuzilishini bildiradi.

Boshqarish tarkibi deganda boshqaruv maqsadlarini amalga oshiruvchi va funksiyalarni bajaruvchi bir-biri bilan bog'langan turli boshqaruv organlari va bo'g'inlarining majmui tushuniladi.

Boshqarishning u yoki bu vazifalarini hal qilish uchun muayyan organlar tuziladi. Boshqarish organlari tizimi, quyi organlarning yuqori organlarga bo'ysunishi va ular o'rtasidagi o'zaro aloqa boshqarish tarkibi tushunchasini tashkil qiladi. Bunday tarkib odatda «boshqaruv apparati tarkibi» deb yuritiladi. U biror–bir boshqaruv organining (vazirlikning boshqaruv apparati, korxonaning boshqaruv apparati va h.k.) bo'limlari tarkibini bildiradi.

Boshqarish tarkibi ishlab chiqarish tarkibi bilan ham ifodalanadi. Bunda boshqarishni tashkil etishning dastlabki va belgilovchi omili ishlab chiqarish jarayoni bo'lib hisoblanadi.

SHunday qilib boshqarishning maqsadlari, funksiyalari, vazifalari, obektlari va organlari uning tashkiliy tarkibini belgilab beradi. “Menejment” kafedrasi o'z faoliyatini 1969 yildan “Iqtisodiyot” fakulteti tarkibida “Qurilishni tashkil etish va rejalashtirish” nomi bilan boshladi.

3. Kafedrani tashkil etgan va uni birinchi mudiri bo'lib, dosent. Gilev Baris Mixaylovich hisoblanadi. Kafedrani keyinchalik, keyingi davrlarida i.f.d. professor Djabriev A.N., dotsent. Kamorov T.N., i.f.n. dotsent. Danilyan V.B., t.f.n. dotsent. Muhammadiev U.A., i.f.n. dotsent. Bektemirov A.B., Suyunov A.S.lar boshqarib kelishgan.

2012-2013 o'quv yilidan boshlab i.f.n. dotsent. Buronov O.B. kafedraga rahbarlik qilib kelmoqda. 2014 yilda X. T. Buriyev rahbarlik qilmoqda'

O'quv ishlari. Kafedra o'z faoliyatini o'quv yiliga mo'ljallangan reja asosida olib bormoqda. Kafedra majlislarida o'quv, o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot ishlari, ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarning holati doimiy ravishda tahlil qilib boriladi.

Hozirgi kunda kafedrada bakalavrlar uchun 19 ta fan, magistrlar uchun 2 ta fan, ma'ruza, seminar, Amaliy mashg'ulotlar olib boriladi.

Kafedrada bakalavr yo'nalishi uchun o'qitiladigan fanlar:

1. Menejment asoslari
2. Menejment nazariyasi
3. Marketing
4. Strategik menejment
5. Tadbirkorlik asoslari
6. Moliya va soliq
7. Biznesni rejalashtirish
8. Kichik biznes va tadbirkorlik
9. Tashkiliy xulq
10. Boshqarish qarorlarini qabul qilish
11. Qurilishni tashkil etish va boshqarish
12. Xorijiy investisiya
13. Bojxona ishi
14. Sug'urta ishi

15. Soliq va soliqqa tortish
16. Standartlashtirish va sifatni boshqarish
17. Xodimlarni boshqarish
18. Qimmatbaho qog'ozlar bozori
19. Ijtimoiy menejment

Kafedrada magistr yo'nalishi uchun o'qitiladigan fanlar:

1. Ta'lim menejmenti va iqtisodiyot
2. Strategik menejment

O'quv-uslubiy ishlar.

Kafedrada keyingi 3 yil mobaynida 2 ta o'quv qo'llanma, 2 ta monografiya va 7 ta uslubiy ko'rsatmalar chop qilindi.

O'quv qo'llanmalarning barchasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tavsiyasi bilan chop qilingan

Nazorat savollari:

1. Boshqaruv samaradorligi deganda nimani tushunasiz?
2. «Mezon» (kriteriya) va «ko'rsatkich» bir xil tushunchalarmi?
3. Boshqarish samaradorligini tahlil qilishda qanday ko'rsatkichlar ko'llaniladi?
4. Boshqaruv mehnati samaradorligini ko'rsatkichi qanday hisoblanadi?
5. Kafedrada magistr yo'nalishi uchun o'qitiladigan fanlar?
6. Boshqarish tarkiblarining tashkiliy turlarini sanab bering?
7. Menejment fani nimani o'rgatadi?
8. Struktura so'zining ma'nosi nima?
9. Boshqarish funksiyalari deganda nimani tushunasiz?
10. Loyiha bo'yicha boshqaruv qanday bajariladi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. /Toshkent; "O'zbekiston", 1992y. 37 b.
2. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. / Toshkent; " O'zbekiston",1997y. 30 b.
3. Abdullaev Yo. - Bozor iqtisodiyoti asoslari. /Toshkent; «Mehnat», 1997 y.116b.
4. Valijonov R., Kobulov O, Menejment asoslari. /Toshkent; "ToshDU" . 1997y.125b.
5. G'ulomov S.S. Menejment Asoslari. /Toshkent; «Shark». 2002 y.96b.
6. G'ulomov S.S. Menejment. /Toshkent; Tosh DAU, 2002 y.120b.
7. Sharifxo'jaev M., Abdullaev /Yo. Menejment. T «O'qituvchi». 2001 y.
8. Zaynutdinov SH., Murokaev I. va boshqalar/ «Menejment asoslari». Toshkent; «Moliya» 2001 y.86b.

Mundarija

№	Mavzular nomi	Betlar
	Soʻz boshi	3
1. Mavzu:	Uzluksiz taʼlim tizmi. Institut tarixi va tuzilmasi	4
2-Mavzu:	Taʼlim yunalishlari va mutaxassisliklar. Oʻquv rejasi. Nazariy va amaliy taʼlim. Talaba tanlovi fanlari	11
3-Mavzu:	Oʻquv dasturlari. Oʻquv mashgʻulotlarning turlari. Oʻqitish metodlari. Oʻqituvchi va oʻqituvchining dasturi faoliyati	19
4-mavzu:	Axborot resurs markazi. Axborot resurs markazining ichki tartib qoidasi va unga amal qilish	23
5- mavzu:	Talabalar bilimini baxolashning reyting tizimi. Yakuniy davlat nazorati	26
6-Mavzu:	Talabalar fan olimpiadalari. Talabalardan ishlari. Talabalarning ijodkorlik ishlari. Ilmiy yoʻnalishdagi kurs ishlari (loyihalari) va bitiruv malakaviy ishlari	30
7- Mavzu :	Institut talabalarning huquq va majburiyatlari. Talabalarning odob-axloq normalari. Talabalarning ichki tartib-qoidalari. Stipendiya bilan taʼminlash. Sport gʻlomlashtirish tadbirlari	35
8- Mavzu :	Binolarni rejaviy echimlari. Binolarni loyihalash asoslari . Bino barpo etishda arxitekturaviy loyihalash	41
9- Mavzu :	Binolarning konstruksiyalari. Yuklar va taʼsirlar.Turli konstruktiv echimlar	47
10- Mavzu:	Zamin va poydevorlar. Inshootni mustahkamligi va turgʻun holatlari.Inshootni loyihasini tuzish. Zaminda grunt da yuz bergan oʻzgarishlar	51
11- Mavzu:	Qurilish texnologiyasi va uni tashkil etish. Qurilish texnologiyasini takomillashtirish. Qurilish texnologiyasini ishlab chiqarishga tadbiq etish	58
12-Mavzu :	Menejment asoslari. Boshqarish sohasini fundamental oʻrganish. Soha boʻyicha mutaxasislarni tayyorlash	62

